


ISSN 3030-3605

GUVONHOMA №224008

Bosh muharrir
Pardayev Olim Mamayunusovich

Elektron nashr.

Nashrga tayyorlovchi
Hamidov Mubin Habibjonovich

Mas'ul kotib
Bekmurodov Abbos Amiriddinovich

Tahririyat kengashi a‘zolari:

Po‘latov Muxiddin Egamberdiyevich	**SamISI, rektori professori, i.f.d.**
Pardayev Mamayunus Qarshiboyevich	**SamISI, professor, i.f.d.**
Sharipov To‘lqin Saidaxmedovich	**SamISI, prorektori, dotsent, i.f.n.**
Berdimurodov Azizjon Shukrilloyevich	**SamISI, prorektori, i.f.f.d.**
Zaynalov Jaxongir Rasulovich	**SamISI, professor, i.f.d.**
Urazov Komil Baxromovich	**SamISI, professor, i.f.d.**
Bektemirov Abdumalik	**SamISI, professor, i.f.d.**
Shavqiyev Erkin	**SamISI, professor v.b. i.f.d.**
Tashnazarov Samiddin Nizamovich	**SamISI, professor, i.f.d.**
Rustamov Maqsud Suvonqulovich	**TDIU, professori.i.f.d.**
Mamatov Baxodir Safaraliyevich	**TDIU, professori, i.f.d.**
Xoliqulov Anvar Nematovich	**SamISI, professori, i.f.n.**
Sayfiddinov Ilxom Fayziddinovich	**TDIU, dotsent, i.f.n.**
Shukurov Izzatillo Xikmatillayevich	**SamISI, dotsent. t.f.n.**
Xolmamatov Diyor Haqberdiyevich	**SamISI, dotsent,.i.f.f.d.**
Ibodov Kamoliddin Mamatqulovich	**SamISI, dotsent, i.f.f.d.**
Abiyev Jahongir Ne’matovich	**SamISI, dotsent. i.f.f.d.**
Ernazarov Alisher Ergashevich	**KIUT Samarqand filiali dotsent, p.f.f.d.**
Artikov Zokir Sayfiddinovich	**SamISI, dotsent, i.f.f.d.**
Abduxamidov Sarvar Adxamovich	**SamISI, dotsent, i.f.f.d.**
Shirinov Uchqun Abduxalilovich	**SamISI, dotsent, i.f.f.d.**
Pashaxodjayeva Dildora Djabborxonovna	**SamISI, dotsent, i.f.f.d.**
Normurodov Umid Normurod o‘g‘li	**SamISI, dotsenti, i.f.f.d.**
Maxmudov Lazizbek Ubaydullo o‘g‘li	**SamISI, dotsenti v.b., i.f.f.d.**
G‘apparov Azim Qayumovich	**SamISI, i.f.f.d.**
Tagayev Salim |Sobirovich	**TDIU, dotsent. i.f.f.d.**
Axrororv Zarif Oripovich	**TDIU, Samarqand filiali i.f.d, professor v.b.**
Malikova Dilrabo Muminovna	**KIUT Samarqand filiali dotsenti, i.f.f.d.**
Ochilova Xilola Nematovna	**SamISI, i.f.f.d.**
Ruziboyeva Nargiza Xakimovna	**SamISI, dotsenti. i.f.f.d.**
Kuldashev Sherzod Alimardonovich	**SamISI, kata o‘qituvchisi. i.f.f.d.**
Beknazarov Farxod Abduvaxidovich	**SamISI, dotsenti, i.f.f.d.**
Karimov Anvar Aktamovich	**SamISI, dotsenti, i.f.f.d.**
Rustamov Jamshed Ergashevich	**SamISI, dotsent v.b., p.f.f.d.**
Murodov Alisher Murodjon o‘g‘li	**SamDU, dotsenti, i.f.f.d.**
Quliyev Begimqul Melikovich	**SamISI dotsent, v.b, i.f.f.d.**
Xaydarov Jaxongir Aktamovich	**SamISI dotsent, v.b, i.f.f.d.**
Ablaizov Akbar Abduvafo o'g'li	**SamISI dotsent, v.b, i.f.f.d.**
Usmonov Parviz Shavkatovich	**SamISI dotsent, v.b, i.f.f.d.**
Muxammedov Murod Muxamadiyevich	**SamISI professori, i.f.d.**
Ernazarov Nuriddin Elamonovich	**SamISI dotsent, i.f.f.d.**
Gaybullayev Raxim Murodovich	**TDIU Samarqand filiali professori, i.f.d.**

M U N D A R I J A

Xoliqulov A.N.	XIZMAT KO‘RSATISH FAOLIYATINING NAZARIY TAHLILI	5-9
Xudoyberdiyev S.I.	INSURANCE PREMIUM RATE FORMULA BASED ON THE CENTRAL LIMIT THEOREM	9-12
Abdumalik Bektemirov	IQLIM O‘ZGARISHI SHAROITIDA QISHLOQ XO‘JALIGINI YASHIL TRANSFORMATSIYA QILISHNING IQTISODIY MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	13-20
Xoliqulov A.N.	XIZMAT KO‘RSATISH SIFATI TAHLILINING NAZARIY JIHATLARI TALQINI	21-27
Умурзакова И.А.	РАЗВИТИЕ МАРКЕТИНГОВЫХ СТРАТЕГИЙ ПРЕДПРИЯТИЙ В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛИЗАЦИИ РЫНКОВ	28-31
Ernazarov N.E. Abdullayeva E.	MOLIYAVIY SIYOSAT - MAMLAKAT MOLIYAVIY BARQARORLIGINING ASOSI SIFATIDA	32-37
Ashurova O.Yu. Sattarova F.A.	XORIJIY INVESTISIYALARNING IQTISODIY JARAYONLARDAGI O’RNI: 2026 YIL GLOBAL TRENDLARI VA O’ZBEKISTON MISOLIDA TAHLIL	38-42
Ashurova O.Yu. Mamarasulov N.G‘.	O’ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA MAHALLIY SOLIQLAR VA YIG’IMLARNING AMAL QILISH MEXANIZMI	43-50
Комилова М.К.	ЭКОНОМИЧЕСКАЯ ТЕРМИНОЛОГИЯ В СОВРЕМЕННОМ РУССКОМ ЯЗЫКЕ	51-57
Суюнова К.Б. Казакбаева Д. Махсетбаева Г.	ГАСТРОНОМИЧЕСКИЙ МАРКЕТИНГ КАК ИНСТРУМЕНТ ФОРМИРОВАНИЯ НАЦИОНАЛЬНОГО БРЕНДА СТРАНЫ	58-61
Mamarasulov Z. E.	OVQATLANISHNI TO‘G‘RI TASHKIL ETISHDA PARRANDA GO‘SHTLARIDAN TAYYORLANGAN TAOMLARNING XUSUSIYATLARI	61-67
Umirzoqova M.I.	TURIZM INDUSTRIYASINI MODERNIZATSIYALASHNING IJTIMOIY-IQTISODIY DETERMINANTLARI VA UNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI	68-74
Умирзокова М.И.	ТУРИЗМ КАК ДРАЙВЕР РАЗВИТИЯ: ПУТИ СИСТЕМНОЙ МОДЕРНИЗАЦИИ.	75-82
Ernazarov N.E. Olimova D.N.	DAVLAT BYUDJETI – DAVLATNING ASOSIY MOLIYAVIY REJASI SIFATIDA	83-87
Ernazarov N.E. Akramova U.O’.	MOLIYAVIY SIYOSAT – MILLIY IQTISODIYOT MOLIYAVIY MUSTAHKAMLIGINING KALIT OMILI	87-91
Умурзакова И.А.	ВЛИЯНИЕ КЛИЕНТОРИЕНТИРОВАННЫХ МАРКЕТИНГОВЫХ СТРАТЕГИЙ НА КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТЬ ПРЕДПРИЯТИЙ	92-96
Xoliqulov A.N.	MEHMONXONAGA OID TUSHUNCHALARNING NAZARIY JIHATDAN TURLI YONDOSHUVLAR TAHLILI	97-102
Xolmamatov D.H.	LOGISTIKA MARKAZLARI INFRATUZILMASINI RIVOJLANTIRISHNING DOLZARB MASALALARI	102-108
Xudoyberdiyev S.I.	BARQAROR IJTIMOIY-IQTISODIY RIVOJLANISHNI MATEMATIK MODELASHTIRISH	109-113
Xudoyberdiyev S.I.	HOSILANING IQTISODIYOTDAGI ASOSIY TATBIQLARI	113-115
Xudoyberdiyev S.I.	BOSHQARUV JARAYONIDA MATEMATIK MODELLASHTIRISHNING AHAMIYATI VA MODELLASHTIRISH OBYEKTLARINING TAHLILI	116-119
Ишонкулова Ф.А.	ТЕНДЕНЦИИ ДЕМОГРАФИЧЕСКИХ ИЗМЕНЕНИЙ НА КРЕДИТНЫЕ СТРАТЕГИИ БАНКОВ	119-125
Ишонкулова Ф.А	ВАЛОВЫЙ ВНУТРЕННИЙ ПРОДУКТ УЗБЕКИСТАНА И ЕГО СТРУКТУРНЫЕ ИЗМЕНЕНИЯ	125-130
Норбоева Д.Дж.	СОВРЕМЕННЫЕ ЛИНГВИСТИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ ОТРАСЛЕВОЙ ЛЕКСИКИ И ТЕРМИНОВ ПСИХОЛОГИИ УПРАВЛЕНИЯ	130-134
Адилова Солияхон Жураев Шамшод	ГОСУДАРСТВЕННОЕ РЕГУЛИРОВАНИЕ ЭКОНОМИКИ: ПРЕИМУЩЕСТВА И НЕДОСТАТКИ	135-139
Адилова Солияхон Абсаматова М	ПОЛОЖЕНИЕ РУССКОГО ЯЗЫКА В СОВРЕМЕННОМ МИРОВОМ ЯЗЫКОВОМ ПРОСТРАНСТВЕ	140-144
Yuldasheva D.B.	LINGUISTIC FEATURES OF PRONOUN USAGE IN THE UZBEK LANGUAGE	144-151
Yuldasheva D.B.	LITERARY LANGUAGE AS A FACTOR IN CULTURAL AND SOCIAL DEVELOPMENT	151-157

Obloberdiyeva R.O.	MAKTABDA JISMONIY TARBIYA DARSLARINI HARAKATLI O‘YINLAR ORQALI TASHKIL ETISH VA O‘TKAZISH USLUBLARI	158-167
Mamarasulov Z.E. Zokirov T.Z.	XO‘RRANDALAR OVQATLANISHIDA RESTORANDAGI DAM OLISH VA SHOU DASTURLARINI TASHKIL ETISH XUSUSIYATLARI	167-171
Mamarasulov Z.E..	OVQATLANISH KORXONALARIDA SHOU DASTUR-LARNING MUHIM JIHATLARINI TASHKIL ETISH TALABLARI	171-176
Mamarasulov Z.E.	GO’SHTGA ISSIQLIK TA’SIRIDA ISHLOV BERISH JARAYONI VA UNI MAQSADLI ISHLATISH SHAROITI	176-179
Mamarasulov Z.E.	KORXONALARDA KO‘RSATILAYOTGAN XIZMATLARNING SIFATINI YAXSHILASH ORQALI MIJOZLAR TALABINI QONDIRISH YO‘LLARI	180-183
Mamarasulov Z.E.	OVQATLANISHDA ISHLATILADIGAN JIHOZLARNING EKSPLUATATSIYA QILISH TALABLARINI RIVOJLANTIRISH YO‘LLARI	183-186
G.A. Xolmirzayeva Jumaboyeva S.X. To’rayeva Sh.H.	KORXONADA INNOVATSION JARAYONLARNI BOSHQARISH	186-192
G.A. Xolmirzayeva Nishonov Javohir Bobomurodova D.Sh.	XODIMLARNING TASHABBUSKORLIGINI RAG‘BATLANTIRISH: INNOVATSION BOSHQARUVNING ASOSIY VAZIFASI	192-198
G.A. Xolmirzayeva Xakimov D.Sh. Aktamova N.A.	RAQAMLI IQTISODIYOTDA INNOVATSIYALAR – BARQAROR RIVOJLANISHNING ASOSI	198-204
G.A. Xolmirzayeva Mardonova S.D. Nuriddinova R.A.	LOYIHALARNI INNOVATSION BOSHQARISHDA EFFEKTIVLIKNI BAHOLASH.	205-211
G.A. Xolmirzayeva Shamsiyev S.Sh. Saidov O. A.	DAVLATNING INNOVATSION SIYOSATI – ZAMONAVIY IQTISODIYOT POYDEVORI	212-218
Ergasheva A.X.	INVESTITSION SAMARADORLIKNI OSHIRISHDA IQTISODIY MEXANIZMLARNI TAKOMILLASHTIRISH: NAZARIY VA AMALIY YONDASHUVLAR	219-223
Т.Л.Халиков	ПОВЫШЕНИЕ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ ТЕКСТИЛЬНОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ УЗБЕКИСТАНА НА ОСНОВЕ КЛАСТЕРИЗАЦИИ.	223-228
Т.Л.Халиков	СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДОВ ДИВЕРСИФИКАЦИИ ПРИ ОСУЩЕСТВЛЕНИИ ЭКСПОРТА ПРОДУКЦИИ ХЛОПКОВО-ТЕКСТИЛЬНОГО КЛАСТЕРА.	228-234
Т.Л.Халиков	ОРГАНИЗАЦИЯ ПРОИЗВОДСТВА ЭКСПОРТНОЙ ПРОДУКЦИИ В ОБЛАСТИ ХЛОПКОВОГО ТЕКСТИЛЯ В СООТВЕТСТВИИ С ТРЕБОВАНИЯМИ ВНЕШНИХ РЫНКОВ.	234-239
Т.Л.Халиков	КЛАСТЕРНОЕ РАЗВИТИЕ ХЛОПКОПЕРЕРАБАТЫВАЮЩЕЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ.	239-244
Т.Л.Халиков	ПЕРСПЕКТИВЫ ХЛОПКОВО-ТЕКСТИЛЬНЫХ КЛАСТЕРОВ.	244-250
G.A. Xolmirzayeva	INNOVATSION MENEJMENTGA ILMIY YONDASHISHLAR	250-254
G.A. Xolmirzayeva	KORXONALARDAGI INNOVATSION FAOLIYATNING ZARURLIGI.	254-259
G.A. Xolmirzayeva	INNOVATSION STARTAPLARNI BOSHQARISH MEXANIZMLARI VA BIZNES-MODELLAR	259-263
G.A. Xolmirzayeva	XORIJIY INVESTITSIYA-LARNING IQTISODIY MAZMUNI, SHAKLLARI VA XUSUSIYATLARI	264-268
G.A. Xolmirzayeva	JAHON IQTISODIYOTIDA TO‘G‘RIDAN-TO‘G‘RI XORIJIY INVESTITSIYA-LARNING O‘RNI	268-273
G.A. Xolmirzayeva	XALQARO KAPITAL HARAKATIDA TRANS-MILLIY KORPORAT-SIYALARNING O‘RNI	273-276
G.A. Xolmirzayeva	LIZING MUNOSABATLARINI HUQUQIY ASOSLARI VA ULARNI TAKOMILLASHUV	276-279
G.A. Xolmirzayeva	XORIJIY INVESTITSIYALARNI SAMARADORLIGINI ANIQLASHDA FOYDALANILADIGAN UMUMIY KO‘RSATKICHLAR.	280-283

Anvar Nematovich Xoliqulov –
SamISI "Iqtisodiy tahlil va statistika"
kafedrasi mudiri,i.f.n., professor

XIZMAT KO'RSATISH FAOLIYATINING NAZARIY TAHLILI

Annotatsiya: makolada xizmat ko'rsatish faoliyatining nazariy tahlili, ayniqsa xizmat ko'rsatish faoliyati, servisologiya tushunchalarining mazmun va mohiyati batafsil yoritib berilgan.

Kalit suzlar: xizmat, xizmat ko'rsatish, xizmat ko'rsatish faoliyati, servisologiya, boshqaruv, samaradorlik.

Abstract: The article provides a detailed theoretical analysis of service activities, particularly elucidating the content and essence of the concepts of service activity and servology.

Keywords: service, service delivery, service activity, servology, management, efficiency.

Kirish. Turli xil jamiyatlarda xizmat ko'rsatish faoliyatini ilmiy tushunish tarixiy evolyusiya tahlilini hozirgi zamonga xosligini ifodalaydi.

Bizning fikrimizcha, xizmat ko'rsatish faoliyati deganda – Bu odamlar faoliyatini jamoaviy hamda indivudial xizmatlarini o'zaro ta'siri amalga oshishining namoyon bo'lishidir. Bu o'zaro ta'sirlar bir tomondan turli xil talablarni o'zlashtirib, belgilangan foydani olishni hoxlaydi. Boshqa tomondan esa aniq xizmatni ko'rsatib, ularga ham xuddi shunday foydani olishni namoyon qiladi. Bu munosabatlarning maqsadi moddiy boyliklar to'plash emas balki insoniyat talabini qondirishdir. Tarixda o'zini – o'zi ta'minlash va qarindoshchilik o'zaro yordamidan o'sib chiqib, servis xizmati muvaffaqiyatli bozor munosabatida yaxlit holatga keltirildi. Bu ishchilar mehnatini kasbga bo'linishini hamda ularning korxona egalarini bozordagi xizmati faolligini shartlab qo'ydi. Bu xizmat ko'rsatish faoliyatini iqtisodiyotga bog'liq bo'lmagan xususiyati ijtimoiy va ta'sirchan qat'iyligini kuchayishidan dalolat beradi. Xizmat ko'rsatish faoliyatining murakkab xususiyati servisologiyadir.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Xizmat ko'rsatish korxonalari samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlar masalalari xorijlik olimlardan[1], Boden M.,

[1] Boden M., Miles I. (ed.). Services and the Knowledge-based Economy. – Psychology Press, 2000.; Eichengreen B., Gupta P. The two waves of service-sector growth //Oxford Economic Papers. – 2013. – №. 1. – pp. 96-123.; Eschenbach F., Hoekman B. Services policy reform and economic growth in transition economies, 1990-2004. – The World Bank, 2005.; Triplett J.E., Bosworth B.P. Productivity in the US services sector: new sources of economic growth. – Brookings Institution Press, 2004.; Бурменко Т.Д., Даниленко Н.Н., Туренко Т.А. Сфера услуг: Экономика: учебное пособие// М.: кнорус. – 2007. -Т. 328 с.; Плотников В.А., Иваненко М.Г. Подходы к анализу понятий «сервис» и «услуга». Журнал. Технико-технологические проблемы сервиса №3(33) 2015, стр.70.; Хайруллина Д.Р. Повышение эффективности управления развитием малых предприятий сферы услуг: дис. канд. экон. наук. 2014. – 230 с.;

Miles I., Yeichengreen B., Gupta P., Yeschenbach F., Xoekman B., Triplett Y. Ye., Bosvortx B. P., Korszьnski L. M., Burmenko T.D., Danilenko N.N., Turenko T.A., Sosunova L.A., Chernova D.V., Bass A.Ya., Razomasova Ye. A., Plotnikov V.A., Ivanenko M.G., Xayrullina D.R. va boshqalar tomonidan tadqiq etilgan. Ushbu muammolarni o‘rganishga o‘zbekistonlik olimlardan[2] M.Q.Pardaev, M.M. Muxammedov, Q.J. Mirzaev, O.M. Pardaev, I.S.Tuxliev va boshqalarning ilmiy ishlari bag‘ishlangan.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot jarayonida jamlash, guruhlash, induksiya va deduksiya, tahlil va sintez hamda iqtisodiy tahlilning an’anaviy usullari ko‘llanildi.

Tahlil va natijalar. Servisologiya – xizmat ko‘rsatish faoliyati haqidagi fan bo‘lib, ya’ni xozirgi kun dunyo analitikasida xalqaro intizom, teoritik va amaliy tekshirishlari sohalari shakllanib borayotgan fandir. Xizmat ko‘rsatish doirasidagi mehnatdan sanoat yoki qishloq xo‘jaligida ishlab chiqarish mehnati farq qilinishi aniqlanganligiga ancha vaqt bo‘lgan. Ammo o‘z – o‘zidan xizmat ko‘rsatish xususiyati uzoq vaqt tekshiruvchilar uchun, uzoq vaqtgacha noaniqligicha qolib keldi. Xizmat ko‘rsatish xususiyatini odamlar madaniy hayotida jamoa ishlab chiqarish bog‘liqligiga ko‘p vaqt kerak bo‘ladi. Quyida xizmat ko‘rsatish faoliyati ilmiy tahlilini asosiy va shakllanish bosqichlarini ko‘rib chiqamiz. Xizmat ko‘rsatish faoliyatini o‘rganishni umumiy nazariy va ilmiy tahlil xususiyatlarini ochishdan boshlaymiz. Hozirgi vaqtda xizmat ko‘rsatish faoliyatini ilmiy tahlil boshqa har qanday ilmiy yo‘nalishlar kabi o‘zining predmetini turli daraja va komponentlarga ega sifatida qaraladi. Xizmat ko‘rsatish faoliyati haqidagi ma’lumotlar yig‘ilib empirik daraja bosqichli tahlili amalga oshiriladi. Bu yerda xizmat ko‘rsatish faoliyati tabiati aniqlanadi uning fakt jarayonlari xususiyati tavsiflanib, uning asosiy qismi va chegaralari aniqlanadi. Xizmat ko‘rsatish faoliyati haqidagi umumlashgan nazariy tushunchalarni yuzaga kelishi bilan bog‘liq holda ancha murakkab tahlillarni bilishni keyingi bosqichlarda amalgam oshiriladi. Umumiy nazariy tahlil jamiyatda xizmat ko‘rsatish faoliyatini anglashni to‘liq qondirilish sifatining yuqori darajasi tushuniladi. Ushbu darajadagi anglashni nazariy aspektlarini bilish xizmat ko‘rsatishning metodologik tahlillarni ishlab chiqishga yo‘l qo‘yadi. Metodologik tahlil ostida umumnazariy tahlil tushunchalar tizimini bilish qonuniyatlari, uning mohiyatini tushuntirishdagi o‘rni, tarixiy evolyusiyasidagi qonuniyatlari, hamda jamiyat ishlab chiqarishda sotsial tuzilishi va amaliyotdagi o‘rni tushuniladi.

[2] Мухаммедов М.М., Мардонов Б.Б. Хизмат кўрсатиш соҳасида аҳоли бандлиги ва даромадлари. Монография. «Инновацион ривожланиш нашриёт-матбаа уйи». 2021. 186 б.; Пардаев М.Қ., Мирзаев Қ.Ж., Пардаев О.М. Хизматлар соҳаси иқтисодиёти. Ўқув қўлланма. – Т.: “ИҚТИСОД-МОЛИЯ”, 2014. – 384 б.;

Ko‘plab ijtimoiy va gumanitar fanlarda tahlilning aniq darajasi amaliyot faoliyotida olingan ilmiy natijalarni qo‘llash muhim ahamiyat kasb yetadi. Xizmat ko‘rsatish faoliyati haqidagi fanda aniq daraja o‘ta muhim ahamiyatga ega bo‘lib, xizmat ko‘rsatishni aholiga xizmat ko‘rsatish haqidagi bir qancha savollar, shu doira ishchilari, davlat hokimiyati tashkilotlari, hamda ko‘p sonli is’temolchilar uchun o‘ta muhimdir. Har qanday obektni ilmiy tahlildagi asosiy ma’no predmeti ega bo‘lib, xizmat ko‘rsatish mohiyatini to‘liq namoyon bo‘lishini ta’minlaydi. Xizmatlar to‘g‘risidagi nazariy tushunchalar ularnng boshlang‘ich etapidagi tahlili iqtisodiyotda yaqqol yo‘nalishga ega. XX – asrning o‘rtalarida xizmat ko‘rsatish faoliyatini tushunish xalqaro me’yorlar harakteri xususiyatiga ega bo‘lib, ushbu holatda iqtisodiy, ijtimoiy, boshqaruv va boshqa aspektlar tahlili teng huquqli deb qaraldi. Tarixiy amaliyotda xizmatni ilmiy tahlili imperik faktlarni yig‘ish bilan emas, balki iqtisodiy va ijtimoiy tabiatni aniqlash bilan boshlagan. Bu jarayon 18-19- asrlarda Angliya siyosiy iqtisodiyotida yuzaga keldi.

Angliya siyosiy iqtisodchilari xizmatni iqtisodiy munosabatlarni tarkibiy qismi deb qaradi. Shuning uchun olimlar xizmatni nomoddiy foydaga kiritishdi. Xizmat harakterini tushunishda yana bir asosiy xususiyat foydali mehnat bo‘lib, bu texnika yaratish kundalik ehtiyoj mollari bilan bog‘liqligini xizmat doirasida foydasiz mehnatga nisbati sifatida qaraldi. Xizmat ko‘rsatish faoliyatida moddiy ishlab chiqarishda foydali mehnatdan foydasiz mehnatni xizmatni ko‘p turini ko‘rsatadi va sezilmaydigan mehnatlarning xususiyatlarini bir-biridan farqlaydi.

XX – asrning 50-60 yillaridan boshlab Shimoliy Amerika va G‘arbiy Yevropa davlatlari iqtisodiyotda xizmatni jadal rivojlanish jarayoni obekti sifatida qaraladi. XX – asr o‘rtalarida iqtisodiyot amaliyotida yuzaga kelgan o‘zgarishlar ta’sirida G‘arb mamlakatlarida ommaviy psixo-logik hamda nazariy fikrlarni kengaytirib, iqtisodiy rivojlanishni har tomonlama to‘liq o‘rganishni taqazo yetadi. Iqtisodiyot fanida xizmat foydali mehnat elementi sifatida qaraladi. Insoniyatga foyda keltira-digan har qanday foydali xizmat foydali mehnat deb ataladi. Xizmat doirasidagi bozor munosabatlari elementlarining tovar ishlab chiqarish doirasida xizmat ko‘rsatish faoliyati o‘ziga xos xususiyatlariga ega.

Xizmat ko‘rsatish faoliyatida metodologik tahlilning nazariy madaniy – antropologik, politologik, ijtimoiy psixologik hamda ijtimoiy tushunchalar qo‘llana boshlanishi bilan boyidi.

Yuqoridagi g‘oyalarga asosan xizmatlar jamiyat va individual turlarga bo‘linadi. Xizmat doirasini rivojlanishini sotsiologlar bevosita hozirgi zamon ishlab chiqarishdagi ishchilarning vaqtini oshirish bilan bog‘laydi. Bu haqda sotsiologiya

fanida bir qancha bilimlar rivojlanib bordi. Sog‘lomlashtirish va tibbiy xizmatni o‘rganishda biologiya, psixologiya va meditsina fanlarining bilim va yutuqlarini o‘rganish bilan amalga oshiriladi.

Turizm va sayohat bilan bog‘liq bo‘limida geografiya landshaftlar iqlim haqida ilmiy ma’lumotlar qo‘llaniladi. Xizmat ko‘rsatish samaradorligini oshirishda marketing va reklamaning imkoni bo‘yicha qo‘llash amaliyotda biznes tavsiya etiladi.

Xizmat ko‘rsatish faoliyatini tekshirishda asosiy yo‘nalish ishlab chiqarish menejmenti haqidagi tushunchalar shakllanishi bilan bog‘liq bo‘lib, bunga menejment xizmat ko‘rsatish faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olib yondoshadi. Menejment tahliliga korxona tabiati va mohiyatini undan tashqari bozor sharoitida samaradorligini baholash bilan bog‘liq holda tushuniladi.

1-jadval.

Korxonalarning tashkiliy asoslari to‘g‘risida teoretik tushunchalar evolyusiyasi, boshqaruv faoliyati va uning samaradorlik mezonlari

K o n e	Aspektlarda tashkillashtirish modeli		
	Korxonalarni rivojlantirish	Menejment faoli-yatini ustuvorligi	Samaradorlik mezonlari
Ilmiy bosh-qaruv maktabla-ri (1885-1920)	M e x	Ishlab chiqarishni tezkor boshqarish	Iqtisodiy samarador-lik yoki resurslarni rotsional qo‘llash
I n s o	Mehnat taqsimotidan tuzilgan odamlar jamoasi	Xodimlarni boshqarish yoki tashkillashtirish	Psixologik va sotsial omillarni xisobga oluvchi iqtisodiy samaradorlik
Tizimli munosabat (50 – yillarning oxiri-dan shu kunga qadar)	Murakkab ierarxik ko‘p tabaqali tizim	Strategik menejment	Muvofiqlik tizim
S tuatsion munosa-bat (60 – yillarning oxiridan shu kunga qadar)	Xar – xil guruhlar qiziqishini hisobga olgan, xar – xil o‘zgaruvchilarga gan jamoa tashkilotlari	Tashkilotning xar – xil bo‘lmlaridan o‘z-aro tashkillashti-rish umumiy maqsadini birgalikdagi siyosati	Sotsial iqtisodiy maqsadga muvofiqlik

Xulosa va takliflar. Shu o‘rinda nazariy menejment tushunchasi asta sekin umumlashib va murakkablashib bormoqda. Korxona xizmat ko‘rsatish faoliyatining boshqaruvi ko‘p funksiyalari sifatida qaraladi. Ya’ni bunda korxonalarning faqatgina ishchilar boshqaruvi va moddiy moliyaviy tahlilni har tomonlama nazarda tutilgan.

Bundan tashqari menejment xizmatiga joriy va strategik boshqaruv, ishchilar boshqaruvi, moliyaviy investitsion, tabiatni qo‘riqlash yo‘nalishidagi xizmatlar kiradi.

Xizmat ko‘rsatish faoliyatiga nazariy tahlilni murakkablashuvi unga qo‘shimcha obektlarni qo‘llashni tavsiya etadi. Xozirgi kunda bu fan xalqaro me’yorlar yo‘nalishidagi tushuncha bo‘lib, asosiy rolni ijtimoiy va iqtisodiy tahlillarni bajaradi. Bundan tashqari nazariy darajadagi tushunchalar ushbu fanda aniq darajada ega bo‘lib, ilmiy tushuncha, xulosa va tavsiyalar servis faoliyati amaliyotida qo‘llashni maqsad qilib qo‘yadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Sh.M. Mirziyoev. O‘zbekiston - 2030strategiyasi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 11.09.2023 yildagi PF-158-son.
2. M.Q.Pardayev, A.N.Xoliqulov, T.I.Yahyoyev. Iqtisodiy tahlil. Darslik., SamISI, “Fan bulog‘i” nashriyoti, Samarqand.: 2024, 25,0 b.t.
3. A.N.Xoliqulov. Iqtisodiy tahlil va audit. O‘quv qo‘llanma, Samarqand: Fan bulo‘g‘i nashriyoti, 2023 yil – 208 bet 13,06 b.t.
4. A.N.Xoliqulov. Turistik korxonalar faoliyati tahlili. O‘quv-qo‘llanma, Samarqand.: Fan bulog‘i nashriyoti, 2024 yil - 312 bet, 19,5 b.t.
5. Xoliqulov A.N. Xizmat ko‘rsatish korxonalari samaradorligini tahlil qilishning metodologiyasini takomillashtirish yo‘nalishlari. Monografiya. Samarqand iqtisodiyot va servis instituti – Samarqand.: “STEP-SEL” MCHJ. Nashriyoti, 2023 - 274 bet. 17,12 b.t.

Xudoyberdiyev Sardor Ismoilovich
Senior Lecturer, Department of Higher Mathematics, Samarkand Institute of Economics and Service

INSURANCE PREMIUM RATE FORMULA BASED ON THE CENTRAL LIMIT THEOREM

Abstract: This article discusses the central limit theorem, one of the key theorems of probability theory, and its application in insurance theory.

Keywords: central limit theorem, insurance economics, random variable, insurance company, client, insurance premium, financial protection against unexpected losses.

Abstract: Ushbu maqolada ehtimollar nazariyasining asosiy teoremalaridan biri bo'lgan markaziy limit teoremi va uning sug'urta nazariyasidagi qo'llanilishi muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar: markaziy limit teoremi, sug'urta iqtisodiyoti, tasodifiy o'zgaruvchi,

sug'urta kompaniyasi, mijoz, sug'urta mukofoti, kutilmagan yo'qotishlardan moliyaviy himoya.

First, let us briefly consider the essence of insurance economics.

Insurance economics is a system that ensures economic stability by reducing financial risks, sharing them, and redistributing them. Its main purpose is to ensure that economic entities do not suffer severe financial losses when unexpected damages (risks) occur.

Risk is the probability of unknown and unexpected losses. Insurance contracts are concluded precisely on the basis of these probabilities.

An insurance premium (rate) is the amount of payment determined by the insurer to cover the probability of loss.

Loss distribution refers to the average distribution of losses among insured persons, which can be modeled through the central limit theorem (CLT).

The main functions of insurance economics are as follows:

Financial protection — ensuring the financial stability of a citizen or enterprise against risks.

Capital accumulation role — forming investment capital in the economy through insurance premiums.

Social stability — serving as a support mechanism in cases of natural disasters, technological accidents, or loss of health.

The economic significance of insurance theory lies in the fact that the insurance market is an integral part of the economic system. It is a unique market for evaluating and distributing risk and is optimized through statistical and mathematical tools, especially the central limit theorem.

The formal definition and mathematical foundations of the central limit theorem are as follows:

Definition. Let $X_1, X_2, ..., X_n$ - be independent and identically distributed random variables, each having finite mean $M(X_k) = a_k$, $(k = 1,2,...)$, and finite variance $D(X_k) = \sigma_k^2$, $(k = 1,2,...)$. Then the sample mean

$$\overline{X_n} = \frac{1}{n}\sum_{i=1}^{n} X_i$$

when standardized as follows,

$$Z_n = \frac{\overline{X_n} - \mu}{\sigma / \sqrt{n}}$$

converges in distribution, that is,

$$\lim_{n\to\infty} P(Z_n \le z) = \Phi(z), \quad \forall z \in R$$

Here, $\Phi(z)$ is the distribution function of the standard normal distribution.

The central limit theorem means that the sum or average of many independent random events approaches a normal distribution for sufficiently large n, even if the original variables themselves are not normally distributed.

An insurance company models the amount of losses for many clients (policyholders). For each client, the loss is treated as a random variable X_i. As the number of clients n increases, their total or average loss approaches a normal distribution. This makes it possible to calculate the insurance premium rate on a reliable statistical basis.

To calculate the premium rate, the insurance company uses the following formula based on the expected loss μ and the selected confidence level:

$$P = m + z_\alpha \cdot \frac{\sigma}{\sqrt{n}}$$

where:

μ — expected average loss;

σ — standard deviation of losses;

n — number of insured persons;

z_α — the Z-quantile corresponding to the selected confidence level (for example, 95%).

The central limit theorem serves as a basis for calculating premium rates in insurance mathematics in a stable and reliable manner. This model allows an insurance company to estimate the probability of losses through the normal distribution and to set premiums prudently.

Suppose an insurance company has 10,000 independent insured clients. For each client, the individual loss is treated as a random variable. The expected average loss per client is $\mu = 500$ thousand UZS, and the standard deviation of losses is $\sigma = 1200$ thousand UZS. The company wants to determine a premium rate that will be sufficient to cover losses at a 95% confidence level.

Based on the central limit theorem, let us calculate the premium rate required for one insured unit.

Given: $\boldsymbol{\mu = 500, \sigma = 1200, n = 10,000}$.

Confidence level: $\mathbf{95\%} \Rightarrow z_{0.95} = 1.645$

Premium rate formula:

$$P = m + z_{\alpha} \cdot \frac{\sigma}{\sqrt{n}}.$$

Calculations:

$$\frac{\sigma}{\sqrt{n}} = \frac{1200}{\sqrt{10\,000}} = \frac{1200}{100} = 12$$

P=500+1.645·12=500+19.74=519.74

Therefore, the company should charge an insurance premium of 519.74 thousand UZS from each client. This amount is sufficient to cover losses with a probability of 95%.

Conclusion. The central limit theorem plays an important role in insurance mathematics by providing a stable and reliable basis for calculating insurance premium rates. Through this model, an insurance company can statistically assess the probability of losses using the normal distribution and set rates with appropriate caution.

REFERENCES

1. Formanov Sh.K. Aktuar matematika. -T.: “Fan va texnologiya”. 2019.

2. Patrik G. *Estimating casualty insurance loss amount distributions.* Proceedings of the Casualty Actuarial Society. 1980.

3. Nelson C.H. *The influence of distributional assumptions on the calculation of crop insurance premia.* 1990.

4. Wen L., Zhuang X., Mei G., Zhang Y. *Asymptotic Normality of Nonparametric Estimate for Zero-Utility Premiums.* 2019.

5. Dassios A., Embrechts P. *Martingales and insurance risk.* Communications in Statistics - Stochastic Models. 1989.

Abdumalik Bektemirov
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti
professori, i.f.d.

IQLIM O‘ZGARISHI SHAROITIDA QISHLOQ XO‘JALIGINI YASHIL TRANSFORMATSIYA QILISHNING IQTISODIY MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Annotatsiya. Mazkur maqolada iqlim o‘zgarishi sharoitida qishloq xo‘jaligini yashil transformatsiya qilishning iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish masalasi tadqiq etildi. Tadqiqotda yashil transformatsiyaning mazmun-mohiyati, uning resurs tejamkorlik, kam uglerodli ishlab chiqarish, iqlimga moslashuv va ekologik barqarorlik bilan bog‘liq jihatlari ochib berildi. Xalqaro va O‘zbekistonlik olimlar ishlari tahlili asosida yashil moliya, suv tejamkor texnologiyalar, agrar siyosat, ekin diversifikatsiyasi va iqlim risklarini boshqarish mexanizmlari baholandi. Tahlil natijalari qishloq xo‘jaligida subsidiya, kredit, sug‘urta, raqamli monitoring va natijaga asoslangan rag‘batlarni uyg‘unlashtirish zarurligini ko‘rsatdi. Shu asosda yashil transformatsiyaning integral iqtisodiy mexanizmi taklif etildi. Xulosada tarmoqni iqlim xatarlariga moslashtirish, suv va energiya samaradorligini oshirish hamda davlat qo‘llab-quvvatlashini qayta yo‘naltirish bo‘yicha amaliy takliflar ishlab chiqildi.

Kalit so‘zlar: iqlim o‘zgarishi, qishloq xo‘jaligi, yashil transformatsiya, iqtisodiy mexanizm, yashil moliya, suv samaradorligi, iqlimga moslashuv, agrar siyosat, ekin diversifikatsiyasi, barqaror rivojlanish.

Kirish. Iqlim o‘zgarishi hozirgi davrda qishloq xo‘jaligi barqarorligiga eng kuchli ta’sir ko‘rsatayotgan omillardan biriga aylandi. Haroratning oshishi, suv resurslari taqchilligi, qurg‘oqchiliklar chastotasining ortishi, tuproq degradatsiyasi va hosildorlikdagi beqarorlik agrar ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligini pasaytirmoqda. Shu sharoitda qishloq xo‘jaligini an’anaviy ekstensiv rivojlantirish emas, balki resurs tejamkor, kam uglerodli va iqlimga chidamli model asosida qayta tashkil etish zarurati tug‘ilmoqda.

Yashil transformatsiya qishloq xo‘jaligida suv, yer, energiya va biologik resurslardan oqilona foydalanish, uglerod izini qisqartirish, moslashuv salohiyatini oshirish va fermer daromadlarini barqarorlashtirishni anglatadi. Bunda iqtisodiy mexanizmlar – subsidiya, soliq imtiyozlari, imtiyozli kredit, sug‘urta, investitsiya, raqamli monitoring va natijaga asoslangan qo‘llab-quvvatlash – hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Jumladan, O‘zbekiston uchun suv taqchilligi, irrigatsiyaga yuqori bog‘liqlik va ekin tarkibining sezgirligi yashil transformatsiyaniyu dolzarbligini yanada oshiradi.

Tadqiqotning maqsadi – iqlim o‘zgarishi sharoitida qishloq xo‘jaligini yashil transformatsiya qilishning iqtisodiy mexanizmlarini nazariy va amaliy jihatdan asoslash, shuningdek, O‘zbekiston sharoitiga mos takomillashtirish yo‘nalishlarini ishlab chiqishdan iborat.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi. Xalqaro adabiyotlarda qishloq xo‘jaligini yashil transformatsiya qilish “iqlimga moslashuv + chiqindilarni kamaytirish + mahsuldorlikni saqlash” uchligi asosida izohlanadi. Ammo bu yondashuvni O‘zbekiston sharoitiga tatbiq qilishda mahalliy suv tanqisligi, irrigatsiya tarmog‘ining samaradorligi, yer sho‘rlanishi va fermer qarorlarining institutsional cheklovlari ham alohida hisobga olinishi lozim.

Shu nuqtai nazardan, I.Babaxolov va A.Hasanovlar Zarafshon daryo havzasi misolida fermerlarning iqlim o‘zgarishi va suv tanqisligiga munosabatini o‘rganib, moslashuv strategiyalari ko‘p jihatdan suvga kirish imkoniyati, hududiy joylashuv va xo‘jalikning resurs salohiyatiga bog‘liq ekanini ko‘rsatgan. Mualliflar tadqiqotida fermerlar iqlim o‘zgarishini real iqtisodiy xavf sifatida qabul qilishi, ayniqsa suv taqchilligi sharoitida xo‘jalik daromadlari va qaror qabul qilish mexanizmi sezilarli o‘zgarishi qayd etilgan. Bu xulosa yashil transformatsiyada umumiy yondashuv emas, balki hududiy-differensial iqtisodiy instrumentlar zarurligini anglatadi.

D.N.Saidova va M.B. Nasulloevalar esa o‘z tadqiqotida O‘zbekiston qishloq xo‘jaligiga iqlim o‘zgarishining ta’sirini 1960–2023 yillar ma’lumotlari va prognoz ssenariylari asosida tahlil qilib, harorat o‘sishi, yog‘ingarchilikning kamayishi va qurg‘oqchiliklar chastotasining ortishi paxta, g‘alla va bog‘dorchilik tarmoqlari uchun jiddiy xavf tug‘dirayotganini ko‘rsatgan. Mualliflar ayrim ssenariylarda 2050-yillarga borib hosildorlik 25–63 foizgacha pasayishi mumkinligini ta’kidlaydi. Bu esa yashil transformatsiyani faqat ekologik emas, balki oziq-ovqat xavfsizligi va agrar daromadlarni saqlashning iqtisodiy sharti sifatida baholashga asos beradi.

A.T.Komilov iqlimga chidamli iqtisodiyot konsepsiyasini tahlil qilar ekan, O‘zbekistonda iqlim o‘zgarishiga javob sifatida suv boshqaruvi, qishloq xo‘jaligida innovatsion yondashuvlar va iqtisodiy barqarorlik o‘rtasida mustahkam bog‘liqlik mavjudligini ko‘rsatadi. Muallif fikricha, iqlimga chidamli iqtisodiyot shakllanishi davlat siyosatining muvofiqlashuvi, investitsiya ustuvorliklarining o‘zgarishi va resurslardan foydalanish samaradorligining oshishi bilan bog‘liq. Bu yondashuv yashil transformatsiyaning faqat texnologik emas, balki makroiqtisodiy va institutsional mazmunga ham ega ekanini tasdiqlaydi.

Bobojonov I., Lamers J. P. A., Bekchanov M., Djanibekov N., Franz-Vasdeki J., C.Martiuslar ekin diversifikatsiyasi bo‘yicha tadqiqotida O‘zbekistonda barqaror

qishloq xo‘jaligini ta’minlash uchun paxta va g‘alla markazlashgan tizimdan bozorga yaqinroq, xavflarni kamaytiruvchi va daromadni oshiruvchi diversifikatsiya modeliga o‘tish muhimligini asoslagan. Ularning xulosasiga ko‘ra, ekin turlarini ko‘paytirish va bozorga kirish imkoniyatlarini yaxshilash qishloq xo‘jaligining barqaror rivojlanish traektoriyasini kuchaytiradi. Mazkur yondashuv yashil transformatsiyada ekin tuzilmasini optimallashtirish ham muhim iqtisodiy mexanizm ekanini ko‘rsatadi.

I.Bobojonov, E. Berg, J.Franz-Vasdeki, C.Martius, J. P. A. Lamersdarning g‘arbiy O‘zbekiston misolida suvdan foydalanish samaradorligi bo‘yicha tadqiqoti esa iqlim o‘zgarishi sharoitida daromad va suv mahsuldorligi o‘rtasidagi bog‘liqlikni ochib beradi. Muallif fazoviy-stoxastik model orqali suv taqchilligi kuchaygan sharoitda ekin va suv taqsimotini qayta ko‘rib chiqish zarurligini, aks holda fermer daromadlari pasayishi mumkinligini ko‘rsatgan. Bu xulosa yashil transformatsiyaning markaziga “ko‘proq suv tejash” emas, balki “har bir birlik suv hisobiga ko‘proq iqtisodiy qiymat yaratish” tamoyilini qo‘yish lozimligini anglatadi.

A.Hamidov, U.Kasymov, K.Djumaboev, C.Paullar O‘zbekistonda sug‘oriladigan qishloq xo‘jaligida “rebound effect”, ya’ni suv tejamkor texnologiyalar joriy etilganidan keyin tejalgan suvning boshqa maydonlar yoki ko‘proq suv talab qiluvchi ekinlarga yo‘nalishi ehtimolini ko‘rsatadi. Mualliflar samaradorlik oshishi avtomatik tarzda absolyut suv tejalishiga olib kelmasligini, buning uchun mos siyosiy va institutsional cheklovlar ham kerakligini ta’kidlaydi. Mazkur yondashuv yashil transformatsiyada texnologiyani joriy etishning o‘zi yetarli emasligi, uni iqtisodiy va boshqaruv mexanizmlari bilan birga qo‘llash kerakligini isbotlaydi.

Tadqiqot mavzusidagi adabiyotlar tahlili quyidagi xulosani keltirib chiqarishga asos bo‘ladi: iqlim o‘zgarishi sharoitida qishloq xo‘jaligini yashil transformatsiya qilish uchun suv samaradorligi, ekin diversifikatsiyasi, yashil moliya, agrosug‘urta, davlat rag‘batlari va raqamli monitoring tizimlari o‘zaro uyg‘un holda ishlashi lozim. Ayniqsa, O‘zbekistonlik olimlar ishlari bu jarayonda hududiy xususiyatlar, irrigatsiya infratuzilmasi va fermer qarorlarining iqtisodiy cheklovlarini hisobga olish zarurligini ko‘rsatib beradi.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqotda tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil, institutsional tahlil, ilmiy abstraksiya, mantiqiy umumlashtirish va iqtisodiy mexanizmlarni konseptual modellashtirish usullaridan foydalanildi. Avvalo, iqlim o‘zgarishi va qishloq xo‘jaligi o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirni yorituvchi xalqaro va mahalliy manbalar saralandi. Keyin ushbu manbalar asosida yashil transformatsiyani ta’minlovchi iqtisodiy instrumentlar:

subsidiya, imtiyozli kredit, agrosug‘urta, investitsiya, suv narxini tartibga solish, ekin diversifikatsiyasi va raqamli monitoring vositalari guruhlandi.

Metodologik jihatdan “yashil transformatsiyaning iqtisodiy mexanizmi” quyidagi tarkibiy bloklar orqali talqin qilindi:

- resurs samaradorligini oshirish;
- iqlim risklarini kamaytirish;
- iqtisodiy rag‘batlarni qayta yo‘naltirish;
- innovatsiya va investitsiyani jalb qilish;
- institutsional muvofiqlashuv va monitoringni kuchaytirish.

Maqolada empirik raqamlardan ko‘ra konseptual-analitik yondashuv ustuvor bo‘lib, manbalarda keltirilgan ilmiy natijalarni sintez qilish orqali O‘zbekiston sharoitiga mos integral iqtisodiy mexanizm ishlab chiqildi.

Tahlil va natijalar

Yashil transformatsiyaning iqtisodiy zarurati. Qishloq xo‘jaligida yashil transformatsiya birinchi navbatda iqtisodiy zaruratdir. Agar iqlim o‘zgarishi ta’sirida suv resurslari qisqarsa, harorat oshsa va hosildorlik pasaysa, an’anaviy ishlab chiqarish modeli fermerning xarajatlarini oshirib, daromadini pasaytiradi. Saidova va Nasulloeva keltirgan prognozlar, shuningdek Bobojonovning suv samaradorligiga oid modellari bu xavfning nazariy emas, balki amaldagi iqtisodiy tahdid ekanini ko‘rsatadi.

Shu sababli yashil transformatsiyani qo‘shimcha xarajat sifatida emas, kelgusi yo‘qotishlarni kamaytiruvchi va xo‘jalikning uzoq muddatli raqobatbardoshligini ta’minlovchi investitsiya sifatida baholash lozim. Bu o‘rinda resurs tejamkor sug‘orish, qayta tiklanuvchi energiyadan foydalanish, ekin diversifikatsiyasi, tuproq unumdorligini saqlash va raqamli agromonitoring kabi chora-tadbirlar iqtisodiy barqarorlik omiliga aylanadi.

Suv samaradorligi va irrigatsiya islohotlari. O‘zbekiston sharoitida yashil transformatsiyaning markaziy nuqtasi – suvdan foydalanish samaradorligidir. Bobojonov tadqiqotida suv taqchilligi sharoitida ekin va suv taqsimotini qayta ko‘rib chiqish fermer daromadi uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega ekani ko‘rsatilgan. Babaxolov va Hasanov ham suv tanqisligi fermerlar qarorlariga bevosita ta’sir qilishini qayd etadi. Demak, suv tejamkor texnologiyalarni joriy etish bilan birga suv mahsuldorligi, ya’ni har bir kub metr suv hisobiga yaratilgan iqtisodiy qiymatni oshirish asosiy mezon bo‘lishi kerak.

Biroq A.Hamidov va hammualliflar ko‘rsatganidek, suv tejamkor texnologiyalarning o‘zi absolyut tejamkorlikni kafolatlamaydi. Agar institutlar va rag‘batlar to‘g‘ri qurilmasa, tejalgan suv qo‘shimcha maydonlarni o‘zlashtirish yoki

ko‘proq suv talab qiluvchi ekinlar yetishtirishga yo‘nalishi mumkin. Shu bois suv tejamkor texnologiyalar joriy etilishini qo‘llab-quvvatlovchi subsidiya va kreditlar suv limiti, raqamli hisob va natijaga asoslangan monitoring bilan birgalikda amalga oshirilishi lozim.

Ekin diversifikatsiyasi va qiymat zanjiri. Bobojonov va hammualliflar tadqiqotiga tayanib aytish mumkinki, ekin diversifikatsiyasi qishloq xo‘jaligida iqlim risklarini kamaytirishning muhim iqtisodiy mexanizmi hisoblanadi. Paxta va g‘alla kabi an’anaviy ekinlarga yuqori qaramlik suv tanqisligi va bozor risklari sharoitida samaradorlikni pasaytirishi mumkin. Diversifikatsiya esa xavflarni taqsimlaydi, bozor moslashuvchanligini kuchaytiradi va yuqoriroq qo‘shilgan qiymat yaratish imkonini beradi.

Yashil transformatsiya nuqtai nazaridan ekin diversifikatsiyasiga quyidagilar kiradi: suv kam talab qiluvchi ekinlarga bosqichma-bosqich o‘tish, qayta ishlashga yo‘naltirilgan xomashyo bazasini kengaytirish, agroekologik moslashuvni kuchaytirish va eksportbop mahsulotlar ulushini oshirish. Bu mexanizm fermer daromadini faqat hosil hajmi orqali emas, balki mahsulot turi, bozor qiymati va risk profili orqali ham barqarorlashtiradi.

Yashil moliya va agrosug‘urta. Iqlim o‘zgarishi sharoitida yashil transformatsiya uchun investitsiya talab yuqori. Fermer va agrobiznes sub’ektlari ko‘p hollarda suv tejamkor texnologiya, quyosh energiyasi, energiya samarador nasoslar, raqamli monitoring vositalari yoki tuproqni qayta tiklash texnologiyalariga dastlabki sarmoya kiritish imkoniga ega emas. Shuning uchun imtiyozli yashil kreditlar, foiz kompensatsiyasi, kredit kafolatlari va davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanadigan maxsus moliya liniyalari zarur. Komilovning iqlimga chidamli iqtisodiyot konsepsiyasi ham investitsiya va resurs samaradorligini o‘zaro bog‘liq hodisa sifatida ko‘radi.

Shu bilan birga, iqlim risklari kuchaygan sharoitda agrosug‘urta tizimini takomillashtirish muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, qurg‘oqchilik, harorat shoki, suv tanqisligi va hosil yo‘qotishlari uchun indeksga asoslangan sug‘urta modellari joriy etilsa, fermerlarning yashil investitsiya kiritishga bo‘lgan tayyorligi ortadi. Bunday yondashuv moliyaviy xavfni kamaytiradi va resurs tejamkor innovatsiyalarni joriy etishni tezlashtiradi.

Davlat qo‘llab-quvvatlashi va institutsional muvofiqlashuv. Qishloq xo‘jaligini yashil transformatsiya qilish fermerning faqat ichki xo‘jalik qarori bilan hal etilmaydi. Bu yerda davlat siyosati, suv xo‘jaligi boshqaruvi, agrar kreditlash, subsidiya siyosati va raqamli infratuzilma o‘rtasidagi muvofiqlashuv hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Babaxolov va Hasanov ko‘rsatganidek, fermerlarning moslashuv strategiyalari ko‘p jihatdan ularga yaratilgan institutsional va resurs sharoitiga bog‘liq.

Shuning uchun davlat qo‘llab-quvvatlashini ishlab chiqarish hajmini oddiy qo‘llab-quvvatlashdan yashil natijalarni qo‘llab-quvvatlashga o‘tkazish kerak. Ya’ni subsidiyalar suv tejash, tuproq unumdorligini saqlash, energiya samaradorligi, qayta tiklanuvchi energiya va raqamli hisobni joriy etgan sub’ektlarga ustuvor berilishi lozim. Bunday yondashuv texnologiyani sotib olishni emas, balki aniq ekologik-iqtisodiy natijani rag‘batlantiradi.

Taklif etilayotgan integral iqtisodiy mexanizm. Olib borilgan tadqiqotlar va tahliliy ma’lumotlar iqlim o‘zgarishi sharoitida qishloq xo‘jaligini yashil transformatsiya qilish uchun quyidagi integral iqtisodiy mexanizm taklif etilishiga asos bo‘ladi:

Birinchi bosqich – tashxis. Hududlar kesimida suv ta’minoti, ekin tarkibi, tuproq holati, iqlim xavfi va fermer resurs imkoniyatlarini baholash.

Ikkinchi bosqich – indikatorlash. Suv mahsuldorligi, energiya samaradorligi, gektar hisobiga chiqindi, diversifikatsiya darajasi va hosil barqarorligi kabi KPIlar belgilash.

Uchinchi bosqich – rag‘batlantirish portfeli. Imtiyozli kredit, yashil subsidiya, soliq imtiyozi, sug‘urta va investitsiya paketlari hududiy xususiyatlar bo‘yicha shakllantirish.

To‘rtinchi bosqich – raqamli monitoring. Suv sarfi, texnologik amaliyotlar va hosildorlik ko‘rsatkichlari raqamli kuzatib borish.

Beshinchi bosqich – natijaga asoslangan moliyalashtirish. Belgilangan ko‘rsatkichlarga erishgan sub’ektlarni qo‘shimcha rag‘batlantirish.

Ushbu mexanizmning afzalligi shundaki, u texnologiya, moliya, davlat siyosati va institutsional boshqaruvni yagona konturga birlashtiradi. Shu bilan birga, Hamidov ta’kidlagan “qayta tiklanish effekti” (rebound effect) havfini ham hisobga oladi va samaradorlik o‘sishini aniq boshqaruv cheklovlari bilan mustahkamlaydi.

Xulosa va takliflar. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, iqlim o‘zgarishi sharoitida qishloq xo‘jaligini yashil transformatsiya qilish oziq-ovqat xavfsizligi, fermer daromadlari barqarorligi va resurslardan oqilona foydalanishning muhim sharti hisoblanadi. Yashil transformatsiya faqat texnologik yangilanish emas, balki suv siyosati, agrar moliya, ekin tuzilmasi, institutsional boshqaruv va davlat rag‘batlarini qamrab oladigan kompleks iqtisodiy tizimdir.

O‘zbekistonlik olimlar ishlari shuni tasdiqlaydiki, mamlakatda suv tanqisligi, irrigatsiya infratuzilmasi, hududiy farqlar va ekin tarkibining biryoqlamaligi yashil

transformatsiyani mahalliy sharoitga mos yondashuv asosida amalga oshirishni talab qiladi. Xususan, Zarafshon havzasi bo‘yicha tadqiqotlar moslashuv strategiyalarini, I.Bobojonov ishlari suv samaradorligi va diversifikatsiyani, A.Hamidov ishlari esa texnologiya joriy etishda institutsional cheklovlarni hisobga olish zarurligini ko‘rsatadi.

Taklif etilayotgan integral iqtisodiy mexanizmning optimal ishlashi uchun quyidagilarga asosiy e’tiborni qaratish maqsadga muvofiq:

1. Qishloq xo‘jaligida davlat qo‘llab-quvvatlashini suv tejash, diversifikatsiya va energiya samaradorligi kabi yashil natijalarga bog‘lash lozim.
2. Imtiyozli yashil kredit va kredit kafolatlari orqali fermerlarning innovatsion texnologiyalarga kirishini yengillashtirish zarur.
3. Indeksga asoslangan agrosug‘urta tizimini joriy etib, iqlim risklarini moliyaviy jihatdan yumshatish maqsadga muvofiq.
4. Suv samaradorligi va suv mahsuldorligi bo‘yicha KPIlar har bir hudud kesimida joriy etilishi lozim.
5. Ekin diversifikatsiyasini qo‘llab-quvvatlovchi bozor, logistika va qayta ishlash infratuzilmasini kuchaytirish zarur.
6. Suv tejamkor texnologiyalar joriy etilishi rebound effect keltirib chiqarmasligi uchun suv limiti, raqamli hisob va monitoringni kuchaytirish shart.
7. Yashil transformatsiya bo‘yicha yagona raqamli platforma ishlab chiqilib, unda moliyalashtirish, monitoring va natijalar bahosi birlashtirilishi maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Yakuniy xulosa sifatida aytish mumkinki, iqlim o‘zgarishi sharoitida qishloq xo‘jaligini yashil transformatsiya qilish – bu tarmoqni saqlab qolish chorasi emas, balki uni yangi iqtisodiy sifat bosqichiga olib chiquvchi strategik rivojlanish modeli hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Babakholov S., Hasanov S. Perceptions towards climate change, water scarcity and adaptation strategies: Case of the Zerafshan River Basin in Uzbekistan // *Italian Review of Agricultural Economics*. – 2024. – Vol. 79, No. 2. – P. 19–33. - DOI: 10.36253/rea-15098.
2. Saidova D. N., Nasulloyeva M. B. Impact of climate change on agriculture in Uzbekistan: Challenges and adaptation strategies // *Web of Agriculture: Journal of Agriculture and Biological Sciences*. – 2025. – Vol. 3, No. 7. – P. 22–27.

3. Komilov A. T. The concept of climate resilient economy: Uzbekistan // *Proceedings of International Conference on Educational Discoveries and Humanities*. – 2024. – Vol. 3, No. 6. – P. 88–92.

4. Bobojonov I., Lamers J. P. A., Bekchanov M., Djanibekov N., Franz-Vasdeki J., Martius C. Options and constraints for crop diversification: A case study in sustainable agriculture in Uzbekistan *// Agroecology and Sustainable Food Systems*. – 2013. – Vol. 37, No. 7. – P. 788–811. - DOI: 10.1080/21683565.2013.775539.

5. Bobojonov I., Berg E., Franz-Vasdeki J., Martius C., Lamers J. P. A. Income and irrigation water use efficiency under climate change: An application of spatial stochastic crop and water allocation model to Western Uzbekistan // *Climate Risk Management*. – 2016. – Vol. 13. – P. 19–30. – DOI: 10.1016/j.crm.2016.05.004.

6. Hamidov A., Kasymov U., Djumaboev K., Paul C. Rebound effects in irrigated agriculture in Uzbekistan: A stakeholder-based assessment // *Sustainability*. – 2022. – Vol. 14, No. 14. – Art. 8375. – DOI: 10.3390/su14148375.

7. IPCC. Climate Change 2023: Synthesis Report. Summary for Policymakers. – Geneva: Intergovernmental Panel on Climate Change, 2023.

8. FAO. Climate-smart agriculture sourcebook. – Rome: Food and Agriculture Organization of the United Nations, 2017.

9. FAO. Green agriculture platform. – Rome: Food and Agriculture Organization of the United Nations, 2024.

10. World Bank. Climate-smart agriculture: From knowledge to implementation. – Washington, DC: World Bank, 2024.

11. OECD. Agricultural Policy Monitoring and Evaluation 2024. – Paris: OECD Publishing, 2024.

12. UNEP. Adaptation finance gap and climate resilience policy materials. – Nairobi: United Nations Environment Programme, 2024.

A.N.Xoliqulov –
SamISI “Iqtisodiy tahlil va statistika”
kafedrasi mudiri,i.f.n., professor,
“Ipak yo‘li” Turizm va madaniy meros xalqaro
universiteti “Xalqaro biznes va kreativ iqtisodiyot”
kafedrasi professori

XIZMAT KO‘RSATISH SIFATI TAHLILINING NAZARIY JIHATLARI TALQINI

Annotatsiya: makolada xizmat ko‘rsatish faoliyati tahlilini nazariy va amaliy tavsiflanishi, ayniqsa xizmatlar tasnifi, xizmatlarni turli sohalarda qo‘llanish turlari, sifatga bog‘liqligi bo‘yicha xizmatlar tasnifi keng yoritib berilgan

Kalit suzlar: xizmat, xizmat ko‘rsatish, xizmat ko‘rsatish faoliyati, xizmatlar tasnifi, xizmat turlari, sifatga bog‘liqligi bo‘yicha xizmatlar tasnifi, servisni baholash, servis sifati.

Abstract: the article provides a theoretical and practical description of the analysis of service activities, features of the classification of services, types of use of services in different areas, classification of services on the basis of quality.

Key words: service, provision of services, service activity, classification of services, types of services, classification of services depending on quality, assessment of services, quality of services.

Kirish. Xizmat ko‘rsatish faoliyati tahlilini muhim nazariy va amaliy munosabatlaridan biri uning tavsiflanishidir. Shunda biz sinfiy bo‘linishni ko‘rib chiqamiz.

Tasnif me’zonlari ishlab chiqarishda xizmat ko‘rsatish faoliyati sohasi muhim tipologik belgilari tanlab olinadi va shular ishlatiladi. Tasnif me’zonlarini ishlab chiqarish turli mamlakatlarda turlicha ishlab chiqariladi. Tekshiruvchilar nazariy muammolarga qarab tasnif mezonlarini ishlab chiqmasdan xizmat ko‘rsatish faoliyatida amaliy talablarni bajarishini xisobga oladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Xizmat ko‘rsatish korxonalari samaradorligini ifodalovchi ko‘rsatkichlar masalalari xorijlik olimlardan[3], Boden M., Miles I., Yeichengreen B., Gupta P., Yeschenbach F., Xoekman B., Triplett Y. Ye., Bosvortx B. P., Korszьinski L. M., Burmenko T.D., Danilenko N.N., Turenko T.A., Sosunova

[3] Boden M., Miles I. (ed.). Services and the Knowledge-based Economy. – Psychology Press, 2000.; Eichengreen B., Gupta P. The two waves of service-sector growth //Oxford Economic Papers. – 2013. – №. 1. – pp. 96-123.; Eschenbach F., Hoekman B. Services policy reform and economic growth in transition economies, 1990-2004. – The World Bank, 2005.; Triplett J.E., Bosworth B.P. Productivity in the US services sector: new sources of economic growth. – Brookings Institution Press, 2004.; Бурменко Т.Д., Даниленко Н.Н., Туренко Т.А. Сфера услуг: Экономика: учебное пособие// М.: кнорус. – 2007. -Т. 328 с.; Плотников В.А., Иваненко М.Г. Подходы к анализу понятий «сервис» и «услуга». Журнал. Технико-технологические проблемы сервиса №3(33) 2015, стр.70.; Хайруллина Д.Р. Повышение эффективности управления развитием малых предприятий сферы услуг: дис. канд. экон. наук. 2014. – 230 с.;

L.A., Chernova D.V., Bass A.Ya., Razomasova Ye. A., Plotnikov V.A., Ivanenko M.G., Xayrullina D.R. va boshqalar tomonidan tadqiq etilgan. Ushbu muammolarni o‘rganishga o‘zbekistonlik olimlardan[4] M.Q.Pardaev, M.M. Muxammedov, Q.J. Mirzaev, O.M. Pardaev, I.S.Tuxliev va boshqalarning ilmiy ishlari bag‘ishlangan.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot jarayonida jamlash, guruhlash, induksiya va deduksiya, tahlil va sintez hamda iqtisodiy tahlilning an’anaviy usullari ko‘llanildi.

Tahlil va natijalar. Tasnif bo‘yicha ishlash u yoki bu mamlakatda murakkab davlat statistika yoki masalalarni yechishda qo‘llaniladi. Misol uchun Shimoliy Amerika mintaqasida qo‘llaniladigan xizmatlar tasniflarini keltiramiz. Bunda AQSh va Kanada mamlakatida tarixiy amaliyotida nomoyon bo‘lgan servis faoliyatini ko‘rib chiqamiz. Ular quyidagilar:

- Transport (temiryo‘l, aviatsiya, yuk tashish, avtatransport, hokazo…);
- Kommunikatsiya (telefon, telegramma, radio);
- Jamiyatdagi foydali xizmatlar (elektr, gaz, suv);
- Oilaviy faoliyat (ulgurji va chakana savdo);
- Moliyaviy, sug‘urta, shu bilan birga ko‘chmas mulk ishi ham kiradi;

Dunyo mamlakatlarida qabul qilingan tahlillar tasnifini chetlab o‘tish yo‘llari qidirilmoqda. Shuning uchun rivojlangan mamlakatlarda statistik organlar faoliyatiga asoslanib quyidagi tasnif tuziladi.

Mana shu xizmatlar

- Ishbilarmonlik xizmati;
- Aloqa xizmati;
- Qurilish va muhandislik xizmati;
- Distribyuterlik xizmati;
- Umumta’lim xizmati;
- Sug‘urta bilan birga, moliyaviy xizmat;
- Ijtimoiy va sog‘liqni saqlash xizmati;
- Turizm va sayohat;
- Transport xizmati;
- Boshqa xizmatlar.

Bir qator rivojlangan mamlakatlarda xizmatni qo‘llanish doirasi va xizmat turlari va mezonlari bir – biriga bog‘liqlik tasnifini ko‘rib chiqamiz.

1-jadval

[4] Мухаммедов М.М., Мардонов Б.Б. Хизмат кўрсатиш соҳасида аҳоли бандлиги ва даромадлари. Монография. «Инновацион ривожланиш нашриёт-матбаа уйи». 2021. 186 б.; Пардаев М.Қ., Мирзаев Қ.Ж., Пардаев О.М. Хизматлар соҳаси иқтисодиёти. Ўқув қўлланма. – Т.: “ИҚТИСОД-МОЛИЯ”, 2014. – 384 б.;

Xizmatlarni turli sohalarda qo‘llanish turlari.

Xizmat turlari	Qo‘llanish doirasi
Ishlab chiqarish xizmatlari	Injinering, lizing, ta’mirlash xizmatlari
Tarqatish xizmatlari	Savdo, transport, aloqa
Kasbiy xizmatlar	Banklar, sug‘urta kompaniyalari, moliyaviy, maslahat va boshqa firmalar
Iste’mol (umumiy xizmat)	Xizmatlar, uy xo‘jaligi va vaqt o‘tkazish bilan bog‘liq aloqalar
Ijtimoiy xizmatlar	TV, radio, ta’lim, madaniyat

Bir qator mamlakatlarda xizmat doirasini tasniflash davlat boshqaruvi va korxona ishlab chiqarishga yondoshilgan holda amalga oshiriladi. Bunda Shimoliy Amerika modeli bir – biriga yaqin xizmat ko‘rsatish faoliyati mezonlarini o‘ziga qamrab oladi. Bunday guruhlanish “boshqa xizmatlar” sirasiga kirib tugallanmagan, kelajakda o‘rganishni taqozo etadi. Bu tasnif Rossiya amaliyotida ham qo‘llaniladi. Bu holatda xizmat ko‘rsatish faoliyati sohasidagi xizmat doirasi muhim tipologik yo‘nalishini namoyon qiladi.

- Savdo xizmati (ulgurji va chakana)
- Yashash va ovqatlanishni ta’minlab beruvchi xizmatlar (mehmonxonalar, jamoat ovqatlanish tizimini strukturasi);
- Transport;
- Aloqa, informatsion xizmat ko‘rsatish;
- Moddiy texnik resurslarni saqlash, tayyorlab berish, ta’minlash xizmati;
- Kredit, moliyaviy va sug‘urta, ko‘chmas mulk bilan bitim kelishuv;
- Ta’lim, ma’daniyat va san’at;
- Fan va ilmiy xizmat ko‘rsatish;
- Sog‘liqni saqlash, jismoniy tarbiya va sport bilan birgalikda;
- Uy xo‘jaligiga xizmat ko‘rsatish xizmatlari (turar joy, maishiy ishlab chiqarish va kommunal xizmatlari);
- Shaxsiy xarakter xizmatlari (foydasiz va maishiy);
- Davlat boshqaruvi xizmatlari;
- Boshqa xizmatlar;

Rossiya va Shimoliy Amerika modeli xizmatlar tasnifini taqqoslaganda Rossiya modeli mukammal xisoblanadi.

Bu “Rossiyada xizmatlar doirasi” (Mas.2000y) statistik jamlanma jurnalida o‘ziga xos aksini topgan. Unda butun Rossiya klassifikatorlarning 1998-99 yillardagi Rossiya iqtisodiyotidagi servis faoliyat yo‘nalishi ma’lumotlar keltirilgan Bunda quyidagi ma’lumotlar asosiy o‘rin tutadi:

- Ko‘chmas mulkdagi dallollik xizmati ;
- Mol-mulkni baholash xizmati
- Axborot kompyuter xizmati
- Reklama xizmari
- O‘yin olib boorish faoliyati xizmati.

Bir qator mamlakatlarda o‘z amaliyotida ishlab chiqarilgan xizmat guruhini ishlatadi, qo‘llaydi va turlicha takomillashtirib, to‘ldirib borishadi. Masalan, ba’zi mamlakatlarda qurilish, gaz, energetika tizimi xizmat guruhlariga kiritilgan bo‘lsa ham boshqa mamlakatlarda bular xizmat ko‘rsatish sohasiga kiritilmagan.

Davlat hisoboti va statistika amaliyotida umumiy guruhlar bilan bir qatorda iqtisodiy tahlil usul mos bo‘lgan boshqa – boshqa yo‘nalishdagi xizmatlar guruhi ham ishlab chiqariladi. Xizmat ko‘rsatish faoliyatida xizmatni funksional mohiyatiga bog‘liq ravishda quyidagi yo‘nalishda xizmat bir qancha qismlarga bo‘linadi:

- Ishlab chiqarish harakteridagi xizmatlar – bunda ishlab chiqarishdagi ehtiyoj iqtisodiy struktura bilan bog‘lab (bundan tashqari qo‘riqlash, ta’mirlash, bank, ishbilarmonlik va boshq xizmatlar);
- Savdo xizmati (ulgurji va chakana savdo);
- Hayotiy yashash faoliyatini ta’minlash xizmati “bunda – uy ro‘zg‘or harajatlari ishlatish harajatlariga bo‘lgan ehtiyoj tushuniladi”;
- Ijtimoiy xizmatlar - bunda kishilarni moliya, pochta, ta’lim, axborot xizmati, madaniy – maishiy xizmatlarni o‘z ichiga oladi;
- Madaniy xizmatlar – bu kishilarga badiiy – estetik va ko‘ngilochar xizmatlar ko‘rsatish bilan bog‘liq.

Oxirgi ikki bo‘linish xizmat doirasi tahlilida hozirda ijtimoiy va madaniy xizmat haqida ko‘p fikr yuritilib bu ijtimoiy madaniy xizmat deb yuritilmoqda.

Ijtimoiy - madaniy xizmatning maqsadi kishilarning ijtimoiy, diniy, madaniy ehtiyojlarini qondirish nazarda tutiladi. O‘z navbatida tavsiya yetilgan xar bir xizmat tasnifi variantlari bir qancha farqli guruhlarga bo‘linadi. Rossiya amaliyoti xizmatlar tasnifida moddiy va nomoddiy xizmatlar keng tarqalgan. Moddiy xizmatlarga moddiy resurslarni talab qiladigan xizmatlar kiradi. Kishilar uchun kundalik ehtiyojlariga ishlatiladigan tovarlar tushuniladi. Nomoddiy xizmatlarga esa bilim olish, diniy xizmatlar kiradi.

Ishlab chiqarish jarayonida o‘ta muhim sanalgan servis faoliyatini tasnifi variantlarini ko‘rib chiqamiz.

Sifatga bog‘liqligi bo‘yicha xizmatlar tasnifi.

2-jadval

Xizmatlar	Sifati
Mehnat predmetlarini ishlatish bo‘yicha	- Ishlab chiqarish - informatsion
Mablag‘ sarflash darajasi bo‘yicha	- yuqori kapital hajmdagi - kam kapital hajmdagi
Material sarflash darajasi bo‘yicha	- ko‘p material sarflash - kam material sarflash
Xizmatni bajarishda texnolofik murakkabliklar bo‘yicha	- murakkab texnologik - oddiy texnologik
Xodimlar klassifikatsiya bo‘yicha	- yuqori proffssional - yetarli klassifikatsiyalari
Iqtisidiyot infratuzilmasidagi o‘rni bo‘yicha	- ishlab chiqarish - institusional - ijtimoiy (aholiga xizmat doirasi0
Sezilish darajasi bo‘yicha	- seziladigan - sezilmaydigan
Xaridor ishtirokining majburiyligi bo‘yicha	- xaridor ishtiroki zarur - xaridor ishtirokisiz bajariladi.
Boshqaruv xuquqi darajasi bo‘yicha	- ikki tomonlama - ko‘p tomonlama
Meyyoriy va huquqiy belgilangan daraja bo‘yicha	- yuqori reglamendatsiya - yetarli reglamendatsiya
Xaridorni ijtimoiy huquqi bo‘yicha (jismoniy va yuridik shaxslar)	- sara - yeksklyuziv - yuqori huquqiy holatda - ommaviy
Jamiatdagi o‘rni bo‘yicha.	- Ishlab chiqarish - Tarqatish - Kasbiy - Istemolchilik - ijtimoiy
Ish belgilash bo‘yicha.	- Ishbilarmon - Tashkilotchi - shaxsiy
Jamiyat ishlab chiqarishi darajasidagi o‘rni bo‘yicha	- ishlab chiqarish doirasida - murojat qilish sohasida, shu o‘rinda - chakana savdoda - ulgurji savdoda
Bajarishni tashkiliy shakllari bo‘yicha	- mustaqil firmalar orqali - bosh firmalar tizimidagi strukturalar - spesiolizasiyalangan firma tarmog‘i - individual bajaruvchilar
Ko‘rsatiladigan xizmatlarni ixchamligi bo‘yicha	- to‘liq kompleksda - xizmatni alohida turlari
Kommersializasiya darajasi bo‘yicha	- to‘liq savdo- sotiq (tijorat) - qisman savdo – sotiq (tijorat) - notijorat
Tashkiliy – texnologik reglamentatsiya bo‘yicha	- majburiy reglament bo‘yicha - kafolatli

	- qo‘shimcha
Mahsulotni realizatsiya qilish jarayoni bilan bog‘liqligi bo‘yicha	- birgalikdagi realizatsiya - sotuvdan keyingi
Xizmatni bajarishda almashinuv shakli bo‘yicha	- pulli - bepul
Korxona rahbari faoliyatini o‘rni bo‘yicha	- tashkiliy (menejer) - logistik - marketing

Markaziy va mahalliy hokimiyatda ishlatiladigan yana bir xizmatlar tasnifini ko‘rib chiqamiz. Bunda xokimiyat organlari, jamiyat tashkilotlari, gumanitar fondlarda ishlatiladigan xizmatlar tishuniladi. Bu xolat jamiyatni bir tuzumdan boshqa tuzumga o‘tish davrida muhim ahamiyatga yega bo‘lib, quyidagi sohalarga bo‘linadi:

- aholini ijtimoiy himoya qilish sohasi (huquq tartibot, sog‘liqni saqlash, ijtimoiy va nafaqa tizimi xizmatlari);
- aholini jismoniy, ruhiy, intellektual rivojlanish sohalari);
- aholini bozorda samarasiz, ko‘p pul sarflashidan ximoya qilish sohasi;
- korxona yegasiga yordam bergan sohasi (bozor fondlari, institutlari xizmati, konsultativ tizimi, sug‘urta rashkilotlari);
- aholini maishiy madaniyatini ko‘tarish sohasi (maishiy, kommunal, transport xizmatlari);
- boshqa sohalar xizmatlari;

Yuqorida biz ko‘trib chiqqan servis faoliyatidagi xizmatlar tasnifi turli mamlakatlar uchun o‘ziga xos va mos tarzda tanlanadi hamda qo‘llaniladi.

Servisni baholash uchun uning ta’rifidan kelib chiqmoq lozim. Ammo bu masala iqtisodiy adabiyotlarda yetarli darajada yoritilmagan. Shu tufayli uning umumiy ta’rifini berishni maqsadga muvofiq, deb topdik. Bunga zarurat shu bilan bog‘liqki, aynan mehmonxona servisiga ta’rif berish uchun ham uning umumiy tushunchasiga berilgan ta’rifdan kelib chiqish lozim bo‘ladi. Bizning kuzatuvlarimiz va tadqiqotlarimiz natijasi shuni ko‘rsatdiki, xizmat sifatiga tarif berishda ham iste’molchilarning nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy ehtiyojlarini ham qondirishga qaratilgan bo‘lishi lozim. Agar ushbu nazariy xulosadan kelib chiqiladigan bo‘lsak, xizmat sifatiga quyidagicha ta’rif berish mumkin.

Servis sifati deganda jamiyatning (odamlarning, korxonalarning, davlatning) xizmatlarga bo‘lgan ehtiyojini to‘laligicha yuqori saviyada qondirishga qaratilgan va ularga kam xarajatlar bilan tegishli darajada moddiy va ma’naviy jihatdan naf keltiradigan nuqsonsiz xizmatlar majmuasi tushuniladi.

Ushbu ta’rifda xizmat sifatini to‘liq ifoda etish uchun tegishli jihatlar o‘z o‘rnini topgan. Bular quyidagilarda namoyon bo‘ladi.

Birinchidan, mazkur ta’rifda servisning iste’molchilari o‘z ifodasini topgan bo‘lsa, ikkinchidan, xizmatlarga bo‘lgan ehtiyojning to‘laligicha yuqori saviyada qondirilishi lozimligi aytilgan. Uchinchidan, har qanday sifat kam xarajatlar bilan amalga oshirilsa mulkdor uchun samarali bo‘ladi. Shu tufayli mazkur ta’rifda kam xarajatlar bilan tegishli darajada naf keltiradigan xususiyatlar majmuasi ham o‘z ifodasini topgan. Eng muhimi, servis sifati deganda 100 % nuqsonsiz xizmat tushuniladi. Ko‘rinib turibdiki, servis sifatiga berilgan mazkur ta’rifning hamma jihatlarini qamrab olgan. Shu jihatdan uni bugungi kun talabiga javob beradigan ta’rif deb baholash mumkin.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Bozor munosabatlari sharoitida xizmatlarning sifatini davlat organlari ularga litsenziya va sertifikat berish orqali nazorat qiladi. Chunki, hozirgi paytda xizmatlar ham boshqa tovarlar singari litsenziyalanadigan, ma’lum talablarga javob beradigan bo‘ldi. Ammo uni iste’mol qilish jarayonida iste’molchining o‘zi ham nazorat qilish imkoniiga ega bo‘ladi. Bu esa xizmatning xizmat iste’molchisi bo‘lgan inson hayoti uchun ham va uni tashkil qilgan mulkdor uchun ham, undan manfaatdor bo‘lib turgan davlat va jamiyat uchun ham naqadar muhimligidan hamda uning sifatini baholash lozimligi o‘ta dolzarb masala ekanligidan dalolat beradi.

Xizmatlarning sifatini baholash boshqa tarmoqlardan farq qiladi. Agar ishlab chiqariladigan tovarlarga bir xil standartlar qo‘llanilsa, xizmatlarning turlariga qarab turli xil baholash usullaridan va ko‘rsatkichlardan foydalanish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

6. Sh.M. Mirziyoev. O‘zbekiston - 2030strategiyasi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 11.09.2023 yildagi PF-158-son.

7. M.Q.Pardayev, A.N.Xoliqulov, T.I.Yahyoyev. Iqtisodiy tahlil. Darslik., SamISI, “Fan bulog‘i” nashriyoti, Samarqand.: 2024, 25,0 b.t.

8. A.N.Xoliqulov. Iqtisodiy tahlil va audit. O‘quv qo‘llanma, Samarqand: Fan bulo‘g‘i nashriyoti, 2023 yil – 208 bet 13,06 b.t.

9. A.N.Xoliqulov. Turistik korxonalar faoliyati tahlili. O‘quv-qo‘llanma, Samarqand.: Fan bulog‘i nashriyoti, 2024 yil - 312 bet, 19,5 b.t.

10. Xoliqulov A.N. Xizmat ko‘rsatish korxonalari samaradorligini tahlil qilishning metodologiyasini takomillashtirish yo‘nalishlari. Monografiya. Samarqand iqtisodiyot va servis instituti – Samarqand.: “STEP-SEL” MCHJ. Nashriyoti, 2023 - 274 bet. 17,12 b.t.

Умурзакова Ирода Аминжон кизи
PhD докторант Самаркандского института экономики и сервиса

РАЗВИТИЕ МАРКЕТИНГОВЫХ СТРАТЕГИЙ ПРЕДПРИЯТИЙ В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛИЗАЦИИ РЫНКОВ

Аннотация: В условиях глобализации усиливается конкуренция между предприятиями на национальных и международных рынках. В связи с этим особую значимость приобретают эффективные маркетинговые стратегии, направленные на укрепление конкурентных преимуществ компаний. В статье рассматривается роль маркетинговых стратегий в повышении конкурентоспособности предприятий, анализируются современные подходы к формированию маркетинговой политики, а также выявляются основные факторы, влияющие на успешность маркетинговой деятельности. На основе проведённого анализа предложены рекомендации по совершенствованию маркетинговых стратегий предприятий в условиях глобализации. Результаты исследования могут быть использованы для повышения эффективности маркетинговой деятельности и укрепления рыночных позиций предприятий.

Ключевые слова: маркетинговая стратегия, конкурентоспособность предприятия, глобализация, маркетинг, конкурентные преимущества, маркетинговые коммуникации, бренд, инновационный маркетинг, стратегия развития.

Abstract: In the context of globalization, competition among businesses in national and international markets is intensifying. In this regard, effective marketing strategies aimed at strengthening companies' competitive advantages are becoming particularly important. This article examines the role of marketing strategies in enhancing the competitiveness of enterprises, analyzes contemporary approaches to the formulation of marketing policy, and identifies the key factors influencing the success of marketing activities. Based on this analysis, recommendations are proposed for improving enterprises' marketing strategies in the context of globalization. The results of the study can be used to improve the effectiveness of marketing activities and strengthen the market positions of enterprises.

Keywords: marketing strategy, enterprise competitiveness, globalization, marketing, competitive advantages, marketing communications, brand, innovative marketing, development strategy.

Введение

Современный этап развития мировой экономики характеризуется

активными процессами глобализации, интеграции рынков и усилением международной конкуренции. Предприятия сталкиваются с необходимостью адаптации к быстро меняющимся условиям внешней среды, внедрения инноваций и поиска новых инструментов повышения эффективности своей деятельности.

Одним из ключевых факторов успешного функционирования компаний является разработка и реализация эффективных маркетинговых стратегий. Маркетинговая стратегия позволяет предприятиям определить направления развития, сформировать устойчивые конкурентные преимущества и укрепить свои позиции на рынке. В условиях глобализации предприятия должны учитывать не только особенности внутреннего рынка, но и тенденции международной экономики, потребительские предпочтения, технологические изменения и развитие цифровых коммуникаций. Поэтому изучение роли маркетинговых стратегий в повышении конкурентоспособности предприятий является актуальной научной и практической задачей.

Анализ литературы

В современной научной литературе проблема повышения конкурентоспособности предприятий в условиях глобализации рассматривается как одно из ключевых направлений развития маркетинга и стратегического управления. Глобализация усиливает конкуренцию на мировых рынках, расширяет доступ к новым рынкам и одновременно требует от компаний внедрения эффективных маркетинговых стратегий.[5]

Многие исследователи отмечают, что маркетинговая стратегия играет важную роль в формировании конкурентных преимуществ предприятия. Она определяет направления развития компании, методы продвижения продукции, ценовую политику, каналы распределения и коммуникации с потребителями. Основная задача маркетинговой стратегии заключается в эффективном удовлетворении потребностей целевых рынков и достижении стратегических целей организации.

Анализ и результаты

Конкурентоспособность предприятия определяется его способностью эффективно функционировать в условиях рыночной экономики и успешно конкурировать с другими участниками рынка. Существенную роль в формировании конкурентных преимуществ играет маркетинговая стратегия,

[5] Судирджо, Ф. (2023). Маркетинговая стратегия повышения конкурентоспособности продукции на глобальном рынке. *Журнал современной администрации и управления (ADMAN)* , *1* (2), 63–69. https://doi.org/10.61100/adman.v1i2.24

направленная на удовлетворение потребностей потребителей и создание ценности для клиентов. Современные маркетинговые стратегии включают комплекс инструментов, таких как анализ рынка, сегментация потребителей, позиционирование продукции, формирование бренда и развитие маркетинговых коммуникаций. Использование данных инструментов позволяет предприятиям лучше понимать потребности клиентов и разрабатывать конкурентоспособные предложения. Особое значение в современных условиях приобретают цифровые маркетинговые технологии. Интернет-маркетинг, социальные сети, электронная коммерция и цифровая реклама позволяют предприятиям расширять рынки сбыта и повышать узнаваемость бренда.

Кроме того, важным фактором конкурентоспособности является инновационный маркетинг. Внедрение новых продуктов, технологий и бизнес-моделей способствует созданию уникальных предложений для потребителей и укреплению рыночных позиций компаний.

Анализ показывает, что предприятия, активно использующие маркетинговые стратегии, обладают более высокой адаптивностью к изменениям внешней среды и способны быстрее реагировать на изменения спроса и конкуренции.

Проведённый анализ позволяет выделить ряд направлений совершенствования маркетинговых стратегий предприятий в условиях глобализации.

Во-первых, предприятиям необходимо активно внедрять цифровые технологии в маркетинговую деятельность. Использование онлайн-платформ, социальных сетей и аналитических инструментов позволяет более эффективно взаимодействовать с потребителями.

Во-вторых, важным направлением является развитие брендинга. Формирование сильного бренда повышает доверие потребителей и способствует укреплению конкурентных преимуществ компании. Так как бренд - это образ марки данного товара или услуги, выделенной покупателем среди конкурирующей продукции, который ассоциируется в сознании покупателя как фирменный стиль.[6]

В-третьих, предприятиям следует уделять больше внимания изучению потребительского поведения. Проведение маркетинговых исследований позволяет выявлять потребности клиентов и разрабатывать более эффективные

[6] Суюнова К. Б., Неъматуллаев У. У. БРЕНД И ЕГО РОЛЬ В ПРОДВИЖЕНИИ ТОВАРА НА МЕЖДУНАРОДНЫЙ РЫНОК //Journal of marketing, business and management. – 2025. – Т. 3. – №. 10. – С. 9-12.

маркетинговые решения. Также важным направлением является развитие инновационного маркетинга, включающего создание новых продуктов, улучшение качества услуг и внедрение современных технологий продвижения. Реализация данных предложений позволит предприятиям повысить эффективность маркетинговой деятельности и укрепить свои позиции на рынке.

Выводы

Таким образом, маркетинговые стратегии играют ключевую роль в повышении конкурентоспособности предприятий в условиях глобализации. Эффективное использование инструментов маркетинга позволяет компаниям адаптироваться к изменениям рыночной среды, удовлетворять потребности потребителей и формировать устойчивые конкурентные преимущества.

Современные предприятия должны уделять особое внимание развитию цифрового маркетинга, брендинга и инновационных подходов к продвижению продукции. Комплексное применение маркетинговых стратегий способствует повышению эффективности деятельности компаний и укреплению их позиций на национальных и международных рынках.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ

1. Котлер Ф., Келлер К. Маркетинг менеджмент. – М.: Питер, 2019.
2. Портер М. Конкурентная стратегия: Методика анализа отраслей и конкурентов. – М.: Альпина Паблишер, 2016.
3. Ламбен Ж. Стратегический маркетинг. – СПб.: Наука, 2018.
4. Дойль П. Маркетинг, ориентированный на стоимость. – М.: Вильямс, 2017.
5. Аакер Д. Создание сильных брендов. – М.: Издательский дом Гребенникова, 2018.
6. Судирджо, Ф. (2023). Маркетинговая стратегия повышения конкурентоспособности продукции на глобальном рынке. Журнал современной администрации и управления (ADMAN) , 1 (2), 63–69. https://doi.org/10.61100/adman.v1i2.24
7. Суюнова К. Б., Неъматуллаев У. У. БРЕНД И ЕГО РОЛЬ В ПРОДВИЖЕНИИ ТОВАРА НА МЕЖДУНАРОДНЫЙ РЫНОК //Journal of marketing, business and management. – 2025. – Т. 3. – №. 10. – С. 9-12.

Ernazarov Nuriddin Elamonovich,
SamISI. PhD, dotsenti,
Abdullayeva E'zoza
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti
BI- 424 guruh talabasi

MOLIYAVIY SIYOSAT - MAMLAKAT MOLIYAVIY BARQARORLIGINING ASOSI SIFATIDA.

Anotatsiya: Ushbu maqolada moliyaviy siyosat mamlakat moliyaviy barqarorligining muhim omili sifatida tahlil qilinib, uning nazariy asoslari, fiskal va monetar tarkibiy qismlari hamda iqtisodiy barqarorlikka ta’siri o’rganiladi. Shuningdek, moliyaviy tizimni tartibga solish va nazorat qilish mexanizmlarining ahamiyati yoritilib, O’zbekiston moliyaviy siyosati tajribasi va moliyaviy barqarorlikni mustahkamlashga qaratilgan amaliy takliflar bayon etiladi.

Kalit so'zlar: Moliyaviy siyosat, moliyaviy barqarorlik, fiskal siyosat, monetar siyosat, valyuta siyosati, iqtisodiy o'sish, davlat byudjeti, tartibga solish.

Abstract: This article analyzes financial policy as an important factor in ensuring a country's financial stability. It examines the theoretical foundations of financial policy, its fiscal and monetary components, and their impact on economic stability. In addition, the study highlights the role of regulation and supervision mechanisms of the financial system, discusses the experience of Uzbekistan's financial policy, and provides practical recommendations for strengthening financial stability.

Keywords: Financial policy, financial stability, fiscal policy, monetary policy, exchange rate policy, economic growth, state budget, regulation.

Kirish: Moliyaviy siyosat (yoki byudjet siyosati) davlatning umumiy iqtisodiy siyosatining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. U davlat faoliyatini samarali tashkil etish, mamlakat iqtisodiy rivojlanishini ta’minlash va aholi farovonligini oshirishga qaratilgan. Moliyaviy siyosat doirasida moliya tizimini shakllantirish, moliyaviy resurslarni jalb etish, ularni oqilona taqsimlash hamda samarali foydalanish jarayonlari amalga oshiriladi. Bu siyosatning mazmun-mohiyati moliyaviy tizimni tashkil etish, moliyaviy resurslarni safarbar qilish va ulardan oqilona foydalanish, shuningdek, davlat oldiga qo'yilgan vazifalarni bajarish orqali moliyaviy barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan. Moliyaviy siyosat davlat byudjeti daromadlari va xarajatlari, kreditlar, soliq imtiyozlari kabi vositalar orqali jamiyatning turli qatlamlariga, davlat institutlariga, iqtisodiyot tarmoqlariga va mintaqalarga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Xarajatlarni optimallashtirish va soliq tizimini samarali boshqarish orqali u iqtisodiy o'sish

sur'atlarini, aholi turmush darajasini va inflyatsiya jarayonlarini faol ravishda shakllantirish imkoniyatiga ega.

Shu bilan birgamamlakat iqtisodiyotiga davlatning aralashuvi, aholi turmush darajasi sotsial-iqtisodiy sharoitlarini tenglashtirish va shunga o‘xshash davlatning funksiyalari va vazifalarini aniqlaydigan boshqa bir qancha masalalar hamon munozaraligicha qolmoqda. Buning ustiga, moliyaviy siyosatdan faqat davlatning funksiyalarini bajarish vositasi sifatida foydalanish davlat hokimiyat organlari, mahalliy o‘z-o‘zini boshqarish organlari bilan moliya tizimining boshqa sub’ektlari, ya’ni aynan mamlakatning aholisi va xo‘jalik yurituvchi sub’ektlari manfaatlari o‘rtasida qarama-qarshiliklarni keltirib chiqadi.Davlatning moliyaviy siyosati faqat davlat hokimiyat organlarining emas, balki moliya tizimi barcha sub’ektlarining manfaatlarini hisobga olishi lozim. Davlat moliyaviy siyosati va davlat hokimiyat organlarining moliyaviy siyosatini farqlash zarur.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili: Moliyaviy siyosat va moliyaviy barqarorlikning nazariy-konseptual asoslari iqtisodiy adabiyotlarda keng muhokama qilingan. Jumladan iqtisodchilar J.X.Ataniyazov , F.A.Xamidova va M.B.Pulatova moliyaviy siyosatda Respublikamizda ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor munosabatlarini shakllantirish va rivojlantirish, iqtisodiyot tarmoqlarining barqaror o‘sishini ta’minlash, yuqori sifatli va raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqargan holda jahon bozorlarida mustahkam o‘rin egallash, pirovardida aholi turmush darajasini yuksaltirishga qaratilgan strategiya izchil amalga oshiriladi.Hamda mamlakatimiz tashqi iqtisodiy siyosati eng avvalo, milliy iqtisodiy manfaatlarni himoya qilgan holda xalqaro moliya munosabatlarida faol ishtirok etishga qaratilganligini o'z adabiyotlarida chuqur izohlaganlar.

Iqtisodchi T.S.Malikov moliyaviy siyosat Jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti, aholi turmush darajasi va sifatini oshirish uchun moliyaviy sharoitlarni yaratish moliyaviy siyosatning eng asosiy maqsadi bo‘lib hisoblanadi.Moliyaviy siyosatning turlari va boshqaruvda aks ettiradigan o'rni va ahamiyatini iqtisodiy tahlil qilgan.Moliyaviy siyosat davlat boshqaruvi tizimining muhim tarkibiy qismi bo‘lib, unga moliyaviy boshqaruvning barcha tizimi asoslanadi.Moliyaviy siyosat davlatning moliyaviy munosabatlar sohasidagi mustaqil faoliyati bo‘lib, mamlakatning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishini ta’minlashga xizmat qiladi.

Mazkur faoliyat davlat tomonidan ishlab chiqilgan iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish dasturlarini amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan moliyaviy resurslar bilan ta’minlashga qaratilgan. Shu sababli moliyaviy siyosatni faqat iqtisodiy siyosat bilan cheklab qo‘yish maqsadga muvofiq emas. U o‘zining mustaqil ahamiyatiga ega bo‘lib,

bir vaqtning o‘zida ijtimoiy hayotning turli sohalarida davlat siyosatini amalga oshirishning muhim vositasi hisoblanadi.

Adabiyotlarda moliyaviy siyosat davlat iqtisodiy siyosatining asosiy komponenti sifatida ta'riflanadi, u moliyaviy tizimni tashkil etish, moliyaviy resurslarni safarbar etish va ulardan samarali foydalanish hamda davlatning ichki va tashqi maqsadlarini amalga oshirishga yo'naltirilgan. Bu siyosatning samaradorligi davlat byudjeti daromadlari, xarajatlari, kreditlar va soliq imtiyozlari kabi vositalar orqali iqtisodiy o'sish, aholi farovonligi va inflyatsiya jarayonlariga ta'sir o'tkazish qobiliyati bilan belgilanadi.Pul-kredit va valyuta siyosati xalqaro moliyaviy munosabatlarda muhim ahamiyat kasb etib, bozor iqtisodiyotida milliy valyuta maqomini aniqlash, ishsizlikning oldini olish, inflyatsiyani nazorat qilish va to'lov balansining ijobiy saldosini saqlash orqali iqtisodiy barqarorlikni ta'minlaydi.

Tadqiqot metodologiyasi: Ushbu tadqiqotda moliyaviy siyosatning mamlakat moliyaviy barqarorligini ta'minlashdagi rolini tahlil qilish uchun tizimli, analitik va konseptual yondashuv qo'llanilgan. Tadqiqot nazariy-konseptual asoslarni sintez qilishga, mavzuga oid adabiyotlar tahlili orqali moliyaviy siyosatning asosiy prinsiplari, instrumentlari va mexanizmlarini o'rganishga qaratilgan. Mavjud ma'lumotlar va ekspertlar xulosalaridan foydalanib, fiskal va monetar siyosatlarning iqtisodiy barqarorlikka ta'siri atroflicha ko'rib chiqilgan. O'zbekiston misolida moliyaviy siyosatning dolzarb vazifalari va istiqbollarini aniqlashda induktiv yondashuvdan foydalanilgan.

Taxlil va natijalar: Moliyaviy siyosatning mazmuni u qamrab olishi mumkin bo‘lgan moliyaviy munosabatlar rivojlanishi yo‘nalish-larining umumiy kompleksi bilan belgilanadi. Ularning tarkibiga quyidagilar kirishi mumkin:

• moliyaviy siyosatning umumiy konsepsiyasini (uning maqsadlarini, prinsiplarini, vazifalarini, amalga oshirish bosqichlarini va eng samarali metodlarini) ishlab chiqish;

• makrodarajada va bozor iqtisodiyotining sub’ektlari darajasida iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantiradigan bozor iqtisodiyotining rivojlanishiga mos (adekvat) bo‘lgan dinamik holdagi moliya mexanizmini shakllantirish;

• markazlashtirilgan va markazlashtirilmagan resurslar va moliyaviy oqimlarning samarali boshqarilishini oshirish bo‘yicha choralar tizimini ishlab chiqish va amalga oshirish;

• ijtimoiy takror ishlab chiqarish va iqtisodiyotni istiqbolli restrukturizatsiya qishlishdagi roliga muvofiq ravishda sotsial iqtisodiy tizimning barcha darajalari va sohalari bo‘yicha moliyaviy resurslarni oqilona (optimal) taqsimlashni tashkil qilish;

• iqtisodiy o‘sishning joriy va istiqboldagi moliyaviy salohiyatini shakllantirish.

Moliyaviy siyosat o'zining maqsadlariga erishish uchun bir qator asosiy instrumentlarga tayanadi, ularning asosiylarini fiskal (byudjet-soliq) va monetar (pul-kredit) siyosatlari tashkil etadi. Bu ikki siyosat iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda o'zaro bog'liq holda ishlaydi va har biri o'ziga xos mexanizmlar orqali iqtisodiyotga ta'sir ko'rsatadi.

Fiskal siyosat davlatning daromadlari va xarajatlari orqali iqtisodiyotga ta'sir ko'rsatishini anglatadi. Uning asosiy instrumentlari davlat byudjeti, soliqlar, davlat xarajatlari va davlat qarzidir. Davlat byudjeti daromadlari, asosan, soliqlar orqali shakllantirilib, bu soliqlar iqtisodiy faoliyatni rag'batlantirish yoki cheklash, daromadlarni qayta taqsimlash va makroiqtisodiy barqarorlikni saqlash vositasi bo'lib xizmat qiladi. Agarda davlat xarajatlari daromadlardan oshib ketsa, byudjet taqchilligi yuzaga keladi, bu esa davlat qarzini oshirishi mumkin. Fiskal siyosatning samaradorligi uning maqsadga muvofiqligi, ya'ni iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish, inflyatsiyani jilovlash yoki ishsizlikni kamaytirish kabi vazifalarni bajarish qobiliyati bilan belgilanadi. Soliq imtiyozlari orqali davlat ma'lum tarmoqlarga ustuvorlik berib, ularning tezroq rivojlanishiga sharoit yaratishi hamda aholi daromadlariga bilvosita ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shuningdek, soliq va bojxona tizimidagi innovatsiyalar, iqtisodiy islohotlar bilan uyg'unlashgan holda, davlatning iqtisodiy ta'sirini kuchaytiradi va aholi turmush darajasini oshirishga xizmat qiladi.

Monetar siyosat esa mamlakat Markaziy banki tomonidan pul massasi, foiz stavkalari va kreditlar hajmini tartibga solish orqali iqtisodiyotga ta'sir ko'rsatishni nazarda tutadi. Uning asosiy maqsadi inflyatsiyani nazorat qilish, narxlar barqarorligini ta'minlash va iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlashdan iborat. Monetar siyosatning asosiy instrumentlari qayta moliyalash stavkasi (diskont siyosati), ochiq bozor operatsiyalari, majburiy rezerv normalari va valyuta siyosati vositalaridir. Qayta moliyalash stavkasini o'zgartirish orqali Markaziy bank tijorat banklari uchun kredit resurslarining narxini belgilaydi, bu esa iqtisodiyotdagi kreditlash hajmi va investitsiya faolligiga ta'sir qiladi. Valyuta siyosati ham monetar siyosatning muhim tarkibiy qismi bo'lib, u milliy valyuta kursini boshqarish, valyuta intervensiyalari va valyuta rezervlarini diversifikatsiya qilish orqali xalqaro moliyaviy munosabatlarda barqarorlikni ta'minlaydi. Valyuta inqirozlarining oldini olish va valyuta bozorini liberallashtirish pul-kredit siyosatining ustuvor vazifalaridan hisoblanadi.

Davlat budjeti daromadlari va xarajatlari[7]

[7] https://openbudget.uz - ma`lumotlari asosida tayyorlangan.

Yil	Budjet daromadlari (trln.so'm)	Budjet xarajatlari (trln.so'm)
2022	232	263
2023	263	305
2024	270.7	312.9
2025	308.5	344.6

Jadval ma’lumotlari O‘zbekiston davlat budjeti ko‘rsatkichlari so‘nggi yillarda barqaror o‘sish tendensiyasiga ega ekanligini ko‘rsatadi. 2022 yilda davlat budjeti daromadlari 232 trillion so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, xarajatlar 263 trillion so‘mni tashkil etdi. Natijada budjet defitsiti 31 trillion so‘m bo‘lgan. Bu davrda davlat iqtisodiy rivojlanish, ijtimoiy sohalar va infratuzilma loyihalarini moliyalashtirishni ustuvor yo‘nalish sifatida belgilagan.

2023 yilga kelib budjet daromadlari 263 trillion so‘mga yetdi. Bu 2022 yilga nisbatan taxminan 13 % o‘sishni anglatadi. Shu bilan birga davlat xarajatlari 305 trillion so‘mga yetib, budjet defitsiti 42 trillion so‘mni tashkil etdi. Xarajatlarning oshishi asosan ijtimoiy dasturlar, investitsiya loyihalari va davlat infratuzilma loyihalarining kengayishi bilan bog‘liq.

2024 yilda davlat budjeti daromadlari 270,7 trillion so‘m, xarajatlari esa 312,9 trillion so‘mni tashkil etdi. Bu davrda ham budjet defitsiti 42,2 trillion so‘m bo‘lgan. Bunda iqtisodiy o‘sish, soliq ma’murchiligining takomillashuvi va tadbirkorlik rivoji budjet daromadlari oshishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatgan.

2025 yil uchun davlat budjeti daromadlari 308,5 trillion so‘m, xarajatlari esa 344,6 trillion so‘m miqdorida rejalashtirilgan. Bu 2024 yilga nisbatan daromadlar taxminan 37,8 trillion so‘mga oshishini ko‘rsatadi.

Shu bilan birga, budjet xarajatlari ham oshib, 344,6 trillion so‘mga yetgan. Bu esa davlatning iqtisodiy rivojlanish va ijtimoiy sohalarni qo‘llab-quvvatlashga katta mablag‘ yo‘naltirayotganini ko‘rsatadi.

Xulosa: Moliyaviy siyosat mamlakatning moliyaviy barqarorligini ta'minlashda va iqtisodiy rivojlanishning barqaror trayektoriyasini belgilashda fundamental rol o'ynaydi. Tadqiqot shuni ko'rsatadiki, fiskal va monetar siyosatlarning oqilona boshqaruvuvi, moliyaviy tizimni samarali tartibga solish va nazorat qilish bilan birga, makroiqtisodiy barqarorlikka erishishning asosiy shartidir. Moliyaviy siyosat davlatning moliyaviy resurslarini safarbar etish, ularni samarali taqsimlash va iqtisodiy jarayonlarga maqsadli ta'sir ko'rsatish orqali iqtisodiy o'sish, bandlik va aholi farovonligini ta'minlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega.

O'zbekistonning so'nggi yillardagi moliyaviy siyosat tajribasi moliyaviy islohotlar va bozor prinsiplariga o'tish jarayonida erishilgan muhim yutuqlarni ko'rsatadi. Biroq,

global iqtisodiy o'zgarishlar va ichki rivojlanish ehtiyojlari moliyaviy siyosatni yanada takomillashtirishni talab qiladi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR.

1. O'zbekiston Respublikasining "Markaziy bank to'g'risida"gi Qonuni. – O'RQ-434-son, 2016-yil 25-avgust.
2. O'zbekiston Respublikasining "Budjet tizimi to'g'risida"gi Qonuni. – O'RQ-479-son, 2017-yil 13-dekabr.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston–2030" strategiyasi to'g'risida"gi PF-158-sonli Farmoni. – 2023-yil 11-sentyabr.
4. Ataniyazov J.X., Xamidova F.A., Pulatova M.B. Xalqaro moliya institutlari. Toshkent, 2020.
5. Malikov T.S. Moliya asoslari. Toshkent, 2021.
6. O‘zbekiston Respublikasi Statistikasi Qo‘mitasi (UZ Stat). O‘zbekiston Respublikasi moliyaviy statistikasi va korxona moliyaviy ko‘rsatkichlari. Rasmiy sayt: https://stat.uz
7. Moliyaviy hisobotlar standartlari bo‘yicha huquqiy hujjatlar. Rasmiy veb-portal: https://lex.uz
8. Brigham E.F., Ehrhardt M.C. Financial Management: Theory & Practice. Cengage Learning, 2021.
9. Moliya vazirligi portalidagi amaliy qo‘llanmalar va normativ hujjatlar. Rasmiy sayt: https://mfn.uz
10. Moliyaviy siyosatning nazariy asoslari // Worldly Journals. – 2024. worldlyjournals.com
11. Moliyaviy barqarorlik tushunchasi va tahlil usullari // Economics Research. – 2024. zenodo.org
12. Aksiyadorlik jamiyatlari moliyaviy tizimining asosiy elementlari: kapital tuzilishi, dividend siyosati va moliyaviy barqarorlik // ResearchGate. – 2024.

Ashurova Oltin Yuldashevna
SamISI katta o‘qituvchisi.
Sattarova Feride Anvarovna
SamISI IKX-122 guruh

XORIJIY INVESTISIYALARNING IQTISODIY JARAYONLARDAGI O’RNI: 2026 YIL GLOBAL TRENDLARI VA O’ZBEKISTON MISOLIDA TAHLIL

Annotasiya: Mazkur maqolada xorijiy investisiyalarning iqtisodiy jarayonlardagi o’rni 2026-yil global trendlari va O‘zbekiston misolida tahlil qilingan. Tadqiqot doirasida xorijiy investisiyalar tushunchasining transformasiyasi, global investisiya oqimlaridagi rollar almashinuvi, xalqaro ekspertlarning 2026 yilga prognozlari hamda O‘zbekistonning xorijiy investisiyalarni jalb qilish borasidagi yutuqlari o’rganilgan. Shuningdek, muallif tomonidan O‘zbekistondagi xorijiy investisiya ishtirokidagi korxonalarning statistik tahlili, ularning hududiy va tarmoq tarkibi bayon etilgan. Maqolada «strategik kapitalizm» va «taraqqiyot investisiyasi» kabi zamonaviy konsepsiyalar asosida tahliliy xulosalar berilgan

Kalit so'zlar: xorijiy investisiyalar, to’g’ridan-to’g’ri xorijiy investisiyalar (TXI), investisiya muhiti, global kapital oqimlari, reindustriallashuv, qo’shilgan qiymat zanjirlari, geoiqtisodiy strategiya, «strategik kapitalizm», O‘zbekiston iqtisodiyoti, «O‘zbekiston-2030» strategiyasi, investisiyaviy hamkorlik, texnologik transfert

Abstract: This article analyzes the role of foreign investments in economic processes, examining the global trends of 2026 and the case of Uzbekistan. The study explores the transformation of the concept of foreign investments, the shifting roles in global investment flows, forecasts of international experts for 2026, and Uzbekistan's achievements in attracting foreign investments. Furthermore, the author presents a statistical analysis of enterprises with foreign investment operating in Uzbekistan, detailing their regional and sectoral distribution. The article provides analytical conclusions based on modern concepts such as «strategic capitalism» and «developmental investment».

Keywords: Foreign investment, foreign direct investment (FDI), investment climate, global capital flows, re-industrialization, value chains, geo-economic strategy, «strategic capitalism», Uzbekistan economy, «Uzbekistan-2030» strategy, investment cooperation, technology transfer.

Kirish. Xorijiy investisiyalar zamonaviy jahon iqtisodiyotining

harakatlantiruvchi kuchi bo'lib, ular kapital, texnologiya va bilimlar transferi orqali milliy iqtisodiyotlarning rivojlanishiga turtki beradi. So'nggi yillarda global investisiya oqimlarida tub o'zgarishlar ro'y bermoqda. An'anaviy ravishda samaradorlik va arzon ishchi kuchiga asoslangan investisiya strategiyalari o'rnini strategik ustuvorliklar, texnologik suverenitet va geoiqtisodiy manfaatlar egallamoqda.

2026 yilga kelib, xorijiy investisiyalar nafaqat iqtisodiy o'sish vositasi, balki davlatlarning sanoat va texnologik rivojlanish strategiyalarining ajralmas qismiga aylandi. Jahonning ikki yirik iqtisodiyoti – AQSh va Xitoy – investisiya sohasida rollar almashinuvini boshdan kechirmoqda. AQSh strategik tarmoqlarda ishlab chiqarish quvvatlarini tiklash maqsadida reindustriallashuv siyosatini olib borsa, Xitoy ichki bozor va innovasiyalarga tayangan holda tashqi ekspansiyani kuchaytirmoqda.

Shu nuqtai nazardan, xorijiy investisiyalarning iqtisodiy jarayonlardagi o'rnini kompleks tahlil qilish, global trendlarni o'rganish va O'zbekistonning ushbu jarayonlardagi ishtirokini baholash dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Xorijiy investisiyalarning iqtisodiy jarayonlardagi o'rnini 2026 yil global trendlari asosida tahlil qilish, O'zbekistonning xorijiy investisiyalarni jalb qilish borasidagi yutuqlarini o'rganish va istiqbolli yo'nalishlarni belgilashdan iborat.

Tadqiqotda xorijiy investisiyalarning zamonaviy nazariyalari va konsepsiyalari tahlil qilindi. Jumladan:

«Strategik kapitalizm» konsepsiyasi – Mikael Vigell (Economic Security Forum CEOsi) tomonidan ilgari surilgan ushbu konsepsiyaga ko'ra, rivojlangan iqtisodiyotlarda samaradorlik emas, balki xavfsizlik, chidamlilik va strategik ustunlik asosiy mezonga aylanmoqda. Davlatlar investisiyalarni milliy xavfsizlik, texnologik salohiyat va geosiyosiy ta'sirni kuchaytirish uchun faol boshqaradi.

«Taraqqiyot investisiyasi» (Foreign Developmental Investment) konsepsiyasi – Anshu Vats (Kearney global davlat sektori amaliyoti asoschisi) ta'kidlaganidek, an'anaviy TXI endilikda texnologik infratuzilmani rivojlantirish, ishchi kuchi ishtirokini oshirish va yoshlar ishsizligini hal qilishga qaratilgan «taraqqiyot investisiyasi»ga aylanmoqda.

«Dirijist poligloballashuv» (Dirigiste Poly-globalisation) konsepsiyasi – Jeyms Jan (fDi Intelligence) ta'kidlaganidek, rivojlanayotgan xalqaro ishlab chiqarish tizimi gipergloballashuvga qaytish ham, fragmentasiyaga tushish ham emas. Bu davlatlar savdo, investisiya va texnologiyalarni qat'iy boshqaradigan dirijist poligloballashuvdir

Tadqiqot natijalariga ko'ra, so'nggi yillarda jahonning ikki yirik iqtisodiyoti – AQSh va Xitoy – investisiya sohasida rollar almashinuvini boshdan kechirmoqda.

AQSh va Xitoy investisiya oqimlaridagi o'zgarishlar (2025-2026) 1-jadval:

Ko'rsatkich	AQSh	Xitoy
Investisiya strategiyasi	Reindustriallashuv	«Ikki tomonlama muomala»
Ustuvor yo'nalishlar	Yarimo'tkazgichlar, energiya uskunalari, ilg'or ishlab chiqarish	Elektromobillar, qayta tiklanuvchi energiya, yuqori texnologiyali mashinasozlik
Investisiyalar hajmi	2025 yil 11 oyida $290 mlrd (rekord)	Chiquvchi TXI kiruvchi TXIdan yuqori
Asosiy vositalar	Tariflar, sanoat qonunchiligi, soliq imtiyozlari	Davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, innovasiyalarga investisiya

Xalqaro ekspertlarning fikriga ko'ra, 2026 yilda turli mintaqalarda investisiya oqimlari turlicha dinamikaga ega bo'ladi.

2026 - yil uchun mintaqaviy investisiya prognozlari 2-jadval:

Mintaqa	**Ekspert**	**Asosiy prognoz**	**Ustuvor tarmoqlar**
Yevropa	Giylem Delon-Somye (OCO Global)	TXI loyihalari hajmining sezilarli kamayishi kutilmoqda. AI sohasidagi investisiyalar o'sishda davom etadi.	AI, tadqiqot va ishlanmalar
Afrika	Amne Suedi (Swiss Shikana)	Sharqiy Afrikada 2025 Q3 da $4.9 mlrd TXI – so'nggi yillardagi eng yuqori ko'rsatkich. Siyosiy beqarorlik xavf tug'diradi.	Mineral resurslar, energetika
ASEAN	Endryu Kibl (KW Group)	Yarimo'tkazgichlar, batareyalar, ma'lumot markazlari, yirik ko'lamli yashil energetika loyihalariga kapital oqimi davom etadi.	Ilg'or ishlab chiqarish, yashil energetika
Yaqin Sharq	Usama Al Isavi (PA Consulting)	Yaqin Sharq global AI infratuzilmasi temponi belgilaydi. Ma'lumot markazlari bozori $9.5 mlrd ga yetadi.	AI infratuzilmasi, yashil energetika, logistika
Shimoliy Amerika	Meri Martens (OCO Global)	USMCA sharhi (iyul 2026) eng muhim savdo voqyeasi. Yarimo'tkazgichlar, EV ta'minot zanjirlari, AI avtomatizasiyasi investisiyalari davom etadi.	Yarimo'tkazgichlar, EV, AI

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, 2026 yil 1 fevral holatiga respublikada xorijiy investisiya ishtirokidagi korxonalar soni 18 500 taga yetdi. So'nggi besh yilda ushbu ko'rsatkich deyarli ikki baravarga oshgan.

Korxonalarning tashkiliy-huquqiy shakli:

To'liq xorijiy korxonalar – 14 200 ta (77%)

Qo’shma korxonalar – 4 300 ta (23%)

O‘zbekistondagi xorijiy investisiya ishtirokidagi korxonalar soni (2026 y. 1 fevral) **3-jadval**

№	Davlat	Korxonalar soni	Ulushi (%)
1	Xitoy	5 200	28.1%
2	Rossiya	3 200	17.3%
3	Turkiya	2 100	11.4%
4	Qozog’iston	1 200	6.5%
5	Koreya	699	3.8%
6	Afg’oniston	647	3.5%
7	BAA	413	2.2%
8	Tojikiston	410	2.2%
9	Hindiston	394	2.1%
10	Ozarbayjon	368	2.0%
11	Boshqa davlatlar	3 869	20.9%
	Jami	18 500	100%

Tadqiqot natijalari shuni ko’rsatadiki, xorijiy investisiyalar tushunchasi tubdan o’zgarmoqda. An’anaviy ravishda arzon ishchi kuchi va resurslarga asoslangan investisiyalar o’rnini strategik ustuvorliklar, texnologik suverenitet va geoiqtisodiy manfaatlar egallamoqda.

Anshu Vats ta’kidlaganidek, «TXI endilikda (Xorijiy Taraqqiyot Investisiyasi) ma’nosini kasb etmoqda. Bu kapital va texnologiyalar transferi orqali ishchi kuchi ishtirokini oshirish va yoshlar ishsizligini hal qilishga qaratilgan» .

Jeyms Janning fikricha, «AQSh va Xitoy o’rtasidagi rollar almashinuvi global savdo va investisiya landshaftining struktur transformasiyasiga, boshqa mamlakatlar va mintaqalarning rivojlanish strategiyalari va sanoat siyosatiga uzoq muddatli ta’sir ko’rsatadi».

O‘zbekistonning investisiyaviy jozibadorligi omillari

O‘zbekiston mustaqillik yillarida Prezident Islom Karimov ishlab chiqqan beshta tamoyilga asoslangan rivojlanish modelini yaratdi. 2016 yildan boshlab iqtisodiy islohotlarning yangi bosqichi boshlandi, natijada mamlakat Markaziy Osiyoning eng tez rivojlanayotgan iqtisodiyotlaridan biriga aylandi.

O‘zbekistonda xorijiy investisiya ishtirokidagi korxonalar sonining so’nggi besh yilda deyarli ikki baravarga oshgani mamlakatning investisiyaviy jozibadorligi ortayotganidan dalolat beradi. Buning asosiy omillari:

Siyosiy va iqtisodiy islohotlar – so’nggi yillarda amalga oshirilgan tizimli

islohotlar mamlakat iqtisodiyotini barqaror o’sish trayektoriyasiga olib chiqdi;

Qulay investisiya muhiti – Toshkent shahridagi korxonalarning yuqori konsentrasiyasi (73%) logistika, kadrlar bozori, bank-moliya infratuzilmasi va xizmatlar sifati bilan izohlanadi;

Xitoy bilan strategik hamkorlik – 5 200 ta korxona bilan Xitoy yetakchi investor bo’lib, «Shanxay Taysin» kabi kompaniyalar chiqindilarni qayta ishlash va yashil iqtisodiyot loyihalarini amalga oshirmoqda

Xulosa qilib aytganda, natijalari shuni ko’rsatadiki, xorijiy investisiyalar zamonaviy jahon iqtisodiyotining harakatlantiruvchi kuchi sifatida tub transformasiya jarayonini boshdan kechirmoqda. An’anaviy ravishda arzon ishchi kuchi va resurslarga asoslangan investisiya strategiyalari o’rnini strategik ustuvorliklar, texnologik suverenitet va geoiqtisodiy manfaatlar egallamoqda. Bu o’zgarishlar «strategik kapitalizm», «taraqqiyot investisiyasi» va «dirijist poligloballashuv» kabi yangi konsepsiyalarda o’z ifodasini topmoqda.

Xorijiy investisiyalar iqtisodiy jarayonlarda nafaqat kapital manbai, balki texnologik transfert, innovasiyalarni joriy etish, yangi ish o’rinlari yaratish va iqtisodiy o’sishni rag’batlantirishning muhim vositasidir. O‘zbekiston so’nggi yillarda amalga oshirayotgan tizimli islohotlar va ochiq iqtisodiy siyosat tufayli global investisiya oqimlarida munosib o’rin egallashga erishmoqda. Bu esa mamlakatning barqaror iqtisodiy rivojlanishi va aholi farovonligini oshirishga xizmat qilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son «2022-2026 yillarga mo’ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to’g’risida»gi Farmoni. – Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 29.01.2022 y.

2. O‘zbekiston Respublikasining «Investisiyalar va investisiya faoliyati to’g’risida»gi Qonuni. 2019 yil 25 dekabr, O’RQ-598-son. – Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 26.12.2019 y.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «2030 yilgacha bo’lgan davrda O‘zbekiston Respublikasining milliy maqsad va vazifalari to’g’risida»gi Farmoni. – Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi.

4. O‘zbekiston Respublikasining «2030 yilgacha bo’lgan davrda Yoshlar siyosati konsepsiyasini tasdiqlash to’g’risida»gi Qarori. – Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi.

5. Khaitova, F. B. (2025). Enhancing foreign economic relations as a driving factor in the development of the national economy. YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT, 3(1). DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.17577002

Ashurova Oltin Yuldashevna
SamISI katta o‘qituvchisi.
Mamarasulov Nusratbek G‘ayrat og'li
SamISI IKX 322- guruh talabasi

O’ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA MAHALLIY SOLIQLAR VA YIG’IMLARNING AMAL QILISH MEXANIZMI

Annotatsiya: Ushbu maqolada O’zbekiston Respublikasida mahalliy soliqlar va yig’imlarning amal qilish mexanizmi, ularning huquqiy-normativ asoslari, turlari, byudjet daromadlaridagi o’rni va samaradorligini oshirish yo’llari kompleks tarzda tahlil qilingan. Tadqiqot davomida 2020–2025-yillardagi qonun hujjatlari, statistik ma’lumotlar va ilmiy adabiyotlar o’rganilgan. Mahalliy soliqlarning amal qilish mexanizmidagi mavjud muammolar aniqlangan va ularni bartaraf etish borasida amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so’zlar: mahalliy soliqlar, yig’imlar, mahalliy byudjet, mol-mulk solig’i, yer solig’i, soliq mexanizmi, byudjet daromadlari, fiskal siyosat, soliq ma’muriyatchiligi, hududiy rivojlanish

Abstract: This article provides a comprehensive analysis of the operating mechanism of local taxes and fees in the Republic of Uzbekistan, including their legal and regulatory foundations, types, role in budget revenues, and ways to improve their effectiveness. During the research, legislative acts, statistical data, and scientific literature from 2020–2025 were studied. Existing problems in the functioning mechanism of local taxes have been identified, and practical recommendations have been developed to address them.

Keywords: local taxes, fees, local budget, property tax, land tax, tax mechanism, budget revenues, fiscal policy, tax administration, regional development

KIRISH. Har qanday davlatning barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi ko’p jihatdan moliya tizimining samarali faoliyat yuritishiga, xususan, soliq-byudjet siyosatining maqsadli va izchil amalga oshirilishiga bog’liq. O’zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan so’ng iqtisodiyotni bozor tamoyillari asosida isloh qilish yo’lida mahalliy moliya tizimini mustahkamlash ustuvor vazifaga aylandi. Mahalliy soliqlar va yig’imlar — bu nafaqat byudjet daromadlarini shakllantirish vositasi, balki hududlarning ijtimoiy infratuzilmasini rivojlantirish, aholi farovonligini oshirish va mahalliy hokimiyat organlarining moliyaviy mustaqilligini ta’minlashning muhim manbaidir.

Kifta tayyorlash uchun go‘shtning qiymabop qismi ikki marta go‘sht qiymalagichdan o‘tkaziladi, chala pishirilgan guruch, tuxum bilan aralashtiriladi, tuz hamda ziravor solinadi va kifta qilib tayyorlanadi (bir porsiyaga 2 dona).

Tortilayotganda sho‘rvaga kifta solinadi va mayda to‘g‘ralgan ko‘kat sepiladi.

3-jadval

Quymoqli kurka-o‘rdak go‘shti taomining retsepturasi

Mahsulotlar	O‘lchov birligi	Brutta vazni, g (og‘irligi)	Netto vazni, g (sof og‘irligi)
Kurka-o‘rdak	g	147	133
Tuxum	dona	1	40
Kifta sho‘rva taomning retsepturasi			
Kiftaga: Mol go‘shti	g	91	67
Guruch yormasi	g	20	20
Tuxum	dona		10

Tayyor kifta miqdori	g	-	110
Piyoz	g	30	25
Sabzi	g	32	25
Pomidor yoki pomidor pastasi	g	27 5	23 5
Kartoshka	g	100	75
Suv	g	350	350
Chiqishi	g		500

Xulosa. Demak, Biz ishda to‘g‘ri ovqatlanishni tashkil etishda go‘shtlarning xususiyatini, ayniqsa parranda go‘shtlariga birlamchi ishlov berishdagi yo‘qotishlarni hamda parranda go‘shtlaridan tayyorlanadigan yarim tayyor mahsulotlar, ayrim taomlarning takomillashtirilgan retsepturasi va tayyorlash texnologiyasini ishlab chiqdik. Bu taomlarni foydali tomonlarini hisobga olib, ularni iste’mol qilishga tavsiya etish maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’mnlash yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. - Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2017. – 47 b.

2. N.N.Mo‘minov, Sh.Sh.Ishniyazova, J.S.Fayziyev, A.Y.Xudoyberdiyev. “Chorvachilik chiqindilarini qayta ishlash texnologiyasi” O‘quv qo‘llanma. “O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati” nashriyoti, 100029. Toshkent 2022, 152-b.

3. Xudayberdiev A.Yu., Ishniyazova Sh.A., Mo‘minov N.N. Go‘sht va go‘sht mahsulotlarini saqlash va uni qayta ishlashda innovatsion texnologiyalar. O‘quv qo‘llanma. “O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati” nashriyoti, 100029. Toshkent 2022 – 160 bet.

4. Пропин В.В., Филенко С.П., Мазилкин И.А. Технология первичной переработки продуктов животноводства. Лань. ГИОРД. 978-5-8114-1452-91SBN; СПб – 2013 г.

5. Xudoyshukurov T., Muxammadiev N., Mo‘minov N., Shukurov I. Ovqatlanish mahsulotlarini ishlab chiqarish asoslari. Darslik. Toshkent, “Iqtisod-Moliya”, 2010 y.

Umirzoqova Muxabbat Ismatjon qizi –
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti assistenti

TURIZM INDUSTRIYASINI MODERNIZATSIYALASHNING IJTIMOIY-IQTISODIY DETERMINANTLARI VA UNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI.

Annotatsiya: Ushbu maqolada hozirgi globallashuv va raqobatbardosh iqtisodiy muhitda turizm xizmatlari sohasini jadal rivojlantirishning ijtimoiy hamda iqtisodiy ahamiyati yoritib berilgan. Turizm sohasi mamlakatning yalpi ichki mahsulotini oshirish, bandlikni ta'minlash, infratuzilmani rivojlantirish va milliy madaniyatni targ‘ib qilishda muhim o‘rin egallaydi.

Kalit so‘zlar: turizm xizmatlari, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish, bandlik, investitsiya, infratuzilma, madaniy meros, iqtisodiy o‘sish, hududiy rivojlanish

Abstract: This article highlights the social and economic importance of the rapid development of the tourism services sector in the current globalized and competitive economic environment. The tourism sector plays a significant role in increasing the country's gross domestic product, providing employment, developing infrastructure, and promoting national culture.

Keywords: tourism services, socio-economic development, employment, investment, infrastructure, cultural heritage, economic growth, regional development

Kirish: XXI-asrda turizm o‘zining ko‘p qirrali tarkibi, ko‘plab yondosh sohalari bilan birga hamnafas rivojlanishga imkon berib, jamiyat hayotining barcha sohalariga faol ta’sir o‘tkazib kelmoqda. Turizm rivojlanishi ortidan transport, aloqa, joylashtirish, umumiy ovqatlanish korxonalari, kommunal xo‘jaligi, maishiy xizmat ko‘rsatish, servis sohasi, savdo xizmatlari turizm industriyasini tashkil etib, o‘z o‘rnida sayyohlarga sifatli xizmat ko‘rsatish bilan bog‘liq bir qator sohalarni qamrab olgan. Turizm xizmatlari sohasi jahon iqtisodiyotining serdaromad, kam xarajat sohalaridan biri bo‘lib, qudratli integratsion soha sifatida nafaqat ko‘plab mamlakatlarning yalpi ichki mahsulotining o‘sish sur’atidan tezroq rivojlanmoqda, balki xizmatlarning xalqaro eksportida ham uning ulushi oshib bormoqda. Halqaro tajriba turizm xizmatlarining roli uzluksiz o‘sayotganligini ko‘rsatadi. Bugungi kunga kelib, turizm sanoati jahon iqtisodiyotining eng yirik tarmoqlaridan biriga aylandi. Oxirgi o‘ttiz yil ichida dunyo bo‘ylab sayyohlar soni qariyb 4 barobar, turizmdan olingan daromad esa, 25 barobardan ziyod oshdi. Mazkur sektor yuqori rentabelli tarmoq bo‘lib, investitsiya samaradorligi bo‘yicha neft va gaz sanoati hamda avtomobilsozlik sanoati bilan taqqoslanadigan uchta yirik eksport tarmoqlaridan biri hisoblanadi, bundan tashqari,

jahon eksportidagi ulushi, mos ravishda 11 foiz va 8,6 foizni tashkil qiladi[1]. Shu tariqa turizm nufuzining o‘sib borishiga ko‘ra jahon iqtisodiyotida drayver soha sifatidagi maqomi yanada ortib bormoqda. Prezidentimiz SH.M.Mirziyoev Butun jahon turizm tashkiloti bosh assambleyasining 25-sessiyasidagi ma’ruzasida, turizm sohasining iqtisodiyotga ta’siri haqida to‘xtalib, “Ko‘plab davlatlar hozirgi murakkab vaziyatda o‘z iqtisodiyotini tiklash va dolzarb ijtimoiy muammolarni hal etishda turizm sohasiga tayanmoqda. Global raqobat muhiti kuchaymoqda. Bu albatta bejiz emas: sohaga kiritilayotgan har bir dollar kelgusida 3-4 barobar daromad keltirishini barchangiz yaxshi bilasiz. Yaratilayotgan har bir yangi ish o‘rni esa boshqa tarmoqlarda yana 2 ta ish joyini hosil qilishga imkon beradi. Shu ma’noda, turizm mamlakatlarimizning umumiy farovonligi va barqaror taraqqiyotini ta’minlashning muhim omilidir, desak, mubolag‘a bo‘lmaydi” deb ta’kidladi[2]. Shu sababli ham dunyoda turizm xizmatlari bozorining ahamiyati doimiy ravishda oshib bormoqda, bu turizmning alohida mamlakat iqtisodiyotiga ta’siri kuchayishi bilan bog‘liq. Demak, turizm xizmatlari rivojlanishi mamlakat uchun valyuta tushumlari manbai va aholi bandligini ta’minlash vositasi,· mamlakat to‘lov balansi va yalpi milliy mahsulotining muhim omili, · iqtisodiyotni diversifikatsiya qilishning zarur vositasi ekan.

Mavzuga doir adabiyotlar tahlili: Turizm xizmatlari tushunchasi murakkab, ko‘pqirrali bo‘lib, so‘nggi yillarda chop etilayotgan ko‘pgina iqtisodiy adabiyotlarda va lug‘atlarda uning nazariy asoslari turlicha ta’riflanmoqda. Jumladan, turizim xizmatlari - turistlarning ehtiyojlarini qondirish va ta’minlashga qaratilgan, xizmat sohasidagi bir maqsadga yo‘naltirilgan harakatlar to‘plami sifatidagi qarashlar ustun bo‘lgan holda, XX asr oxiri va XXI asr boshlaridan boshlab ko‘proq aholiga sayohat va dam olishiga xizmat ko‘rsatuvchi tarmoq haqidagi tasavvurlarga urg‘u berilmoqda.

Misol uchun Rossiyalik iqtisodchi - olimlar A.S.Kuskov va Yu.A. Djaladyan “Turizm asoslari” nomli darsligida “Turizmdagi xizmat - bu turizm kompaniyalarining turistik mahsulotni yaratishdagi faoliyatining asosiy qismi hamda natijasi” ekanligini ta’kidlaydi[3].

L.V.Staxovaga ko‘ra, turizm xizmatlari - bozor segmenti sifatida, umumiy ovqatlanish, transport, mehmondo‘stlik industriyasi, savdo va madaniyat kabi xizmatlarni taklif qiluvchi turli tarmoqlarni birlashtiruvchi majmuadan iborat[4]. Turizm xizmatlari tushunchasiga M.B. Birjakov quyidagi ta’rifni beradi: “Turistik xizmat - bu xizmat ko‘rsatish sohasida maqsadga yo‘naltirilgan harakatlar to‘plami bo‘lib, u sayyoh va ekskursantlarning ehtiyojlarini ta’minlash va qondirishga qaratilgan, turizm maqsadlariga, turistik xizmatning xususiyatlariga va yo‘nalishiga mos keladi hamda umumiy insoniyat axloqi va tartib-qoidalariga zid bo‘lmaydi”[5].

Yuqorida keltirilgan mualliflar turizm xizmatlari ta'rifiga mustaqil yondashib berilgan barcha ta'riflar turlicha bo'lishiga qaramay, o'ziga xoslik va aniqliklar mavjud.

Tadqiqot metodologiyasi: Mazkur maqolada turizm xizmatlari sohasini rivojlantirishning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati tadqiq qilish asnosida tadqiqotning tahlil, sintez, iqtisodiy-tashkiliy usul, mantiqiy tahlil, induktiv, deduktiv va mantiqiy fikrlash kabi usullardan samarali foydalanilgan.

Tahlil va natijalar: Olimlarning fikr-mulohazalari va ilmiy izlanishlarini chuqur o'rganish natijasida tahliliy jihatlar ham samarali amalga oshiriladi, bu esa tadqiqot ishining dolzarbligi hamda natijadorligini oshiradi. Turizm xizmatlari ko'rsatishning mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi ahamiyati tobora ortib bormoqda. Ayniqsa, iqtisodiyotni erkinlashtirish davrida mamlakatimizda turizm xizmatlarning samaradorligini oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Turizm xizmatlarini tashkil qilishdagi qulaylik u yuqori darajadagi fan sig'imi yuqori bo'lgan texnologiyalarni talab qilmasligi, tadbirkorlik va kichik biznesni o'ziga tez singdirishi tufayli jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyati ortib bormoqda. Turizm sohasi ishlab chiqarayotgan xizmatlar insonlarning asosiy ehtiyojlaridan biri bo'lib, hozirgi texnika taraqqiyoti sharoitida, mehnat intensivligi natijasida vujudga keladigan his-hayajon va ruhiy salbiy ta'sirlarni kamaytirishda yordam bermoqda.

Hozirgi global iqtisodiy rivojlanish sharoitida turizm xizmatlari nafqat iqtisodiyotning muhim tarmog'i, balki ijtimoiy hayotning rivojlanishi uchun zarur bo'lgan muhim qismi. Uning jamiyat taraqqiyotidagi muhim ahamiyati real hayyotda namayon bo'lmoqda. Turizm xizmatlarining muhim ahamiyatini nafaqat qulay daromad manbai sifatida qarashimiz kerak, balki uning ijtimoiy-madaniy, ruhiy-siyosiy, gumanitar va ekologik ahamiyatlarini ham nazardan chetda qoldirmaslik kerak.

Turizm xizmatlari taklifi iqtisodiyotning moddiy ishlab chiqish sohalariga nisbatan tez tashkil qilinadigan va tez taraqqiy etadigan tarmoqdir, chunki turizm mamlakat uchun unchalik katta investisiya va vaqt talab qilmasdan rivojlanishi mumkin bo'lgan sohadir. Aksincha turizmning faoliyat yuritishi, boshqa ko'plab turistlarga xizmat ko'rsatuvchi korxonalarni rivojlantirishni taqozo qiladi. Shu tufayli ushbu soha bilan ko'pgina xizmat ko'rsatuvchi sohalar bir-biri bilan uzviy bog'liq va bir-biridan ajralmagan holda rivoj topadi.

Shuni ham qayd etish kerakki, keng ko'lamli turizm xizmatlari rivojlanishining mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga ta'siri nafaqat valyuta tushumlari, yangi ish o'rinlari yoki kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining rivojlanishi evaziga

byudjet tushumlarining ko‘payishi, balki ajdodlardan meros qolgan madaniyat va qadryatlar tiklanishining bosh omilidir.

Chunki hozirgi paytda xunarmandchilik, zargarlik mahsulotlari, qadriyat va an’analarimiz, urf-odatlarimiz, avloddan-avlodga o‘tib kelayotgan marosimlarimiz turistik resursga aylanmoqda va ko‘plab turistlarda qiziqish o‘yg‘otmoqda.

Turizm rivojlanishidagi hozirgi zamon tendentsiyalari uning ham jahon iqtisodiyotiga ham alohida mamlakatlar va mintaqalar iqtisodiyotiga ta’siri ortib borayotganligini ko‘rsatmoqda. Turizm aholining o‘ziga hos ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan faoliyatni amalga oshirib milliy iqtisodiyotning yirik mustaqil sohasiga aylanib bormoqda.

Turizm mehnat ko‘p talab qiladigan tarmoqlar safiga kiradi. Misol uchun, xorij tajribasidan ko‘rinib turibdiki, mehnatga layoqatli aholining 10 foizi atrofida bo‘lgan qismi turizm tarmog‘ida band. Ularning deyarli yarmi mexmonxonalarda mehnat faoliyatini olib boradilar. O‘rtacha xalqaro turizm sohasida 7 ta turistga 1 ta turistik xodim xizmat ko‘rsatadi.

Iqtisodiyotning boshqa tarmoqlariga (sanoat, qishloq xo‘jaligi) nisbatan turizmda yangi texnologiyalar, informatsion dasturlarni qo‘llash oqibatida keskin ravishda ishlovchilar soni kamayib ketmaydi. Holbuki, turizm xizmatlarining sifati ko‘p jihatdan xizmat ko‘rsatayotganlarning soniga bog‘liq. Shu sababli turizm boshqa ishlab chiqaruvchi tarmoqlarga nisbatan mehnat sig‘imi yuqoriligi bilan ajralib turadi. Mintaqada turizmni rivojlantirishga qaratilgan investitsion faollik yangi ish joylarini tashkil etish uchun katta imkoniyatlar yaratadi[3].

Turizmning rivojlanishi mamlakat iqtisodiyotidagi ko‘pgina yondosh sohalarning rivojlanishiga va aholi hayot darajasining sifat jihatdan yaxshilanishiga o‘z ta’sirini o‘tkazadi. Turizm **birinchidan,** kamxarajat evaziga kichik tadbirkorlik subyektlarini rivojlantirib, davlat byudjetini soliq va boshqa tushumlar orqali boyitadi; **ikkinchidan,** turizm iste’mol talabining yangi shakllarini yaratadi. Turistlarning turli xil tovar va xizmatlarga bo‘lgan talabi mahalliy sanoatning rivojlanishiga imkon beradi. Unga ko‘ra, iste’mol mollarini ishlab chiqarish hajmi o‘sadi; **uchinchidan,** turizm katta hajmdagi valyuta oqimini ta’minlaydi. Turistlar nafaqat turpaketlarni valyutada sotib olishadi, balki qo‘shimcha xizmatlar uchun ham valyuta sarflashadi; **to‘rtinchidan,** turistlar uchun infratuzilma yaxshilanadi. Bu obyektlardan nafaqat turistlar, balki mahalliy aholi ham foydalanadi; **beshinchidan,** turizm iqtisodiy xilma-xillikni ta’minlab, mamlakatning yagona ishlab chiqarishga qaramligini kamaytirish orqali iqtisodiy aktivlarini diversifikatsiya qilishga yordam beradi.

Turizmning milliy iqtisodiyotdagi ahamiyatini o‘rganishda ikkita muhim jihatiga e’tibor qaratish lozim: birinchidan, turizm murakkab ijtimoiy-iqtisodiy voqelik sifatida iqtisodiyotning deyarli barcha soha va tarmoqlariga, ularning holati va rivojlanish sur’atlariga bevosita va bilvosita, u yoki bu darajada ta’sir ko‘rsatadi. U asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarni shakllantirishning muhim omili bo‘lib xizmat qiladi, ularning dinamikasini belgilashda faol ishtirok etadi. Ikkinchidan, turizmning o‘zi milliy iqtisodiyotning mustaqil tarmog‘i va uning ajralmas tarkibiy qismi sifatida barcha tarmoq va sohalarning kuchli ta’siri ostida, ularning bevosita yordami vositasida amal qiladi va rivojlanadi, o‘z oldida turgan maqsad va murakkab vazifalarni bajaradi[4].

Turizm xizmatlari sohasi kelajakda iqtisodiy o‘sishga erishishning potensial omili, imkoniyati hisoblanar ekan, undan unumli foydalanilganda va yuqori darajada rivojlangan sohaga ko‘tarish orqali taraqqiyot manbaiga aylantirish mumkin bo‘ladi.

Turistik iste’molning o‘ziga xosligi shundaki, tovar iste’molchiga emas iste’molchi tovarga iste’molini amalga oshirish uchun keladi. Aynan iste’mol orqali turizm mamlakat yoki uning biror mintaqasi xo‘jalik faoliyatini rag‘batlantiradi. Mehmonxonalar, motellar, ovqatlanish korxonalari, transport korxonalari, sport inshootlari, madaniyat muassasalari daromadlarini oshiradi, maishiy xizmat ko‘rsatish, aloqa, avtoxizmatlar va boshqalarning rivojlanishini rag‘batlantiradi. Ushbu mintaqani reklama qiladigan mahalliy hunarmandlarning buyumlari, suvenirlarga talab oshib boradi.

Ixtisoslashgan va umumiy savdo korxonalarining tovar aylanmasi o‘sadi. Shunday qilib, turizm mahalliy infratuzilmani rivojlantiradi, yangi ish o‘rinlari yaratadi, mamlakatga valyuta tushumini faollashtiradi, davlat va mahalliy budjetga tushumlarni ta’minlaydi, xizmat ko‘rsatuvchi sohalarga, turistik faoliyatga ko‘maklashuvchi va hamrohlik qiluvchi faoliyat turlariga rag‘batlantiruvchi ta’sir ko‘rsatadi.

Shu sababli ham dunyoda turizm xizmatlari bozorining ahamiyati doimiy ravishda oshib bormoqda, bu turizmning alohida mamlakat iqtisodiyotiga ta’siri kuchayishi bilan bog‘liq. Demak, turizm xizmatlari rivojlanishi mamlakat uchun valyuta tushumlari manbai va aholi bandligini ta’minlash vositasi,· mamlakat to‘lov balansi va yalpi milliy mahsulotining muhim omili, · iqtisodiyotni diversifikatsiya qilishning zarur vositasi ekan.

Turizm xizmatlari sohasi kelajakda iqtisodiy o‘sishga erishishning potensial omili, imkoniyati hisoblanar ekan, undan unumli foydalanilganda va yuqori darajada rivojlangan sohaga ko‘tarish orqali taraqqiyot manbaiga aylantirish mumkin bo‘ladi.

Xulosa va takliflar. Zamonaviy xalqaro iqtisodiy munosabatlarni shakllantiruvchi omillar — ilmiy-texnik taraqqiyot, raqamli iqtisodiyot, xalqaro tashkilotlar, investitsiyalar va mehnat migratsiyasi — turizm xizmatlari sohasining jadal rivojlanishida ham muhim rol o‘ynaydi. Ushbu omillar turizmning global iqtisodiyotdagi o‘rnini mustahkamlaydi, mamlakatlar o‘rtasidagi iqtisodiy va madaniy hamkorlikni kengaytiradi hamda yangi imkoniyatlar yaratadi.Turizm sohasining shakllanishi va rivojlanishi uchun zamonaviy omillar, xususan, raqamli iqtisodiyotning kengayishi, global sarmoyalar oqimining oshishi, ekologik barqarorlik va ijtimoiy mas’uliyat masalalariga e’tibor qaratilishi nihoyatda zarurdir. Bugungi kunda raqamli texnologiyalar asosida onlayn bron tizimlari, virtual sayohatlar va raqamli to‘lov platformalarining rivojlanishi xalqaro turizm xizmatlarini yanada qulay va samarali shaklga keltirmoqda. Xalqaro savdo va investitsiyalar turizm infratuzilmasini modernizatsiya qilishda, yangi mehmonxonalar, transport va logistika tizimlarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shuningdek, ilmiy-texnik taraqqiyot sayyohlik sohasida innovatsion xizmatlar — “aqlli turizm”, ekologik turizm va madaniy merosni raqamlashtirish kabi yo‘nalishlarni rivojlantirishga xizmat qilmoqda. Xalqaro tashkilotlar, jumladan, Jahon turizm tashkiloti (UNWTO), Butunjahon savdo tashkiloti va boshqa iqtisodiy institutlar davlatlar o‘rtasida turizm siyosatini uyg‘unlashtirish, barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish hamda global turizm bozorida raqobatbardoshlikni ta’minlashda faol ishtirok etmoqda. Yuqorida keltirilgan xulosalardan kelib chiqib, quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:

- Turistik xizmatlar majmui turistik faoliyat subyektlarining joylashtirish, ovqatlantirish, transport, axborot-reklama, madaniy-maishiy xizmatlar ko‘rsatish borasidagi shuningdek, turistlarning ehtiyojlarini qondirish faoliyati bilan shug‘ullanuvchi turizm tashkilotining mahsulidan iborat bo‘ladi.
- Turizm xizmatlari ehtiyojlarning qondirilishiga muvofiq ikkiga moddiy-maishiy va ijtimoiy-madaniy xizmatlarga bo‘linadi. Moddiy-maishiy xizmatlar ko‘proq moddiy tavsifga, ijtimoiy-madaniy xizmatlar nomoddiy tavsifga ega bo‘ladi. Turizm xizmatlari iste’mol qilish nuqtayi nazaridan asosiy va qo‘shimcha xizmatlarga bo‘linadi. Asosiy xizmatlar turpaketga kiritiladi va puli oldindan to‘lanadi. Bunday xizmatlar tarkibiga ovqatlantirish, joylashtirish, tashish kabilar kiradi. Qo‘shimcha xizmatlarua sayohat davomida ehtiyoj paydo bo‘lishi mumkin. Bu kabi xizmatlar bevosita iste’mol jarayonida yuzaga keladi va bir-biridan farqlanadi.
- Turizm xizmatlar savdosi tovarlardan farq qilib, asosan ishlab chiqarish va iste’mol bir vaqtda yuz beradi, tovarga o‘xshab saqlab bo‘lmaydi yoki umumlashtirilib

boshqa odamga sotib yuborib bo‘lmaydi. Shuning uchun xizmat ko‘rsatuvchi bilan iste’molchi to‘g‘ridan-to‘g‘ri muloqotda bo‘ladilar.

• Turistik xizmatlarni buyurtma, yoxud mijoz borligida ko‘rsatish mumkinligi bois ularni xizmat ko‘rsatuvchidan ajratishning iloji yo‘q hamda iste’molchilarga ko‘pincha xizmatni taqdim etishning ajralmas qismi sifatida qaraladi.

Turistik xizmatlarning muhim xususiyati shundaki, ularni saqlab, qadoqlab, tashib bo‘lmaydi va ko‘rsatilayotgan xizmat bir vaqtning o‘zida iste’mol qilinadi. Ko‘rsatilayotgan xizmatlarning aksariyatini iste’mol qilgunga qadar o‘rganishning iloji yo‘q bo‘lib, ularning taklifi va iste’moli bir paytda ro‘y beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. O.T.Astanakulov. Turizm menejmenti. O‘quv qo‘llanma. -T.: “Lesson press MCHJ” nashriyoti. 2023, 46 b.

2. Sh.M. Mirziyoev Ulkan sayyohlik salohiyatining yorqin e’tirofi //Xalq so’zi

3. А.С. Кусков. Ю.А. Джаладян. Основы туризма : учебник. - М.: КНОРУС, 2008. – 316 с. (400 с.)

4. Л. В Стахова. Основы туризма : учебник для вузов. - М.: Издательство Юрайт, 2022. -8 с. (327)

5. Биржаков М.Б. Введение в туризм. Издание 9-е, переработанное и дополненное. – СПб.: «Издательский дом Герда», 2007.- 576 с.

6. G.R. Xidirova, F.M. Raxmatullayeva. Mintaqaviy turizm: o‘quv qo‘llanma -

7. Z.M. Muxammedova Turizmda investitsiyalar. Monografiya Samarqand.: “SamDCHTI” nashriyoti, 2021. - B 44.

Умирзокова Мухаббат Исматжон кизи — ассистент
Самаркандского института экономики и сервиса.

ТУРИЗМ КАК ДРАЙВЕР РАЗВИТИЯ: ПУТИ СИСТЕМНОЙ МОДЕРНИЗАЦИИ.

Аннотация: В данной статье раскрывается социально-экономическая значимость ускоренного развития сферы туристических услуг в условиях современной глобализации и конкурентной экономической среды. Индустрия туризма занимает важное место в увеличении валового внутреннего продукта страны, обеспечении занятости населения, развитии инфраструктуры и продвижении национальной культурыю.

Ключевые слова: туристические услуги, социально-экономическое развитие, занятость населения, инвестиции, инфраструктура, культурное наследие, экономический рост, региональное развитие.

Abstract: This article highlights the social and economic significance of the accelerated development of tourism services in the modern globalization and competitive economic environment. The tourism sector plays an important role in increasing the country's gross domestic product, providing employment, developing infrastructure and promoting national culture.

Key words: tourism services, socio-economic development, employment, investment, infrastructure, cultural heritage, economic growth, territorial development.

Введение. В XXI веке туризм, обладая многогранной структурой и развиваясь в синергии с многочисленными смежными отраслями, оказывает активное влияние на все сферы жизни общества. Развитие туризма формирует мощную индустрию, охватывающую транспорт, связь, средства размещения, предприятия общественного питания, коммунальное хозяйство, бытовое обслуживание, сервис и торговлю, что позволяет предоставлять туристам широкий спектр качественных услуг. Сфера туристических услуг является одной из самых высокодоходных и низкозатратных отраслей мировой экономики. Будучи мощным интеграционным сектором, она не только опережает темпы роста ВВП многих стран, но и демонстрирует устойчивое увеличение своей доли в международном экспорте услуг. Международный опыт подтверждает непрерывный рост роли туристических услуг. На сегодняшний день индустрия туризма превратилась в одну из крупнейших отраслей мирового хозяйства. За последние тридцать лет число туристов во всем мире увеличилось почти в 4 раза,

а доходы от туризма возросли более чем в 25 раз. Данный сектор является высокорентабельным и входит в тройку крупнейших экспортных отраслей, сопоставимых по эффективности инвестиций с нефтегазовой и автомобильной промышленностью, составляя соответственно 11% и 8,6% в мировом экспорте.[1]. Таким образом, по мере роста престижа туризма, его статус как драйвера мировой экономики продолжает укрепляться. Президент Республики Узбекистан Ш.М. Мирзиёев в своем выступлении на 25-й сессии Генеральной ассамблеи Всемирной туристской организации, касаясь влияния туризма на экономику, отметил: в нынешней сложной ситуации многие государства опираются на туристическую отрасль для восстановления своей экономики и решения актуальных социальных проблем. Глобальная конкуренция усиливается. И это неслучайно: все вы хорошо знаете, что каждый доллар, инвестированный в эту сферу, в будущем приносит 3-4 доллара дохода. А каждое новое создаваемое рабочее место позволяет создать еще 2 рабочих места в других отраслях. В этом смысле не будет преувеличением сказать, что туризм является важным фактором обеспечения общего благосостояния и устойчивого развития наших стран[2]. В связи с этим значимость мирового рынка туристических услуг неуклонно растет, что обусловлено усиливающимся влиянием туризма на экономику отдельных стран. Таким образом, развитие туристических услуг для государства является:

- источником валютных поступлений и средством обеспечения занятости населения;
- важным фактором платежного баланса и валового национального продукта;
- необходимым инструментом диверсификации экономики.

Анализ литературы по теме: Понятие «туристические услуги» является сложным и многогранным, и в экономической литературе, а также словарях последних лет его теоретические основы трактуются по-разному. В частности, если ранее преобладал взгляд на туристические услуги как на совокупность целенаправленных действий в сфере обслуживания, ориентированных на удовлетворение и обеспечение потребностей туристов, то с конца XX и начала XXI века основной акцент делается на представлении о туризме как об отрасли, обеспечивающей организацию путешествий и отдыха населения.

Например, российские ученые-экономисты А.С. Кусков и Ю.А. Джаладян в своем учебнике «Основы туризма» подчеркивают, что «услуга в туризме — это

основная часть и результат деятельности туристических компаний по созданию туристического продукта [3].

По мнению Л.В. Стаховой, туристические услуги как сегмент рынка представляют собой комплекс, интегрирующий различные отрасли — такие как общественное питание, транспорт, индустрия гостеприимства, торговля и культура, — которые совместно формируют единое предложение для потребителя.[4]. М.Б. Биржаков дает следующее определение понятию «туристическая услуга»: «Туристическая услуга — это совокупность целеориентированных действий в сфере обслуживания, которая направлена на обеспечение и удовлетворение потребностей туристов и экскурсантов, отвечает целям туризма, характеру и направленности туристической услуги и не противоречит общечеловеческим принципам морали и правопорядка[5]. Несмотря на разнообразие подходов вышеупомянутых авторов к определению туристических услуг, в каждой из приведенных трактовок прослеживается своя специфика и научная точность.

Методология исследовапия: В данной статье в процессе исследования социально-экономической значимости развития сферы туристических услуг были эффективно использованы такие методы, как анализ и синтез, экономико-организационный метод, логический анализ, а также методы индукции, дедукции и логического мышления.

Анализ и результаты: Эффективная реализация аналитических аспектов исследования достигается путем глубокого изучения мнений и научных изысканий ученых, что, в свою очередь, повышает актуальность и результативность научной работы. Значимость предоставления туристических услуг в социально-экономической жизни страны неуклонно возрастает. В частности, в период либерализации экономики в нашей стране особое внимание уделяется повышению эффективности туристических услуг.

Значимость туризма в развитии общества возрастает благодаря простоте организации туристических услуг, отсутствию потребности в наукоемких технологиях высокого уровня, а также способности сферы быстро адаптировать предпринимательство и малый бизнес. Услуги, создаваемые туристической отраслью, являются одной из базовых потребностей человека. В условиях современного технического прогресса они помогают снижать эмоциональное напряжение и негативные психологические последствия, возникающие в результате высокой интенсивности труда.

В условиях современного глобального экономического развития сфера туристических услуг является не только важной отраслью экономики, но и неотъемлемым компонентом социального прогресса. Его значимая роль в развитии общества находит свое отражение в реальной жизни. Важность туристических услуг следует рассматривать не только как удобный источник дохода, но и с учетом их социокультурного, психолого-политического, гуманитарного и экологического значения.

Предложение туристических услуг является более динамично формирующейся и быстроразвивающейся отраслью по сравнению с материальными сферами производства. Это обусловлено тем, что туризм способен развиваться без чрезмерно крупных первоначальных инвестиций и длительных временных затрат. Напротив, функционирование туризма стимулирует развитие множества других предприятий, обслуживающих туристов. Благодаря этому данная сфера развивается в неразрывной и тесной взаимосвязи с многочисленными отраслями услуг.

Следует также отметить, что влияние масштабного развития туристических услуг на социально-экономическую жизнь страны выражается не только в притоке иностранной валюты, создании новых рабочих мест или увеличении бюджетных поступлений за счет активизации малого бизнеса и частного предпринимательства. Прежде всего, туризм выступает ключевым фактором возрождения и сохранения культурного наследия и национальных ценностей, унаследованных от наших предков.

В настоящее время изделия ремесленничества и ювелирного искусства, наши ценности, традиции и обычаи, а также обряды, передаваемые из поколения в поколение, превращаются в ценный туристический ресурс и вызывают огромный интерес у множества зарубежных туристов.

Современные тенденции развития туризма свидетельствуют о его растущем влиянии как на мировую экономику, так и на экономику отдельных стран и регионов. Осуществляя деятельность, направленную на удовлетворение специфических потребностей населения, туризм постепенно трансформируется в крупную самостоятельную отрасль национальной экономики.

Туризм относится к числу трудоемких отраслей экономики. Как показывает зарубежный опыт, в этой сфере занято около 10% трудоспособного населения, при этом почти половина из них осуществляет трудовую деятельность в гостиничном секторе. В среднем в сфере международного туризма на каждых 7 туристов приходится 1 работник туристической отрасли.

В отличие от других отраслей экономики (промышленности, сельского хозяйства), внедрение новых технологий и информационных программ в туризме не приводит к резкому сокращению численности работников. При этом качество туристических услуг во многом зависит от количества обслуживающего персонала. По этой причине туризм отличается более высокой трудоемкостью по сравнению с другими производственными отраслями. Инвестиционная активность, направленная на развитие туризма в регионе, создает широкие возможности для организации новых рабочих мест [3].

Развитие туризма оказывает значительное влияние на рост многочисленных смежных отраслей экономики и качественное улучшение уровня жизни населения. Во-первых, туризм способствует развитию субъектов малого предпринимательства при относительно низких затратах, обогащая государственный бюджет за счет налоговых и иных поступлений. Во-вторых, туризм формирует новые формы потребительского спроса. Спрос туристов на различные товары и услуги стимулирует развитие местной промышленности, что ведет к росту объемов производства потребительских товаров. В-третьих, туризм обеспечивает значительный приток иностранной валюты. Туристы не только приобретают турпакеты за валюту, но и несут дополнительные расходы на сопутствующие услуги. В-четвертых, происходит улучшение инфраструктуры. Созданными объектами пользуются не только туристы, но и местное население. В-пятых, туризм способствует диверсификации экономических активов, обеспечивая экономическое разнообразие и снижая зависимость страны от моноотраслевого производства.

При изучении значимости туризма в национальной экономике необходимо обратить внимание на два ключевых аспекта: Во-первых, туризм как сложное социально-экономическое явление оказывает прямое и косвенное влияние практически на все сферы и отрасли экономики, на их состояние и темпы развития. Он служит важным фактором формирования основных макроэкономических показателей и принимает активное участие в определении их динамики. Во-вторых, сам туризм как самостоятельная отрасль и неотъемлемая часть национальной экономики функционирует и развивается под мощным воздействием и при непосредственном содействии всех других отраслей и сфер, реализуя поставленные перед ним стратегические цели и сложные задачи [4].

Поскольку сфера туристических услуг рассматривается как потенциальный фактор и возможность достижения экономического роста в

будущем, её эффективное использование и развитие до высокого уровня позволит превратить данную отрасль в мощный источник национального прогресса.

Специфика туристического потребления заключается в том, что не товар доставляется к потребителю, а потребитель сам направляется к товару для его потребления. Именно через этот процесс туризм стимулирует хозяйственную деятельность страны или её отдельных регионов. Он способствует росту доходов гостиниц, мотелей, предприятий общественного питания, транспортных компаний, спортивных сооружений и культурных учреждений, а также стимулирует развитие сферы бытовых услуг, связи, автосервиса и других отраслей. Одновременно возрастает спрос на изделия местных ремесленников и сувенирную продукцию, которая служит рекламой данного региона.

Растет товарооборот специализированных и общих торговых предприятий. Таким образом, туризм развивает местную инфраструктуру, создает новые рабочие места, активизирует приток иностранной валюты в страну, обеспечивает поступления в государственный и местные бюджеты, а также оказывает стимулирующее воздействие на сферы услуг, виды деятельности, способствующие и сопутствующие туристической деятельности.

Именно поэтому значимость мирового рынка туристических услуг неуклонно растет, что связано с усилением влияния туризма на экономику отдельных стран. Таким образом, развитие туристических услуг для страны является: источником валютных поступлений и средством обеспечения занятости населения; важным фактором платежного баланса и валового национального продукта; необходимым инструментом диверсификации экономики.

Поскольку сфера туристических услуг рассматривается как потенциальный фактор и возможность достижения экономического роста в будущем, её эффективное использование и развитие до высокого уровня позволит превратить данную отрасль в мощный источник национального прогресса.

Заключение и предложения. Факторы, формирующие современные международные экономические отношения — научно-технический прогресс, цифровая экономика, международные организации, инвестиции и трудовая миграция — играют важную роль в стремительном развитии сферы туристических услуг. Эти факторы укрепляют позиции туризма в глобальной экономике, расширяют экономическое и культурное сотрудничество между

странами и создают новые возможности. Для формирования и развития туристической отрасли крайне важно уделять внимание современным факторам, в частности, расширению цифровой экономики, увеличению потоков глобальных инвестиций, вопросам экологической устойчивости и социальной ответственности. Сегодня развитие систем онлайн-бронирования, виртуальных туров и платформ цифровых платежей на базе цифровых технологий делает международные туристические услуги более удобными и эффективными. Международная торговля и инвестиции имеют важное значение в модернизации туристической инфраструктуры, развитии новых отелей, транспортных и логистических систем. Также научно-технический прогресс способствует развитию инновационных услуг в сфере туризма, таких как «умный туризм», экологический туризм и оцифровка культурного наследия. Международные организации, включая Всемирную туристскую организацию (ЮНВТО), Всемирную торговую организацию и другие экономические институты, активно участвуют в гармонизации туристической политики между государствами, достижении целей устойчивого развития и обеспечении конкурентоспособности на мировом рынке туризма. Исходя из вышеизложенных выводов, можно выдвинуть следующие предложения:

•Комплекс туристических услуг состоит из продукта туристической организации, осуществляющей деятельность субъектов туризма по размещению, питанию, транспортировке, информационно-рекламному и культурно-бытовому обслуживанию, а также деятельность по удовлетворению потребностей туристов.

•Туристические услуги в соответствии с удовлетворением потребностей делятся на две категории: материально-бытовые и социально-культурные. Материально-бытовые услуги имеют преимущественно материальный характер, в то время как социально-культурные услуги носят нематериальный характер. С точки зрения потребления туристические услуги подразделяются на основные и дополнительные. Основные услуги включаются в турпакет и оплачиваются заранее. В состав таких услуг входят питание, размещение и транспортировка. Потребность в дополнительных услугах может возникнуть непосредственно во время путешествия. Такие услуги возникают в процессе потребления и отличаются друг от друга.

• Торговля туристическими услугами отличается от торговли товарами тем, что в основном производство и потребление происходят одновременно; услуги невозможно хранить, как товары, или обобщать и перепродавать другому

лицу. Поэтому поставщик услуг и потребитель находятся в прямом контакте друг с другом.

• Ввиду того, что туристические услуги могут быть оказаны только по заказу или в присутствии клиента, их невозможно отделить от исполнителя, и потребители зачастую рассматривают их как неотъемлемую часть процесса предоставления услуги.

Важной особенностью туристических услуг является то, что их невозможно хранить, упаковывать или транспортировать, а предоставляемая услуга потребляется одновременно с её оказанием. Большинство предоставляемых услуг невозможно изучить до момента их потребления, так как их предложение и потребление происходят в одно и то же время.

СПИПОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ:

1. O.T.Astanakulov. Turizm menejmenti. O‘quv qo‘llanma. -T.: “Lesson press MCHJ” nashriyoti. 2023, 46 b.

2. Sh.M. Mirziyoev Ulkan sayyohlik salohiyatining yorqin e’tirofi //Xalq so’zi

3. A.C. Кусков. Ю.А. Джаладян. Основы туризма : учебник. - М.: КНОРУС, 2008. – 316 с. (400 с.)

4. Л. В Стахова. Основы туризма : учебник для вузов. - М.: Издательство Юрайт, 2022. -8 с. (327)

5. Биржаков М.Б. Введение в туризм. Издание 9-е, переработанное и дополненное. – СПб.: «Издательский дом Герда», 2007.- 576 с.

6. G.R. Xidirova, F.M. Raxmatullayeva. Mintaqaviy turizm: o‘quv qo‘llanma -

7. Z.M. Muxammedova Turizmda investitsiyalar. Monografiya Samarqand.: “SamDCHTI” nashriyoti, 2021. - B 44.

Ernazarov Nuriddin Elamonovich,
SamISI. PhD, dotsenti,
D. N. Olimova
SamISI talabasi

DAVLAT BYUDJETI – DAVLATNING ASOSIY MOLIYAVIY REJASI SIFATIDA

Annotatsiya. Ushbu maqolada davlat byudjetining ahamiyati, vazifalari va tuzilishi tahlil qilinadi. Davlat byudjeti qanday qilib davlatning moliyaviy resurslarini rejalashtirishi va boshqarishi haqida ma’lumotlar beriladi, byudjetni tayyorlash jarayoni, kirimlar va xarajatlar strukturasidagi muhim jihatlar hamda davlat byudjetining iqtisodiy rivojlanishga ta'siri ko'rib chiqiladi. Shuningdek, davlat byudjeti bilan bog'liq muammolar, masalan, defitsit va korrupsiya masalalari hamda ularni hal qilish bo'yicha takliflar taqdim etiladi.

Kalit so‘zlar: Davlat byudjeti, moliyaviy reja, iqtisodiy barqarorlik, ijtimoiy xizmatlar, infratuzilma, byudjet jarayoni, byudjet defitsiti, korrupsiya, iqtisodiy rivojlanish, moliyaviy boshqaruv, resurslarni taqsimlash, davlat moliyasi, byudjet siyosati

Abstract. This article analyzes the importance, functions, and structure of the state budget. It provides information on how the state budget plans and manages the financial resources of the government. The article also examines the process of budget preparation, key aspects of the structure of revenues and expenditures, and the impact of the state budget on economic development. In addition, it discusses issues related to the state budget, such as the budget deficit and corruption, and presents proposals for solving these problems.

Keywords: State budget, financial plan, economic stability, social services, infrastructure, budget process, budget deficit, corruption, economic development, financial management, resource allocation, public finance, budget policy.

Kirish.

Davlat byudjeti har qanday davlatning iqtisodiy va moliyaviy tizimida muhim o‘rin egallaydi. U davlatning asosiy moliyaviy rejasi bo‘lib, mamlakatda yaratilgan milliy daromadning ma’lum qismini shakllantirish, taqsimlash va undan samarali foydalanishni ta’minlaydi. Davlat byudjeti orqali davlat o‘zining iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy vazifalarini amalga oshiradi hamda mamlakat taraqqiyotiga xizmat qiladigan muhim dasturlarni moliyalashtiradi. Davlat byudjeti nafaqat moliyaviy resurslarni yig‘ish vositasi, balki iqtisodiyotni tartibga solishning muhim mexanizmlaridan biri hisoblanadi. U orqali ta’lim, sog‘liqni saqlash, mudofaa, ijtimoiy himoya kabi sohalarni moliyalashtirish, infratuzilmani rivojlantirish hamda aholi farovonligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshiriladi. Shu sababli davlat byudjeti mamlakat iqtisodiy barqarorligini ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi. O‘zbekiston Respublikasida ham davlat byudjetini shakllantirish va uni

samarali boshqarish masalalariga alohida e’tibor qaratilmoqda. So‘nggi yillarda soliq-byudjet tizimini takomillashtirish, byudjet mablag‘laridan samarali foydalanish va moliyaviy intizomni mustahkamlash bo‘yicha bir qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu esa davlat moliyasini yanada barqaror qilish va iqtisodiy rivojlanishni ta’minlashga xizmat qilmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Davlat byudjetining iqtisodiy mohiyati, uning shakllanishi va davlatning asosiy moliyaviy rejasi sifatidagi o‘rni ko‘plab mahalliy hamda xorijiy iqtisodchi olimlar tomonidan ilmiy jihatdan o‘rganilgan. Ushbu mavzu bo‘yicha yozilgan ilmiy adabiyotlarda davlat byudjetining iqtisodiyotdagi ahamiyati, uning daromad va xarajatlarini shakllantirish mexanizmi hamda davlat moliyasini boshqarishdagi roli keng yoritilgan.

Iqtisodchi olim Sh.Sh.Shodmonov va U.V.G‘afurov o‘zlarining “Moliya” darsligida davlat byudjetini davlat moliya tizimining markaziy bo‘g‘ini sifatida ta’riflab, u orqali mamlakatda yaratilgan yalpi ichki mahsulotning ma’lum qismi qayta taqsimlanishini ta’kidlaydilar. Ularning fikricha, davlat byudjeti iqtisodiyotni tartibga solish va ijtimoiy sohalarni rivojlantirishda muhim moliyaviy vosita hisoblanadi [1].

Shuningdek, A.V.Vahobov va T.S.Malikov tomonidan yozilgan “Davlat moliyasi” darsligida davlat byudjeti davlatning asosiy moliyaviy rejasi sifatida qaraladi. Mualliflarning fikricha, byudjet orqali davlat iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish, ijtimoiy dasturlarni moliyalashtirish hamda mamlakatda makroiqtisodiy barqarorlikni ta’minlash imkoniyatiga ega bo‘ladi [2].

Bizning fikrimizcha, davlat byudjeti davlatning asosiy moliyaviy rejasi sifatida mamlakat iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli davlat byudjetini shakllantirish, uning daromad va xarajatlarini oqilona rejalashtirish hamda byudjet mablag‘laridan samarali foydalanish masalalarini chuqur o‘rganish dolzarb hisoblanadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur ishni tayyorlash jarayonida mavzuga oid ilmiy adabiyotlar, darsliklar, ilmiy maqolalar hamda normativ-huquqiy hujjatlar tizimli ravishda o‘rganildi va tahlil qilindi. Shuningdek, tadqiqot jarayonida tahlil va sintez, taqqoslash, umumlashtirish hamda tizimli yondashuv usullaridan foydalanildi. Ushbu metodlar yordamida davlat byudjetining daromadlari va xarajatlari, ularning iqtisodiyotdagi ahamiyati hamda byudjet tizimini takomillashtirish yo‘nalishlari o‘rganildi.

Tahlil va natijalar. 2025 yil uchun O‘zbekiston Respublikasi konsolidatsiyalashgan byudjetining jamlanma parametrlari va 2026–2027 yillar prognoz ko‘rsatkichlari tahlili davlat moliya tizimida barqaror o‘sish tendensiyasi mavjudligini ko‘rsatadi. Jadval ma’lumotlariga ko‘ra, konsolidatsiyalashgan byudjet daromadlari 2025 yilda 430 989,9 mlrd so‘m miqdorida prognoz qilingan bo‘lsa, 2026 yilda 496 453,9 mlrd so‘mga, 2027 yilga kelib esa 564 993,0 mlrd so‘mga yetishi rejalashtirilgan. Bu esa mamlakat iqtisodiyotida ishlab chiqarish hajmi oshib borayotgani hamda soliq tushumlari ko‘payib borayotganidan dalolat beradi.

Daromadlar tarkibida asosiy ulush davlat byudjeti daromadlariga to‘g‘ri keladi. 2025 yilda davlat byudjeti daromadlari 308 546,9 mlrd so‘mni tashkil etishi kutilayotgan bo‘lsa, 2026 yilda 353 767,3 mlrd so‘mga, 2027 yilda esa 406 065,5 mlrd so‘mga yetishi prognoz qilingan. Bundan tashqari, davlat maqsadli jamg‘armalari daromadlari ham sezilarli darajada oshib boradi. Ushbu ko‘rsatkich 2025 yilda 66 440,8 mlrd so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, 2026 yilda 81 759,1 mlrd so‘mga, 2027 yilda esa 94 099,7 mlrd so‘mga yetishi kutilmoqda. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasiga tushumlar hamda byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari jamg‘armalariga tushumlar ham yil sayin ortib borishi prognoz qilinmoqda. Bu esa davlat tomonidan iqtisodiy rivojlanish dasturlarini moliyalashtirish va turli ijtimoiy loyihalarni qo‘llab-quvvatlash uchun qo‘shimcha moliyaviy manbalar shakllanayotganini ko‘rsatadi. Konsolidatsiyalashgan byudjet xarajatlari ham daromadlar bilan bir qatorda o‘sish tendensiyasiga ega. 2025 yilda xarajatlar 480 496,5 mlrd so‘mni tashkil etishi kutilayotgan bo‘lsa, 2026 yilda 552 013,2 mlrd so‘mga, 2027 yilda esa 629 149,7 mlrd so‘mga yetishi rejalashtirilgan. Xarajatlarning asosiy qismi davlat byudjeti xarajatlariga to‘g‘ri keladi. 2025 yilda ular 290 417,5 mlrd so‘m, 2026 yilda 343 569,0 mlrd so‘m, 2027 yilda esa 400 183,9 mlrd so‘mni tashkil etishi prognoz qilingan. Bundan tashqari, davlat maqsadli jamg‘armalari xarajatlari, Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi mablag‘larining sarflanishi hamda tashqi qarz hisobidan davlat dasturlarini moliyalashtirish uchun ajratilayotgan mablag‘lar ham yildan-yilga ortib borishi kuzatiladi. Bu holat davlat tomonidan iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish, infratuzilmani modernizatsiya qilish hamda ijtimoiy dasturlarni amalga oshirishga katta e’tibor qaratilayotganini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, konsolidatsiyalashgan byudjetda ma’lum darajada defitsit mavjudligi ham kuzatiladi. 2025 yilda byudjet defitsiti 49 506,5 mlrd so‘mni tashkil etishi prognoz qilingan bo‘lsa, 2026 yilda 55 559,3 mlrd so‘mga, 2027 yilga kelib esa 64 156,8 mlrd so‘mga yetishi kutilmoqda. Bu esa davlat xarajatlari hajmi daromadlarga nisbatan tezroq oshib borayotganini anglatadi.Shuningdek, davlat qarzlarini so‘ndirish uchun ajratilayotgan mablag‘lar ham yildan-yilga ortib bormoqda. 2025 yilda bu ko‘rsatkich 46 083,9 mlrd so‘mni tashkil etsa, 2026 yilda 50 013,7 mlrd so‘mga, 2027 yilda esa 58 264,2 mlrd so‘mga yetishi rejalashtirilgan. Bu esa davlatning moliyaviy majburiyatlarini o‘z vaqtida bajarishga intilayotganini ko‘rsatadi.Yuqoridagi ma’lumotlar asosida shuni aytish mumkinki, O‘zbekiston Respublikasining konsolidatsiyalashgan byudjeti 2025–2027 yillar davomida barqaror rivojlanish tendensiyasiga ega. Byudjet daromadlarining ortib borishi mamlakat iqtisodiyotining kengayib borayotganidan dalolat beradi. Shu bilan birga, davlat xarajatlarining ko‘payishi ijtimoiy soha, infratuzilma va iqtisodiy rivojlanish dasturlariga katta e’tibor qaratilayotganini ko‘rsatadi.Biroq byudjet defitsitining mavjudligi davlat moliya siyosatini yanada samarali tashkil etishni talab qiladi. Kelgusida byudjet barqarorligini ta’minlash uchun daromad manbalarini kengaytirish, soliq tizimini takomillashtirish hamda davlat xarajatlarining samaradorligini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.Umuman olganda, prognoz

qilingan ko‘rsatkichlar mamlakat iqtisodiyotini barqaror rivojlantirish va davlat moliya tizimini mustahkamlashga xizmat qiladi.

1-жадвал

2025 йил учун Ўзбекистон Республикаси консолидациялашган бюджетининг жамланма параметрлари ҳамда 2026-2027 йил таҳлили[10]

млрд сўм

Т/р	Кўрсаткичлар	2025 йил учун прогноз	Бюджет мўлжаллари:	
			2026 йил	2027 йил
I.	**Консолидациялашган бюджет даромадлари**	**430 989,9**	**496 453,9**	**564 993,0**
1.	Давлат бюджети даромадлари	308 546,9	353 767,3	406 065,5
2.	Давлат мақсадли жамғармалари даромадлари*	66 440,8	81 759,1	94 099,7
3.	Ўзбекистон Республикаси Тикланиш ва тараққиёт жамғармасига тушумлар	22 249,4	24 474,3	26 187,5
4.	Бюджет ташкилотларининг бюджетдан ташқари жамғармаларига тушумлар	33 752,9	36 453,1	38 640,3
II.	**Консолидациялашган бюджет харажатлари**	**480 496,5**	**552 013,2**	**629 149,7**
1.	Давлат бюджети харажатлари*	290 417,5	343 569,0	400 183,9
2.	Давлат мақсадли жамғармалари харажатлари	117 192,0	129 491,8	143 270,5
3.	Ўзбекистон Республикаси Тикланиш ва тараққиёт жамғармаси маблағларининг сарфланиши	20 293,7	21 474,3	22 887,5
4.	Бюджет ташкилотларининг бюджетдан ташқари жамғармалари маблағларининг сарфланиши	33 752,9	36 453,1	38 640,3
5.	Ташқи қарз ҳисобидан давлат дастурларига харажатлар	18 840,4	21 025,0	24 167,5
III.	**Давлат мақсадли жамғармаларига трансфертлар**	**54 362,6**	**52 152,6**	**53 566,4**
IV.	**Давлат бюджетига трансфертлар**	**10 480,0**	**10 400,0**	**10 400,0**
V.	**Консолидациялашган бюджет сальдоси** *(профицит +, дефицит -)*	**-49 506,5**	**-55 559,3**	**-64 156,8**
VI.	**Давлат бюджети ва давлат мақсадли жамғармалари сальдоси** *(профицит +, дефицит -)*	**-32 621,8**	**-37 534,3**	**-43 289,3**
VII.	Давлат қарзларини сўндириш	46 083,9	50 013,7	58 264,2

Xulosa va takliflar. Davlat byudjeti mamlakat iqtisodiy siyosatining markaziy elementi bo‘lib, moliyaviy resurslarni samarali taqsimlash va ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashda muhim vosita hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, aksiz solig‘i davlat byudjeti daromadlarini ta’minlashda muhim fiskal instrument sifatida o‘zining samaradorligini namoyon qiladi.

Tabiiy gaz va yoqilg‘i mahsulotlaridan tushumlarning sezilarli darajada ortishi esa ichki iste’mol hajmining oshishi va narx siyosatidagi o‘zgarishlar bilan izohlanadi.

Shu bilan birga, polipropilen granulalari va ba’zi boshqa ishlab chiqarish sohalarida aksiz stavkalarining pasaytirilishi ishlab chiqaruvchilarga qo‘shimcha moliyaviy resurslar qoldirishga, investitsiya va texnologik modernizatsiya jarayonlarini rag‘batlantirishga yordam berdi. Aniq stavkalar amaliyotining joriy etilishi esa soliqdan bo‘yin tovlash holatlarini kamaytirib, hisob-kitoblarni soddalashtirdi.

Shunday qilib, aksiz solig‘i va boshqa byudjet daromadlari davlat byudjetining barqarorligini ta’minlash, iqtisodiy va ijtimoiy sohalarni moliyalashtirishda muhim rol o‘ynaydi. Yuqorida keltirilgan takliflarni amaliyotga joriy etish orqali byudjet tizimi samaradorligini oshirish va uzoq muddatli iqtisodiy rivojlanishga hissa qo‘shish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXAT:

1. O'zbekiston Respublikasining 2024 yil 24 dekabrdagi O'RQ-1014-sonli “Soliq va byudjet siyosatining 2025 yilga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlari bo'yicha qabul qilingan munosabatlari bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga qo'shimcha v
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 30 dekabrdagi O'RQ-742-sonli, 2020 yil 30 dekabrdagi O'RQ-657-sonli, 2022 yil 30 dekabrdagi O'RQ-812-sonli Qonunlari asosida tayyorlandi
3. Tegetaeva OR **Akssiz solig'ini isloh qilish**// Soliq boshqaruvi. – 2016 yil.
4. Borovko LV **Aqsiz solig'ining ijtimoiy yo'qotilgan modelini saqlab va uni rivojlantirish** // Iqtisodiyot va huquqiy amaliyot muammola

Ernazarov Nuriddin Elamonovich
SamISI “Moliya” kafedrasi dotsenti, PhD
Akramova Umida O’ktam qizi
SamISI “Bank-moliya xizmatlari”fakulteti talabasi

MOLIYAVIY SIYOSAT – MILLIY IQTISODIYOT MOLIYAVIY MUSTAHKAMLIGINING KALIT OMILI

Annotatsiya: Ushbu maqoladan ko’zlangan asosiy maqsad moliyaviy siyosatning mazmun mohiyati, tamoyillari, moliyaviy siyosatning turlari, moliyaviy siyosatning tarkibi to’g’risida ma’lumot taqdim etish, shu o’rinda ushbu siyosat turlari mamlakatning qay darajada moliyaviy barqarorlikka erishishiga yordam berishi mumkin ekanligini o’rganishdan iborat.

Kalit so’zlar: Moliyaviy siyosat, moliyaviy barqarorlik, pul-kredit siyosati, soliq siyosati,

Abstract: The main purpose of this article is to provide information about the essence and content of financial policy, its principles, types, and structure. At the same

time, the study examines how these types of policies can contribute to achieving a country's financial stability.

Keywords: financial policy, financial stability, monetary policy, tax policy.

KIRISH. Moliyaviy siyosat tushunchasiga to'xtalsak, moliyadan foydalanishning metodlari, uni tashkil qilishning amaliy shakllari va metodologik prinsiplarining majmuiga (yig'indisiga) moliyaviy siyosat deyiladi. Shuningdek, moliyaviy siyosat faqat o'z manfaatlarini ko'zda tutadigan hokimiyat organlarining u yoki bu maqsadlarga erishishning instrumenti emas, balki jamiyatning sotsial-iqtisodiy vazifalarni yechish vositasi hisoblanishi, barcha sub'yektlarning manfaatlarini hisobga olishi lozim hisoblanadi.

Dunyoning barcha mamlakatlarida moliyaviy siyosat moliya tizimi orqali amalga oshirilib, uning faoliyati moliya tizimi bo'g'inlarining o'ziga xos bo'lgan xususiyatlarini inobatga olib moliyaviy boshqaruvni amalga oshirish, barcha moliyaviy muassasalar funksiyalarining umumiyligini ta'minlash, barcha quyi boshqaruv organlarining faol ishtirokida markazdan umumiy boshqarish kabi prinsplar asosida quriladi

Moliyaviy siyosatni amalga oshirishning asosiy metodologik prinsiplari mavjud bo'lib, ularga pirovard maqsadga bog'liqlik, xo'jalik barcha tarmoqlarining makroiqtisodiy balanslashtirilganligi (muvozanatliligi, mutanosibligi), jamiyat barcha a'zolarining manfatlariga muvofiqligi (mos kelishi), real (haqiqiy) imkoniyatlar asosida ichki va tashqi iqtisodiy sharoitlarni hisobga olish misol bo'la oladi.

Moliyaviy siyosatning mazmuni u qamrab olishi mumkin bo'lgan moliyaviy munosabatlar rivojlanishi yo'nalishlarining umumiy kompleksi bilan belgilanadi hamda ular tarkibiga moliyaviy siyosatning umumiy konsepsiyasini (uning maqsadlarini, prinsiplarini, vazifalarini, amalga oshirish bosqichlarini va eng samarali metodlarini) ishlab chiqish, makrodarajada va bozor iqtisodiyotining sub'ektlari darajasida iqtisodiy o'sishni rag'batlantiradigan bozor iqtisodiyotining rivojlanishiga mos (adekvat) bo'lgan dinamik holdagi moliya mexanizmini shakllantirish, markazlashtirilgan va markazlashtirilmagan resurslar va moliyaviy oqimlarning samarali boshqarilishini oshirish bo'yicha choralar tizimini ishlab chiqish va amalga oshirish, ijtimoiy takror ishlab chiqarish va iqtisodiyotni istiqbolli restrukturizatsiya qishlishdagi roliga muvofiq ravishda sotsial iqtisodiy tizimning barcha darajalari va sohalari bo'yicha moliyaviy resurslarni oqilona (optimal) taqsimlashni tashkil qilish misol bo'la oladi.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, dunyoning barcha mamlakatlari moliyaviy siyosatni moliya tizimi orqali amalga oshirib uning faoliyatini moliya tizimi bo'g'inlarining o'ziga xos bo'lgan xususiyatlarini inobatga olgan holda moliyaviy boshqaruvni amalga oshirish, barcha moliyaviy muassasalar funksiyalarning umumiyligi, barcha quyi boshqaruv organlarining faol ishtirokida markazdan umumiy boshqarish kabi tamoyillarga asoslanadi.

Shuningdek, moliyaviy siyosat tarkibiga asosiy sakkizta yo'nalishni o'z ichiga qamrab oladi:

1. Byudjet siyosati
2. Soliq siyosati
3. Pul siyosati
4. Kredit siyosati
5. Baho siyosati
6. Investitsion siyosat
7. Sotsial-moliyaviy siyosat
8. Boj siyosati

Byudjet siyosati har bir mamlakat Konstitutsiyasi va byudjet jarayonida, qonun ijrochiligida hamda qonunlar majmuiga muvofiq shakllantiriladi, shuningdek byudjetda konsentratsiya qilinadigan yalpi ichki mahsulot hissasini aniqlashda, mamlakat yuqori va quyi organlarining o'zaro munosabatlarini samarali yo'lga qo'yishda yordam beradi.

Soliq siyosati moliyaviy siyosatning eng muhim qismi bo'lib, bir necha asrlar mobaynida davlat byudjetining asosiy manbaini soliqlardan kelgan tushumsiz tasavvvur qilib bo'lmaydi hamda soliq munosabatlari ya'ni soliqlarning undirilishi qat'iy o'sish tendensiyalariga egaligi, har doim oqilona soliq siyosati yuritilishi lozim ekanligi yo'qsa takror ishlab chiqarish jarayoni buzilishi natijasida iqtisodiy inqiroz yuzaga kelishi mumkinligi, agarda mamlakat tanazzulga yuz tutsa minimal soliqlar o'rnatishi va bu orqali mamlakat iqtisodiy mexanizmi ichki investitsion salohiyatini ishga solib, davlat byudjetini yanada barqararorlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Pul siyosati moliyaviy siyosatning tarkibiy qismi bo'lib, ushbu siyosatning asosiy g'oyasi muomaladagi pul miqdori me'yorida ishlab chiqarilshi lozim, pul miqdori tovar massasiga mos kelmasa pul massasida muvozanat buziladi, milliy valyuta qadrsizlanishi va inflatsiya sodir bo'ladi. Shuningdek, tovar massasi cheklanganda pul emissiyasi boshqa mamlakatlarning pul birligiga nisbatan milliy pul birligining qadrsizlanishiga olib keladi. Aynan, pul siyosati shu kabi muammolarga chek qo'yadi.

Navbatdagi moliyaviy siyosatning tarkibiy qismi kredit siyosati hisoblanib, uning namoyon bo'lishi mamlakatning krediti tizimi orqali amalga oshiriladi. Kredit tizimi ssuda kapitalining faoliyatini ta'minlaydi hamda bu holat takror ishlab chiqarish jarayonini amalga oshiradi, aylanma mablag'larni to'ldirish va investitsiyalarni qarzga olishni ta'minlaydi.

Baho siyosati monopol tovar va xizmatlar bahosi va ta'rifining korrektivka qilinishi bilan ifodalanib, yer, yerosti boyliklari, suv havzalari, temir yo'llar, elektr uzatish tarmoqlari, neft va gaz quvurlari kabi davlatning monopol egalarining bahosining o'sishi milliy xo'jalik barcha boshqa sektorlarida baholarning o'sishiga olib keladi hamda iqtisodiyotni tartibga solish uchun muhim omil hisoblanadi.

Investitsiya siyosatiga to'xtalsak, ushbu siyosat mamlakat iqtisodiyotining real sektoriga o'z va joriy investitsiyalarni jalb qilish uchun yaratish bo'yicha chora-tadbirlar majmuidir. Investitsiya siyosatining asosiy vazifasi mamlakat iqtisodiyotiga investorlar tomonidan moliyaviy resurslarni kiritish hisoblanadi.

Sotsial moliyaviy siyosat konstitutsiyaga muvofiq mamlakat aholisining

huquqlarini moliyaviy jihatdan ta’minlaydi. Hozirgi kunda bu siyosat pensiya siyosati, immigratsion siyosat aholi ayrim sotsial guruhlariga moliyaviy yordam ko’rsatish siyosati kabi tarmoqlarni o’z ichiga qamrab oladi hamda tarmoqlar rivojini ta’minlaydi.

So’nggi moliyaviy siyosat turi bu boj siyosati bo’lib, unda mamlakat ichki bozorini to’yintirish uchun importni qo’llab quvvatlashi, yoki jahon bozorida o’z o’rnini egallash uchun eksportni rag’batlantirishi mumkin. Shuni ta’kidlash joizki ushbu siyosat boomerang harakatga ega hamda barcha bojxona to’lovlari davlat byudjetiga ijobiy ta’sir ko’rsatadi.

O‘zbekistonda moliyaviy siyosat tarmoqlarini rivojlantirish va iqtisodiy barqarorlikni ta’minlash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Mamlakatda moliyaviy tizimni takomillashtirish, soliq va budjet siyosatini samarali tashkil etish, bank-moliya sektorini rivojlantirish hamda investitsiya muhitini yaxshilash maqsadida bir qator qonunlar, kodekslar va Prezident farmon hamda qarorlari qabul qilingan. Ushbu normativ-huquqiy hujjatlar mamlakat moliya tizimini tartibga solish bilan birga, iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashga xizmat qilmoqda.

Avvalo, moliyaviy siyosatning huquqiy asosini belgilovchi muhim hujjatlardan biri O‘zbekiston Respublikasining **Budjet kodeksi** hisoblanadi. Mazkur kodeks davlat budjeti tizimini shakllantirish, budjet daromadlari va xarajatlarini rejalashtirish hamda budjet jarayonining barcha bosqichlarini tartibga soladi. Budjet kodeksi davlat moliyaviy resurslaridan oqilona foydalanish, budjet intizomini mustahkamlash va moliyaviy nazoratni kuchaytirish orqali iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashga xizmat qiladi.

Moliyaviy siyosatning yana bir muhim yo‘nalishi soliq siyosati bo‘lib, uning huquqiy asosini O‘zbekiston Respublikasining **Soliq kodeksi** tashkil etadi. Ushbu kodeks soliq turlari, soliq stavkalari, soliq to‘lovchilarning huquq va majburiyatlari hamda soliq ma’murchiligini tartibga soladi. Soliq tizimini takomillashtirish orqali davlat budjeti daromadlarini oshirish, iqtisodiy faollikni rag‘batlantirish va tadbirkorlik muhitini yaxshilashga erishilmoqda.

Mamlakat moliya tizimining muhim bo‘g‘ini bo‘lgan bank tizimini rivojlantirish maqsadida ham bir qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilingan. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasining **“Markaziy bank to‘g‘risida”gi qonuni** hamda **“Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi qonuni** pul-kredit siyosatini yuritishning huquqiy asoslarini belgilaydi. Ushbu hujjatlar Markaziy bankning mustaqilligini ta’minlash, inflyatsiyani nazorat qilish hamda milliy valyuta barqarorligini mustahkamlashga xizmat qiladi. Markaziy bank va hukumat o‘zaro hamkorlikda pul-kredit va fiskal siyosatni uyg‘unlashtirish orqali moliyaviy barqarorlikni ta’minlash choralarini amalga oshiradi.

So‘nggi yillarda mamlakat moliyaviy siyosatini rivojlantirish maqsadida qabul qilingan muhim chora-tadbirlar qo’llanilib, Prezident tomonidan “2017-2021 yillarda O’zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo’nalishi bo’yicha harakatlar strategiyasi to’g’risida”gi Prezident farmoni, “Valyuta siyosatini liberallashtirish bo’yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to’g’risida” gi Prezident

farmoni, “2020-2025 yillarga mo’ljallangan O’zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish to’g’risida” gi Prezident farmoni, “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Prezident qarori, “Eksport faoliyatini moliyaviy qo‘llab-quvvatlashni yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Prezident farmoni, “Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlash davlat jamg‘armasini tashkil etish to‘g‘risida”gi Prezident qarori, “Respublikada bank plastik kartochkalari asosida naqd pulsiz hisob-kitob tizimini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Prezident qarori, “To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb etishni rag‘batlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Prezident qarori, “Fond bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Prezident qarori ishlab chiqilgan.

Ushbu qonunlar, farmon va qarorlar mamlakatda moliyaviy siyosatni izchil amalga oshirish, moliya tizimining samaradorligini oshirish hamda iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Davlat tomonidan amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijasida soliq tizimi takomillashtirilmoqda, budjet siyosati samaradorligi oshirilmoqda, bank tizimi modernizatsiya qilinmoqda hamda investitsiya muhitini yaxshilashga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda.

Xulosa va takliflar:

O‘zbekiston Respublikasida moliyaviy siyosat mamlakatning iqtisodiy barqarorligini ta’minlash va moliya tizimini samarali boshqarishning asosiy instrumenti hisoblanadi. Soliq, budjet, pul-kredit, investitsion, baho va boj siyosatining uyg‘un va izchil amalga oshirilishi iqtisodiy o‘sish, inflyatsiya va valyuta barqarorligini nazorat qilish, shuningdek, ijtimoiy himoyani kuchaytirishga xizmat qiladi. Qabul qilingan qonunlar, kodekslar va Prezident farmonlari moliyaviy tizimni mustahkamlash va mamlakat moliyaviy barqarorligini ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI

1. Романовского М.В., Врублевской О.Б., Сабанти Б.М. Финанси. – М.: Изд. Висшее образование ”, 2010 г. – 462 стр.
2. Маликов Т. ва бошалар. Молия: Тестлар ўқув қўлланма Тошкент, “ИҚТИСОД-МОЛИЯ”, 2013 й., 380 б.
3. Arthur J. Keown, John D. Martin, J. William Petty, Foundations of Finance, Global Edition, 8/E, Pearson, 2013
4. Pamela Peterson Drake, Frank J. Fabozzi, The Basics of Finance: An Introduction to Financial Markets, Business Finance, and Portfolio Management, 2010
5. Marcia Cornett, Troy Adair, Finance: Applications and Theory, 2014
6. Pamela Peterson Drake, Frank J. Fabozzi, The Basics of Finance: An Introduction to Financial Markets, Business Finance, and Portfolio Management, 2010
7. Marcia Cornett, Troy Adair, Finance: Applications and Theory, 2014

Умурзакова Ирода Аминжон кизи
PhD докторант Самаркандского
института экономики и сервиса

ВЛИЯНИЕ КЛИЕНТОРИЕНТИРОВАННЫХ МАРКЕТИНГОВЫХ СТРАТЕГИЙ НА КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТЬ ПРЕДПРИЯТИЙ

Аннотация: В современных условиях усиления конкуренции и динамичного развития рынков предприятиям необходимо применять эффективные маркетинговые стратегии для укрепления своих позиций. Одним из ключевых направлений развития является внедрение клиенториентированных маркетинговых стратегий, направленных на удовлетворение потребностей потребителей и формирование долгосрочных отношений с ними. Целью данной статьи является анализ влияния клиенториентированных маркетинговых стратегий на повышение конкурентоспособности предприятий. В статье рассмотрены теоретические основы клиенториентированности, проведён анализ научной литературы, а также выявлены основные преимущества внедрения клиенториентированных подходов в маркетинговой деятельности предприятий. Результаты исследования показывают, что ориентация на потребителя способствует повышению уровня лояльности клиентов, укреплению бренда и росту конкурентных преимуществ компании.

Ключевые слова: клиенториентированность, маркетинговая стратегия, конкурентоспособность предприятий, лояльность потребителей, маркетинг взаимоотношений, конкурентные преимущества, управление маркетингом.

Введение

Современная экономика характеризуется высокой степенью конкуренции, глобализацией рынков и быстрым развитием технологий. В таких условиях предприятия сталкиваются с необходимостью поиска новых способов укрепления своих конкурентных позиций. Одним из наиболее эффективных подходов становится применение клиенториентированных маркетинговых стратегий.

Клиенториентированность предполагает глубокое понимание потребностей клиентов, формирование долгосрочных отношений с ними и создание дополнительной ценности для потребителей. Предприятия, ориентированные на клиента, стремятся не только привлечь новых потребителей, но и удержать существующих, повышая уровень их удовлетворённости и лояльности.

Актуальность темы исследования обусловлена тем, что в современных

условиях именно потребитель становится центральным элементом маркетинговой деятельности предприятия. Компании, которые эффективно используют клиенториентированные стратегии, получают устойчивые конкурентные преимущества на рынке.

Целью данной статьи является исследование влияния клиенториентированных маркетинговых стратегий на повышение конкурентоспособности предприятий.

Анализ литературы

Проблематика клиенториентированности и её влияния на конкурентоспособность предприятий широко рассматривается в научной литературе. Значительный вклад в развитие маркетинговой теории внесли Ф. Котлер, К. Келлер, П. Друкер и Ж.-Ж. Ламбен.[11]

Ф. Котлер рассматривает маркетинг как процесс создания ценности для потребителя и построения взаимовыгодных отношений с клиентами. По его мнению, долгосрочный успех компании зависит от способности удовлетворять потребности клиентов лучше, чем конкуренты.

П. Друкер отмечал, что главная цель бизнеса заключается в создании и удержании клиента. Он подчеркивал, что деятельность компании должна быть ориентирована на потребителя, поскольку именно клиент определяет успех предприятия на рынке.

Ж.-Ж. Ламбен уделял особое внимание стратегическому маркетингу, рассматривая его как инструмент формирования устойчивых конкурентных преимуществ. В его работах отмечается, что эффективная маркетинговая стратегия должна учитывать потребности целевых сегментов рынка.

Современные исследователи также подчеркивают значимость маркетинга взаимоотношений (relationship marketing), который направлен на формирование долгосрочных и взаимовыгодных отношений между компанией и её клиентами. Данный подход позволяет повысить уровень доверия потребителей и укрепить рыночные позиции предприятия.

Анализ и результаты

[11] Котлер Ф., Келлер К. Маркетинг менеджмент. — М.: Питер, 2018.
Друкер П. Практика менеджмента. — М.: Вильямс, 2017.
Ламбен Ж.-Ж. Стратегический маркетинг. — СПб.: Наука, 2019.
Портер М. Конкурентная стратегия. — М.: Альпина Паблишер, 2016.

Клиенториентированная маркетинговая стратегия предполагает системное использование инструментов маркетинга для удовлетворения потребностей клиентов и повышения уровня их лояльности.

К основным элементам клиенториентированной стратегии относятся:

- изучение потребностей и поведения потребителей;
- сегментация рынка и выбор целевых сегментов;
- формирование ценностного предложения;
- развитие долгосрочных отношений с клиентами;
- использование современных цифровых технологий взаимодействия с потребителями.

Внедрение клиенториентированных стратегий позволяет предприятиям получить ряд преимуществ. Прежде всего, повышается уровень удовлетворенности клиентов, что способствует формированию их лояльности. Лояльные потребители чаще совершают повторные покупки и рекомендуют компанию другим клиентам.

Кроме того, клиенториентированность способствует улучшению имиджа и репутации компании. Предприятия, ориентированные на потребителя, формируют положительный бренд, что усиливает их конкурентные позиции на рынке.

Важную роль в реализации клиенториентированных стратегий играют цифровые технологии. Использование систем управления взаимоотношениями с клиентами (CRM), социальных сетей и цифровых каналов коммуникации позволяет компаниям более эффективно взаимодействовать с потребителями и анализировать их потребности.

Для более наглядного представления влияния клиенториентированных маркетинговых стратегий на конкурентоспособность предприятий целесообразно рассмотреть основные инструменты клиенториентированного маркетинга и их влияние на конкурентные преимущества компании.

Таблица 1

Влияние клиенториентированных маркетинговых инструментов на конкурентоспособность предприятий

Клиенториентированная стратегия	Основные маркетинговые инструменты	Влияние на конкурентоспособность
Изучение потребностей клиентов	маркетинговые исследования, анализ потребительского	повышение точности стратегических решений и создание продуктов,

	поведения, опросы и интервью	соответствующих потребностям рынка
Персонализация взаимодействия с клиентами	CRM-системы, базы данных клиентов, цифровой маркетинг	рост удовлетворенности клиентов и формирование долгосрочных отношений
Развитие маркетинга взаимоотношений	программы лояльности, сервисная поддержка, обратная связь	увеличение уровня лояльности и повторных покупок
Улучшение качества обслуживания	стандарты сервиса, обучение персонала, клиентская поддержка	укрепление репутации компании и повышение доверия потребителей
Использование цифровых каналов коммуникации	социальные сети, онлайн-платформы, email-маркетинг	расширение взаимодействия с клиентами и усиление рыночных позиций

Данные, представленные в таблице, демонстрируют взаимосвязь между применяемыми клиентоориентированными маркетинговыми стратегиями и уровнем конкурентоспособности предприятия.

Во-первых, систематическое изучение потребностей клиентов позволяет компаниям более точно определять направления развития продукции и услуг. Это снижает риск рыночных ошибок и повышает эффективность маркетинговых решений.

Во-вторых, персонализация взаимодействия с клиентами с использованием современных цифровых технологий способствует формированию индивидуального подхода к каждому потребителю. В результате повышается уровень удовлетворенности клиентов и укрепляется их доверие к компании.

В-третьих, развитие маркетинга взаимоотношений позволяет формировать долгосрочные связи между предприятием и потребителями. Программы лояльности и эффективная обратная связь стимулируют повторные покупки и повышают устойчивость компании на рынке.

Наконец, использование цифровых каналов коммуникации значительно расширяет возможности взаимодействия с клиентами и позволяет предприятиям быстрее реагировать на изменения потребительских предпочтений.

Таким образом, комплексное применение клиентоориентированных маркетинговых стратегий способствует формированию устойчивых конкурентных преимуществ предприятий и повышению их эффективности на современном рынке.

Выводы

Проведённое исследование показало, что клиентоориентированные маркетинговые стратегии играют важную роль в повышении

конкурентоспособности предприятий. Ориентация на потребности потребителей позволяет компаниям формировать долгосрочные отношения с клиентами, повышать уровень их удовлетворённости и лояльности.

В условиях усиления конкуренции предприятиям необходимо активно внедрять современные маркетинговые инструменты и технологии, направленные на развитие клиенториентированности. Это позволит не только улучшить качество обслуживания потребителей, но и укрепить конкурентные позиции компании на рынке.

Таким образом, клиенториентированная маркетинговая стратегия становится важным фактором повышения конкурентоспособности предприятий, поскольку позволяет формировать устойчивые конкурентные преимущества и укреплять позиции компании на рынке.

Список использованной литературы

1. Котлер Ф., Келлер К. Маркетинг менеджмент. — М.: Питер, 2018.
2. Друкер П. Практика менеджмента. — М.: Вильямс, 2017.
3. Ламбен Ж.-Ж. Стратегический маркетинг. — СПб.: Наука, 2019.
4. Портер М. Конкурентная стратегия. — М.: Альпина Паблишер, 2016.
5. Годин А.М. Маркетинг. — М.: Дашков и К, 2020.
6. Аакер Д. Стратегическое рыночное управление. — М.: Питер, 2019.
7. Кузнецов В.В. Современные маркетинговые стратегии предприятий. — М.: Экономика, 2021.
8. Суюнова К. Б., Хайитова Р. Д. ОСОБЕННОСТИ МАРКЕТИНГОВЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ НА МЕЖДУНАРОДНЫХ РЫНКАХ //Journal of marketing, business and management. – 2024. – Т. 3. – №. 7. – С. 98-102.

Anvar Nematovich Xoliqulov –
SamISI "Iqtisodiy tahlil va statistika"
kafedrasi mudiri,i.f.n., professor

MEHMONXONAGA OID TUSHUNCHALARNING NAZARIY JIHATDAN TURLI YONDOSHUVLAR TAHLILI

Annotatsiya: maqolada mehmonxonaga oida bir qancha tushunchalarning, jumladan mehmondo'stlik, mehmondo'stlik industriyasi, mehmonxona shuningdek ularning qisqacha tavsifi keltirilgan.

Kalit so'zlar: turizm, Mehmonxona xo'jaligi, turistik resurslar, mehmondo'stlik, mehmondo'stlik industriyasi, mehmonxona

Abstract: The article presents several concepts related to hotels, including hospitality, the hospitality industry, and the hotel itself, along with their brief descriptions.

Keywords: tourism, hotel management, tourist resources, hospitality, hospitality industry, hotel

Kirish. Mehmonxona xo'jaligi turizm sohasining tarkibiy qismi hisoblanadi. Shu sababli turizm rivojlanishi mehmonxonalar faoliyatining kengayishiga olib keladi. Jahon amaliyoti ko'rsatishicha, turizm umumiy iqtisodiy o'sishga, kam taraqqiy etgan hududlarning rivojlanishiga ko'maklashadi. Bunday hududlarda turistik markazlarni ochish ko'pgina davlatlarning iqtisodiyotini rivojlantirishning asosiy usuli hisoblanadi. Tog' va qishloq joylarida turistik markazlarning tashkil qilinishi shu joylarning o'zlashtirilishiga, aholi yashash darajasining yaxshilanishiga yordam beradi.

O'zbekistonda boy turistik resurslarga ega bo'lishiga qaramay, mavjud imkoniyatdan foydalanish darajasi talab qilingan holatdan ancha kam. Ushbu sohaning yana bir muhim jihati, qishloqda ortiqcha ish kuchini ish bilan ta'minlash masalasini ham hal qilishga ko'maklashuvchi muhim soha hisoblanadi. Chunki, xususiy tadbirkorlik uchun jazibador bo'lgan ko'pgina an'anaviy xizmat turlari shaharda ham qishloqda ham yetarli darajada rivojlangan emas. Ayniqsa, qishloq joylarda bu sohaning rivojlanishi uchun oxirgi paytlargacha hech qanday ta'sirchan choralar ko'rilmasdan kelindi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Biroq, ushbu masala iqtisodiy adabiyotlarda kam yoritilgan. Xususan, Yu.F.Volkov[12], M.Q.Pardaev, R.Atabaev[13], A.E.Saak, M.V.

[12] Волков Ю.Ф. Экономика гостиничного бизнеса : учебное пособие. Ростов н/ Д: Феникс, 2005.-380 с.
[13] Пардаев М.Қ., Атабаев Р., Пардаев Б.Р. Туризм соҳасини ривожлантириш имкониятлари. Рисола. Т.: 'Fan va texnoloqiya', 2007. – 28 б.-2,0 б.т.

Yakimenko[14], E.S.Fayziev[15], V.G.Fedsov[16], V.S.Bogolyubov, V.P.Orlovskaya[17] kabi olimlar mehmonxona biznesi va iqtisodiyotiga bag‘ishlab darsliklar, o‘quv qo‘llanma va boshqa o‘quv va ilmiy adabiyotlarni yozganlar. Ammo ushbu asarlarda mehmonxona xo‘jaligi samaradorligini ifodaloachi ko‘rsatkichlar bir tizimga keltirilgan holda ifoda etilmagan.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot jarayonida jamlash, guruhlash, induksiya va deduksiya, tahlil va sintez hamda iqtisodiy tahlilning an’anaviy usullari ko‘llanildi.

Tahlil va natijalar. Xizmat va servis sohasining rivojlanmaganligi aholining iste’mol xarajatlari tarkibiga ham ta’sir qiladi. Mamlakatimiz aholisining iste’mol xarajatlari tarkibida xizmatlarning ulushi bor-yo‘g‘i 15,4 foizni tashkil qiladi[18]. Vaholanki, ushbu ko‘rsatkichning miqdori rivojlangan mamlakatlarda 50-60 foizdan kam emas[19].

Keyingi yillarda ko‘pgina mamlakatlarda, xususan o‘zimizda ham shaharlarda yashovchilarning xordiq chiqarishi uchun dam olish kunlari qishloqlarga chiqishi odat tusiga kirib bormoqda. Bu shunga olib keldiki, qishloq aholisi turizm bilan bog‘liq ikkinchi ixtisoslikka ega bo‘lish va qishloqning xushmanzara joylarida turistik majmualarni qurib ishga tushirishni taqozo qiladi. Bu esa, o‘z navbatida qishloq aholisining turmush sharoitini yaxshilab olish imkonini yaratadi.

Turizm ko‘lamining kengayishi bilan xizmat ko‘rsatish korxonalarining, jumladan mehmonxonalarning soni ham oshib boraveradi. Bulardan tashqari turizmning rivojlanishi bilan bog‘liq sohaga yana ko‘plab korxonalar, xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar (ovqatlantirish shaxobchalari, transport, ko‘ngilochar ob’ektlar va b.) kiradi va ular turistik mavsum davomida faoliyat ko‘rsatadi. Ularning pul aylanmasi turistlar soniga qarab ortadi.

Turizm xizmat ko‘rsatish sohasiga tegishli bo‘lib, iqtisodiyotning tezlik bilan rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri hisoblanadi. O‘zbekistonda turizmning yuqori sur’atlar bilan o‘sishi, kata hajmdagi valyuta tushumlarini ta’minlash orqali iqtisodiyotga ijobiy ta’sir etib, mamlakat turizm industriyasining rivojlanishiga ham

[14] Саак А.Э., Якименко М.В. Менеджмент в индустрии гостеприимства. (гостиницы и рестораны). Учебное пособие.– СПб.: Питер, 2007. – 432 с. Саак А.Э., Якименко М.В. Менеджмент в индустрии гостеприимства. (гостиницы и рестораны). Учебное пособие. (очередные издания)– СПб.: Питер, 2008. – 432 с.

[15] Файзиев Э.С. Сервис соҳасининг иқтисодиётдаги ўрни. Рисола. Т.: ‘Fan va texnoloqiya’, 2007. – 16 б.-1,0 б.т. , Файзиев Э.С. Сервис тизими фаолияти асослари. Маъруза матни. Самарқанд, 2007. – 208 б.-13,0 б.т.

[16]Федцов В.Г. Культура гостиночно-туристичесского сервиса : учебное пособие. Ростов н/Д : Феникс, 2008.-503 с.

[17] Боголюбов В.С., Орловская В.П. Экономика туризма: Учебное пособие. 3-е изд.. М.: Издательский центр “Академия”, 2008. – 192 с.

[18] Социальное развитие и уровень жизни населения в Узбекистане 2004. Т.: Госкомстат Узбекистана. 2005.-72 бет.

[19] “Ўзбекистон Республикасида 2006-2010 йилларда хизмат кўрсатиш ва сервис соҳасини ривожлантиришни жадаллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги қарори 2006 йил 17 апрел. Халқ сўзи. 2006 йил 18 апрел.-1 бет.

imkon beradi. Chunki, turizm tarixiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, uning asosida mehmondo‘stlik yotadi. Bu insoniyatning azaliy odati bo‘lib kelgan va shunday bo‘lib qolmoqda. Oldin mehmonlar o‘z uyida, xonadonida kutib olingan. Hozir uning mazmuni o‘zgardi. Odatda odamlar bir necha kun, xafta, oy mobaynida uyidan uzoqda yashashiga to‘g‘ri keladi. Unga «begona» kishilarning qo‘llab-quvvatlashi va yordami kerak bo‘ladi. Bu esa mehmondo‘stlik orqali amalga oshiriladi.

O‘zbek tilining izohli lug‘atiga muvofiq mehmondo‘stlik «mehmondo‘stga xos xislat, xatti-harakat, mehmon kutishni o‘rniga qo‘yish» demakdir[20]. Hozirgi kunda mehmondo‘stlik bilan qilingan tashriflar ham kimningdir xonadonlarida emas, balki mehmonxonlarda tunash va dam olish bilan bog‘liq ravishda amalga oshirilmoqda. Shu tufayli mehmon-do‘stlik va turizm atamalarini iqtisodiy adabiyotlarda[21] bir-biri bilan bog‘liq holda qo‘llamoqdalar. Mamlakatimiz olimlari mehmondo‘stlik o‘rniga “mehmonnavozlik” iborasini ham ishlatmoqda[22]. Bulardan ham ko‘rinib turibdiki, mehmondo‘stlik tushunchasining tabiatini ochib berish turizmning nazariy masalalarini qarashda muhim ahamiyat kasb etadi. Buning uchun har bir tushunchaning ta’rifini ishlab chiqishni taqozo qiladi. Mehmondo‘stlik hozirgi paytda turizmda ko‘rsatiladigan xizmatlarning turi bo‘lib, ma’lum darajada tadbirkorlik alomatlariga ham ega. Uning shu mazmunidan kelib chiqib mehmondo‘stlikka quyidagicha ta’rif berishni maqsadga muvofiq, deb topdik. **Mehmondo‘stlik – bu mehmonlarni joylashtirish, ovqatlantirish, transportda tashish, ekskursiya qildirish, konferensiya o‘tkazish, ko‘ngilochar kabi xizmatlarni amalga oshirish bilan bog‘liq munosabatlar majmuidir.**

Mehmondo‘stlik turizmning bir qismi sifatida mazkur sohaning rivojlanishi uchun katta ahamiyatga ega. Shu tufayli mehmondo‘stlik industriyasini tashkil qilish ham sohaning barqaror rivojlanishini ta’minlaydi. Bularni inobatga olib mehmondo‘stlik industriyasining ham ta’rifini ishlab chiqishni maqsadga muvofiq, deb topildi. **Mehmondo‘stlik industriyasi deganda mehmondo‘stlikni amalga oshirish bilan bog‘liq xizmatlar bozorini shakllantirish va rivojlantirishga qaratilgan tadbirkorlik faoliyati tushuniladi.**

Turizmga oid adabiyotlarda «turizm va mehmondo‘stlik industriyasi» termini keng qo‘llanilib kelinmoqda[23]. Unda e’tirof etishilicha mehmondo‘stlik turizmga

[20] Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Ж. 2 Е-М
[21] Папирян Г.А. Менеджмент в индустрии гостоприимства (отелы и рестораны). М.: ОАО НПО: Изд-во “экономика”, 2000., Уокер Дж. Введение в гостоприимство: Учебник / пер. с англ. М.: ЮНИТИ, 1999., Основы управления предприятиями и организациями индустурии гостоприимства / Под ред.А.Браймера. – М., 1994. ва бошқалар.
[22] Маматкулов Х.М. Туризм ва сервисга оид изоҳли луғат. Самарқанд: СамИСИ, 2010. – 151 б.
[23] Туризм и гостиничное хозяйство. Учебник / Под ред. проф., д.э.н. А.Д. Чудновского. – М.: Ассоциация авторов и издателей «Тандем». Издательство ЭКМОС, 2001, – 400 с.

nisbatan kengroq va umumiy tushuncha deb qaralmoqda. Chunki, uning vazifasi nafaqat turistlarning ehtiyojlarini, balki barcha iste'molchilar ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan, deyilmoqda. Bizning fikrimizcha, turizm va mehmondo'stlikni ayri holda qarab bo'lmaydi. Shu tufayli mehmondo'stlik industriyasini ham alohida ko'rib chiqish mumkin emas, chunki turistlar ham sayohat maqsadiga bog'liq ravishda o'ziga xos ehtiyojlarga ega bo'lgan iste'molchilar hisoblanadi.

Mehmondo'stlik industriyasi tarixan turli mehmonxona korxonalari, ya'ni joylashtirish xizmatlari ko'rsatuvchi tarmoqlarda shakllangan. Umu-miy holda mehmonxona deganda tashrif buyuruvchilar uchun mebellar bilan jihozlangan, yashash uchun tayyor holga keltirilgan xonalardan iborat bino tushuniladi. Zamonaviy sharoitda mehmonxona fuqarolarga, shuningdek, alohida turistlar yoki maxsus guruhlarga mehmonxona xizmatlarini ko'rsatuvchi korxona hisoblanadi. Ammo bu tushuncha bo'yicha ham turli qarashlar mavjud. Ularni umumlashtirib, mehmonxonaga quyidagi ta'rifni berish maqsadga muvofiqdir.

Mehmonxona deganda mehmonlarning (turistlarning) vaqtincha yashashi, ya'ni dam olishi va ishlashi uchun zarur bo'lgan sharoitlar yaratilgan va talab qilinadigan qo'shimcha xizmatlarni ko'rsatishga mo'ljallangan maxsus xo'jalik tushuniladi. Bizning fikrimizcha, ushbu ta'rif mehmonxonaning mazmunini to'liq o'zida ifoda etadi.

Zamonaviy mehmonxona korxonasi iste'molchilarga nafaqat turar joy va ovqatlanish xizmatlari, balki transport, aloqa, ko'ngilochar ekskursiya xizmatlari, tibbiyot, sport, go'zallik salonlari kabi keng qamrovli xizmatlarni taklif etadi. Amalda mehmonxona korxonasi turizm va mehmondo'stlik industriyasi tarkibida asosiy funksiyalarni bajaradi, iste'molchilarga kompleks xususiyatlarga ega mehmonxona mahsulotini taklif etadi. Bu mahsulotning shakllanishi va sotilishida turizm va mehmondo'stlik industriyasining barcha sektorlari hamda elementlari ishtirok etadi. Shu nuqtai nazardan ishda mehmonxona biznesini turizm va mehmondo'stlik industriyasining tarkibiy qismi sifatida mustaqil ko'rib chiqishni maqsadga muvofiq, deb topdik. Shu bois ba'zi masalalar ma'lum darajada turizm va mehmondo'stlik industriyasi bilan uzviy aloqada o'rganildi.

Mehmondo'stlik industriyasi fan va texnika rivojlanishi natijasida insonlarga qulaylik yaratuvchi millionlab xodimlar faoliyat ko'rsatuvchi kuchli industriyaga aylandi. Mehmondo'stlik industriyasi inson kasbiy faoliyatining turli sohalarini birlashtiradi: turizm, mehmonxona va restoran biznesi, umumiy (ommaviy) ovqatlanish, dam olish va ko'ngilochar xizmatlar, anjumanlar va ko'rgazmalar tashkil

etish, sport, muzey, ko‘rgazma, ekskursiya faoliyati, shuningdek mehmondo‘stlik sohasidagi kasbiy yo‘nalishlarni o‘z ichiga oladi.

Turizm xizmat ko‘rsatish sohasiga tegishli bo‘lib, iqtisodiyotning jadal rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri bo‘lganligi tufayli mamlakatimizda ham uning yuqori sur’atlar bilan o‘sishi, kata hajmdagi valyuta tushumlarini ta’minlash orqali iqtisodiyotga ijobiy ta’sir etib, turizm industriyasining rivojlanishiga imkon yaratmoqda. Keyingi yillarda mehmonxona bozorida taklifning oshishi bilan bir paytda joylashtirish xizmatlariga bo‘lgan talabning pasayishi kuzatilmoqda. Bu holat raqobatning kuchayishiga olib keldi. Mehmonxona biznesida raqobatda ustunlikka erishishning asosiy yo‘nalishlaridan biri raqobatchilarga bo‘lgan yuqori sifatli xizmatlarni taklif etishdir.

Xulosa va takliflar. Turizm asosan, o‘z ichiga insonlarning ko‘ngil yozish, xordiq chiqarib dam olishga mo‘ljallangan hatti-harakatlarini oladi. Bundan tashqari, turizmga ish hamkorlari va uzoqdagi do‘st-qarindoshlar bilan uchrashish kabilar ham kirsada, bunday sayohatlar davomida ham ko‘ngilxushlik va xordiq yozishlardan voz kechilmaydi.

Turizm murakkab sotsial-iqtisodiy sistema sifatida turli vazifalarni bajaradi. Ularga: tanishtiruv, rekreatsion yoki sog‘lomlashtirish, siyosiy, iqtisodiy, tarbiyaviy yo‘nalishlarni kiritish mumkin. Sayohat orqali inson dunyoni taniydi, tajriba orttiradi, yangiliklar kashf etadi, o‘zining dunyoqarashini shakllantiradi va buning natijasida fan, madaniyat, san’atni rivojlantirib ijtimoiy rivojlanishning asosiy omillariga aylanadi. Sayohat orqali odamlar o‘zlarining sog‘liqlarini tiklaydilar, yangi ta’ssurotlar olib o‘zlarining fizik va psixologik holatlarini yaxshilaydilar. Turizm yordamida mamlakatlar tashqi iqtisodiy aloqalarni yo‘lga qo‘yadilar. Chunki tarixan turizm doimo tinchlik va do‘stlik timsoli sifatida mamlakatlarni o‘zaro bog‘lagan. Bularning barchasi millat madaniyatini kengaytirgan va o‘zaro tinch munosabatlarni o‘rnatgan.

Turizmning iqtisodiy vazifasi shuki, turizm bu mamlakatda ilg‘or tarmoq bo‘lib, turizm bilan hamkorlikda ishlayotgan ayrim iqtisodiy faoliyat turlarini rivojlanishiga yordam beradi. Turizmning tarbiyaviy yo‘nalishdagi vazifasi shundan iboratki, inson sayohat natijasida bilim va tajriba oladi, bundan tashqari chiniqadi, qiyinchiliklarni bartaraf etadi, mamlakatini sog‘inadi va qadrlaydi, boshqa millat dunyoqarashiga, urf-odatlariga hurmat bilan qaraydigan bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasining "Turizm to'g'risida"gi Qonuni. – O'RQ-539-son, 2019-yil 10-iyul.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida ichki

turizmni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4744-sonli Qarori. – 2020-yil 12-may.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Turizm sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5911-sonli Farmoni. – 2020-yil 6-yanvar.

4. Rasulov K.R. Turizm va mehmonxona biznesida raqamli transformatsiya. – Toshkent: Innovatsion rivojlanish nashriyoti, 2024. – 272 b.

5. Sayfullayev M.S. Mehmonxona xo'jaligini tashkil etish va boshqarish. – Toshkent: Moliya, 2020. – 368 b.

6. Tursunov A.A. Xizmat ko'rsatish sohasida mijozlarning kutishlari va qoniqishi. – Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2023. – 240 b.

7. Yusupov F.K. Mehmonxona biznesida inson resurslarini boshqarish. – Toshkent: Fan, 2021. – 296 b.

Xolmamatov Diyor Haqberdiyevich–
SamISI, professori, i.f.f.d.

LOGISTIKA MARKAZLARI INFRATUZILMASINI RIVOJLANTIRISHNING DOLZARB MASALALARI

Annotasiya: Mazkur maqolada logistika markazlari infratuzilmasini rivojlantirishning dolzarb masalalari, ularning milliy va xalqaro transport tizimidagi o‘rni hamda iqtisodiy rivojlanishga ta’siri o‘rganilgan. Maqolada logistika infratuzilmasining nazariy asoslari, xususan, logistika markazlarining ko‘p funksiyali tizim sifatidagi ahamiyati, transport-logistika jarayonlarini integratsiyalashdagi roli va ta’minot zanjiri samaradorligini oshirishdagi o‘rni yoritilgan. Shuningdek, maqolada logistika infratuzilmasini rivojlantirishda klaster yondashuvi, multimodal va intermodal tashuvlarni tashkil etish, xalqaro transport koridorlari bilan integratsiyalashuv masalalari ilmiy jihatdan asoslab berilgan.

Kalit so‘z: logistika markazlari, transport-kommunikatsiya tizimi, transport-logistika infratuzilmasi, ta’minot zanjiri, xalqaro transport koridorlari, logistika klasterlari, mintaqaviy logistika markazlari, xalqaro logistika tarmoqlari, multimodal va intermodal tashuvlar.

Abstract. This article examines the current issues in the development of logistics center infrastructure, their role in national and international transport systems, and their impact on economic development. The paper highlights the theoretical foundations of logistics infrastructure, particularly the importance of logistics centers as

multifunctional systems, their role in integrating transport and logistics processes, and improving supply chain efficiency. Furthermore, the study provides a scientific justification for the development of logistics infrastructure based on a cluster approach, the organization of multimodal and intermodal transportation, and integration with international transport corridors.

Keywords: logistics centers, transport and communication system, transport and logistics infrastructure, supply chain, international transport corridors, logistics clusters, regional logistics centers, international logistics networks, multimodal and intermodal transportation.

Kirish. Zamonaviy iqtisodiyotning innovatsion rivojlanish bosqichiga o‘tishi transport tizimini ijtimoiy-iqtisodiy o‘sishning strategik omillaridan biriga aylantirmoqda. Transport nafaqat hududlar o‘rtasidagi iqtisodiy aloqalarni ta’minlaydi, balki mamlakatning yagona iqtisodiy makon sifatida shakllanishida, ishlab chiqarish kuchlarini oqilona joylashtirishda hamda tabiiy va iqtisodiy resurslardan samarali foydalanishda muhim rol o‘ynaydi. Shu bilan birga, transport tizimining rivojlanishi tadbirkorlik faoliyatini kengaytirish, hududlararo va xalqaro savdo aloqalarini mustahkamlash hamda milliy iqtisodiyotning jahon xo‘jalik tizimiga integratsiyalashuvini jadallashtirishga xizmat qiladi.

Bugungi kunda global iqtisodiy makonda raqobat kuchayib borayotgan bir sharoitda transport-kommunikatsiya tizimlarining samaradorligi mamlakatning iqtisodiy barqarorligi va raqobatbardoshligini belgilovchi asosiy omillardan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Ayniqsa, turli transport turlari o‘rtasida uzviy hamkorlikni ta’minlash, yuk tashish jarayonlarini optimallashtirish hamda xalqaro transport yo‘laklari orqali tranzit salohiyatidan samarali foydalanish dolzarb masalaga aylanmoqda.

Mazkur vazifalarni samarali hal etish an’anaviy yondashuvlardan voz kechib, logistika tamoyillari va logistika menejmenti asosida yangi konseptual yondashuvlarni joriy etishni talab etadi. Xususan, transport-logistika infratuzilmasini ustuvor rivojlantirish, multimodal va intermodal tashuvlarni kengaytirish, shuningdek, hududiy, mintaqalararo va xalqaro darajada integratsiyalashgan logistika tizimlarini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu nuqtai nazardan, logistika markazlari infratuzilmasini rivojlantirish masalasi alohida dolzarblik kasb etadi. Chunki aynan logistika markazlari transport, ombor, axborot va moliyaviy oqimlarni yagona tizimda birlashtirib, ta’minot zanjirlarining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar tahlili. Logistika infratuzilmasini rivojlantirish masalalari so‘nggi

yillarda ko‘plab xorijiy va MDH mamlakatlari olimlari tomonidan keng o‘rganilmoqda. Xususan, transport-logistika tizimlarini takomillashtirish, xalqaro transport koridorlaridan samarali foydalanish hamda logistika markazlarini rivojlantirish masalalari ilmiy tadqiqotlarning muhim yo‘nalishiga aylangan.

V.V. Klimenko va T.A. Prokofyevalar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda logistika infratuzilmasini rivojlantirish milliy iqtisodiyotning tranzit salohiyatini ro‘yobga chiqarishda strategik omil sifatida baholanadi. Mualliflar logistika tizimlarini xalqaro transport koridorlari bilan uyg‘unlashtirish orqali hududlararo va xalqaro iqtisodiy aloqalarni kuchaytirish mumkinligini asoslab bergan. Ularning fikricha, transport-logistika infratuzilmasining rivojlanishi mamlakatning global iqtisodiy makondagi o‘rnini mustahkamlashga xizmat qiladi [4].

T.A. Prokofyeva tomonidan ilgari surilgan klaster yondashuvi logistika infratuzilmasini boshqarish va rivojlantirishda samarali mexanizm sifatida ko‘rib chiqiladi. Ushbu yondashuvga ko‘ra, logistika markazlari va transport tugunlarini yagona hududiy-iqtisodiy tizimga birlashtirish orqali sinergetik samaraga erishish mumkin. Ayniqsa, multimodal transport-logistika markazlarini loyihalashda klaster modelidan foydalanish transport, ombor va servis xizmatlarini integratsiyalashuvini ta’minlaydi [5].

S.M. Rezer, T.A. Prokofyeva va boshqa tadqiqotchilar tomonidan xalqaro transport koridorlarini shakllantirish va rivojlantirish muammolari chuqur tahlil qilingan. Ular logistika infratuzilmasining yetarli darajada rivojlanmaganligi, transport turlari o‘rtasidagi muvofiqlashtirishning sustligi hamda institutsional to‘siqlar mavjudligini asosiy muammolar sifatida ko‘rsatadi. Shu bilan birga, mazkur muammolarni hal etishda logistika tamoyillariga asoslangan integratsiyalashgan yondashuv zarurligi ta’kidlanadi [6].

Xalqaro ilmiy manbalarda ham logistika klasterlari konsepsiyasi alohida e’tibor markazida turadi. Jumladan, S.F. Kuhan logistika klasterlarining shakllanishi va rivojlanish istiqbollarini tahlil qilib, ularning hududiy iqtisodiy rivojlanishga ta’sirini asoslab beradi. Muallif logistika klasterlari transport infratuzilmasini rivojlantirish, investitsiyalarni jalb qilish va innovatsion faollikni oshirishda muhim vosita ekanligini qayd etadi [1].

E.F. Nikitskaya va hammualliflar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda infratuzilma omillarining innovatsion rivojlanishga ta’siri klaster tahlili asosida o‘rganilgan. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, rivojlangan logistika infratuzilmasi hududlarning innovatsion salohiyatini oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Bu esa logistika tizimlarini modernizatsiya qilish zaruratini yanada kuchaytiradi [2].

A.B. Volynchuk va I.A. Krylova tadqiqotlarida esa transport-logistika klasterlari periferik hududlarni rivojlantirish vositasi sifatida tahlil qilinadi. Mualliflar logistika klasterlari orqali iqtisodiy faollikni oshirish, yangi ish o‘rinlari yaratish hamda hududlararo tafovutlarni kamaytirish mumkinligini ilmiy asoslab bergan [3].

Umuman olganda, tahlil qilingan adabiyotlar logistika infratuzilmasini rivojlantirishda klaster yondashuvi, integratsiyalashgan logistika tizimlari va xalqaro transport koridorlari bilan uyg‘unlashuv asosiy ilmiy yo‘nalishlar ekanligini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, mavjud tadqiqotlarda logistika markazlari infratuzilmasini kompleks rivojlantirish, raqamlashtirish va hududiy optimallashtirish masalalari yanada chuqur o‘rganishni talab etadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada logistika markazlari infratuzilmasini rivojlantirishning dolzarb masalalarini o‘rganishda kompleks va tizimli yondashuvdan foydalanildi. Tadqiqotning metodologik asosini logistika nazariyasi, transport-logistika tizimlarini boshqarish konsepsiyalari hamda klaster yondashuvi tashkil etdi. Shu bilan birga, xalqaro transport koridorlari, multimodal tashuvlar va logistika infratuzilmasini rivojlantirish bo‘yicha xorijiy va MDH mamlakatlari olimlarining ilmiy ishlari nazariy manba sifatida xizmat qildi.

Tadqiqot jarayonida bir qator umumilmiy va maxsus usullardan foydalanildi. Xususan, tizimli tahlil usuli orqali logistika infratuzilmasining tarkibiy elementlari va ularning o‘zaro bog‘liqligi o‘rganildi. Taqqoslash usuli yordamida turli mamlakatlarda logistika markazlari rivojlanishining o‘ziga xos jihatlari tahlil qilindi. Shuningdek, tadqiqotda klaster yondashuvi alohida o‘rin tutdi. Ushbu yondashuv logistika markazlarini hududiy-iqtisodiy tizim sifatida ko‘rib chiqish, ularning transport, ombor, axborot va servis xizmatlari bilan integratsiyalashuv darajasini aniqlashda foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Logistika markazlari zamonaviy ta’minot zanjirlarining muhim bo‘g‘ini sifatida ko‘p funksiyali infratuzilmaviy majmualarni ifodalaydi. Ular nafaqat tovarlarni saqlash va qayta ishlash, balki transport-logistika operatsiyalarini muvofiqlashtirish, axborot oqimlarini boshqarish, bojxona rasmiylashtiruvi hamda yuklarni yetkazib berishning optimal yechimlarini ishlab chiqishni ham o‘z ichiga oladi. Shu jihatdan logistika markazlari turli xizmat ko‘rsatuvchi subyektlar integratsiyalashgan yagona tizim sifatida faoliyat yuritadi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, logistika markazlari infratuzilmasini rivojlantirish, avvalo, samarali transport tugunlari, zamonaviy ombor komplekslari va multimodal terminallar tarmog‘ini shakllantirish bilan bevosita bog‘liq. Bunday yondashuv ta’minot zanjirlarining uzluksizligini ta’minlash, transport xarajatlarini qisqartirish va yetkazib berish tezligini oshirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, hududlar kesimida logistika

markazlarini rivojlantirish iqtisodiy faollikni kuchaytirib, tovar aylanishi hajmini sezilarli darajada oshiradi.

Zamonaviy tendensiyalar logistika infratuzilmasini raqamlashtirish va avtomatlashtirish jarayonlari bilan chambarchas bog‘liq. Ombor operatsiyalarida raqamli boshqaruv tizimlari (WMS), transportni boshqarish tizimlari (TMS), real vaqt rejimida kuzatuv texnologiyalari joriy etilishi logistika xizmatlari samaradorligini oshirishga olib kelmoqda. Shu bilan birga, hududiy logistika xablariga investitsiyalar hajmining ortib borishi mintaqaviy va xalqaro savdo oqimlarini jadallashtirishga xizmat qilmoqda.

Logistika infratuzilmasining tarkibiy elementlari keng qamrovli bo‘lib, ularga transport obyektlari (avtomobil bazalari, temir yo‘l stansiyalari, aeroportlar), omborxona majmualari, yuk terminallari va konteyner maydonchalari kiradi. Bundan tashqari, logistika markazlari tarkibida moliyaviy va xizmat ko‘rsatuvchi institutlar – banklar, sug‘urta kompaniyalari, bojxona brokerlari, biznes markazlar, savdo va servis obyektlari faoliyat yuritishi mumkin. Bunday kompleks yondashuv mijozlarga xizmat ko‘rsatish sifatini oshirish, operatsion jarayonlarni soddalashtirish va vaqt tejamkorligini ta’minlaydi.

Natijalar shuni ko‘rsatadiki, rivojlangan logistika infratuzilmasi iqtisodiyotning boshqa tarmoqlariga multiplikativ ta’sir ko‘rsatadi. Xususan, u ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirishga, yangi biznes subyektlarining shakllanishiga hamda ichki va tashqi bozorlarda milliy mahsulotlar raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi. Shu bois logistika markazlari infratuzilmasini kompleks rivojlantirish nafaqat transport-logistika tizimining samaradorligini oshiradi, balki mamlakatning umumiy iqtisodiy o‘sishiga ham sezilarli hissa qo‘shadi.

imkonini beruvchi yoritish uskunalari bilan jihozlangan keng baland xona bilan ajralib turadi. Mijozlarni xursand qilish uchun **DJ (didjey)** taklif qilinadi, bu esa o‘z navbatida restoranga brend yaratishga imkoniyat beradi. Professional didjey (DJ) birinchi navbatda artistdir. Diskotekaga kelgan odamlar nafaqat raqsga tushishadi va musiqa tinglashadi, balki DJning iste’dodi va malakasiga to‘liq bog‘liq bo‘lgan spektaklni tomosha qilishadi. Amerikalik jurnalist va teleboshlovchi Uolter Vinchell bu atamani yulduzga aylangan birinchi ***DJ bo‘lgan radio boshlovchisi Martin Blokka*** nisbatan ishlatgan.

DJ odamlar bilan musiqa, yorug‘lik, imo-ishoralar, plastik va so‘zlar orqali muloqot qilishi kerak. Afsuski, so‘nggi davrda harakat raqqosalardan yopiq va o‘ralgan xonadan olib boriladigan joylar mavjud. Bunday restoranlarni yetarlicha ishonch bilan diskotekalar deb atash dargumon. Aksincha, ular zamonaviy zamonaviy nomga ega bo‘lgan raqs maydonchalari. Haqiqiy, juda mashhur diskotekalar har doim iste’dodli DJlarning ismlari, ularning g‘oyalari va yorug‘lik va musiqiy shou haqidagi ijodiy qarashlari bilan bog‘liq.

O‘zbekistonda ham DJ lar mavjud. Ularga ***DJ Trace, Roger Gunn, DJ Sam, DJ Niki va DJ Voyvov***larni keltirish mumkin.

DJ Trace (Oybek Jabborov)[24]. U House va Progressive house yo‘nalishlarida treklar yaratadi. 2019 yil may oyida britaniyalik musiqachi Tom Star bilan birgalikda trek yozgan. Trekning o‘ziga xos xususiyati – o‘zbek tanburi va elektron musiqa sadolari hisoblanadi. Uning musiqasi «Tomorrowland», «Medusa», «ADE», «Battered Bruised & Bloody Tour» festivallarida yangragan.

Roger Gunn (Sarvar Po‘latov) — musiqachi, didjey va musiqiy prodyuser. U House, Tech-House, Future va Progressive House yo‘nalishlarida treklar yozadi.

Po‘latov mashhur «Milliy TV» ko‘ngilochar telekanalining musiqiy prodyuseri hisoblanadi.

Roger Gunn’ning mualliflik treklari va remikslari «Revealed» va «EnormousTunes» xalqaro leybllarida chiqarilgan. Ular Benny Benassi, Don Diablo, Afrojack, Blasterjaxx, Hardwell, Mr. White, Thomas Gold va shu kabi dunyodagi eng mashhur didjeylar tomonidan ijro etiladi.

So‘nggi paytlarda u yanada mashhurlikka erisha boshladi. Uning Chimyon tog‘lari fonida, poytaxtdagi teleminorada va Buxorodagi Minorai Kalonda olingan kliplari juda mashhur. Shu tariqa, musiqa yordamida u O‘zbekistonning sayyohlik joylariga e’tiborni jalb qiladi.

[24] https://bugun.uz/2021/05/17/toshkentda-mashhur-djlar-ishtirokida-yoshlar-uchun-kecha-tashkil-etiladi/

DJ Sam (Safarjon Mirzaev) — mamlakatdagi eng yaxshi didjeylardan biri. Club house, Electro House, Progressive House, RnB va Trap uslubida ijro etadi [3].

2013 yilda u «Lounge Bar Gorod»dagi «DJ`s Battle Tashkent»da sovrindor bo‘lgan va 2016 yilda poytaxtning eng yaxshi 10 DJ’lari orasida 1-o‘rinni egallagan. Toshkentda «Black Star inc.» leybli a’zolari, MC Doni, DJ Philchansky, L’One , Natan va Skrudji bilan hamkorlik qilgan.

Shuningdek, **konsert o‘tkazuvchi maydonli restoranlar mavjud**. Bu turli xil janrlarning navbatma-navbat ijro etuvchi artistlarning chiqishlari olib boriladi. Bunda artistlar, dekoratsiyalar, fonogrammalar, yoritish uskunalari va turli xil maxsus yordamchi xonalarni tezda o‘zgartirishni talab qiladi.

Konsert o‘tkaziladigan restoranda ovozli va yorug‘lik operatori uchun joy ajratish kerak. Va agar raqs restoranida ovoz va yorug‘likni boshqarish ba’zan raqs zalidan tashqarida joylashgan bir kishi tomonidan birlashtirilsa, u holda konsert o‘tkaziladigan joy yuqori malakali mutaxassislarni talab qiladi, ular u yerda nima bo‘layotganini doimiy ravishda kuzatib borishlari kerak.

Ovoz muhandisi ham, yorug‘lik operatori ham birinchi qarashda hech qanday foyda keltirmaydi. Va ko‘pincha restoran egalari ularni zaldan tashqariga joylashtiradilar va shu bilan restoran stollari uchun qo‘shimcha joy bo‘shatadilar. Bu yondashuv deyarli to‘g‘ri emas. Axir, hatto eng qimmat uskunalar bilan ham, mutaxassisga nima bo‘layotganini tushunish qiyin bo‘lsa, Siz yomon ovoz va yorug‘likni olishingiz mumkin [4, 5].

Ovoz muhandisi va yorug‘lik operatori uchun ideal joy zalning o‘rtasida – operatorning sodir bo‘layotgan voqealarni idrok yetishi ko‘pchilik tomoshabinlarning idrokiga imkon qadar yaqin bo‘lgan joy hisoblanadi. Restoran egasi shuni tushunishi kerakki, hatto juda tajribali mutaxassislar ham zal va muhitga moslashish uchun biroz, ba’zan esa ancha vaqt kerak bo‘ladi. Va bu vaqt ichida, albatta, nomuvofiqliklar bo‘ladi, masalan: chastota muammolari, yetarli yoki ortiqcha ovoz darajasi va boshqalar. Ammo, yangi ochilgan muassasa haqidagi fikr aynan uning faoliyatining dastlabki olti oyida shakllanadi.

Xulosa. Demak, xulosa qilib aytish mumkinki, universal restoran turlarini ko‘proq tashkil qilish kerak bo‘ladi. Diskotekaga moslashtirilgan restoranda “jonli” musiqachilarning chiqishlarini o‘tkazish yoki murakkab rang-barang konsert dasturini tashkil qilib bo‘lmaydi. Odatda, diskotekalar jonli musiqa yangraydigan restoranda o‘tkazilmaydi. Ammo, hozirda bu muammoni hal qilish mumkin. Tabiiyki, bunday loyihalar juda jiddiy investitsiyalarni talab qiladi. O‘z mijozlariga sahna va raqs maydonlarini tanlash huquqini beradigan restoranlar katta foyda keltiradi. Bunday

muassasada o‘tkazgan har bir kecha avvalgisidan mutlaqo farq qiladi. Mehmonlar restoranga nafaqat ovqatlanish uchun, balki keyingi harakatga – diskoteka, “jonli” ijro yoki konsert dasturiga kirish uchun ham tashrif buyurishadi.

Shuning uchun ham restoranlarda iste’molchilar ovqatlanishida kayfiyatini ko‘tarish uchun musiqiy o‘yin-kulgi sahnalarini ham tashkil qilish va ularni qo‘llab-quvvatlash lozimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Z.E.Mamarasulov. Mehmondo‘stlik industriyasi. O‘quv qo‘llanma / Samarqand iqtisodiyot va servis instituti - Samarqand.: “STEP-SEL” MChJ nashriyoti, 2024 y. – 320 bet.

2. T.Xudayshukurov, I.Shukurov, Z.E.Mamarasulov, D.Mirzaaxmadov. Kasbiy etika va etiket. Darslik. T.: “Iqtisod-moliya”, 2021 y.-224 b.

3. Атикеева С.Н. и др. Основы индустрия гостеприимства: учебное пособие. – Нур-Султан: Университет “Туран-Астана”, 2021. – 149.

4. Каримова Ш.М. Организация питания населения и туристов. Учебное пособие – Самарканд.: ООО “СТЕП-СЕЛ”, 2023 г. – 315 стр.

5. Корпоративный имидж: технологии формирования для максимального роста бизнеса/ А. В. Ульяновский. – Изд. 2-е дораб.: Эксмо; Москва; 2008.

Mamarasulov, Zakirjon Erkinovich
SamISI “Servis” kafedrasi dotsent v.b.

Ovqatlanish korxonalarida shou dasturlarning muhim jihatlarini tashkil etish talablari

Annotatsiya. Tadqiqot ishda ovqatlanish korxonalaridan biri bo‘lgan restoran va kafelarda turli shou dasturlarni tashkil qilish va ularni qanday tartib olib borish hamda ayrim shou dasturlarni turlarini tatbiq etishdan iborat bo‘ldi.

Kalit so‘zlar. Restoran, kafe**,** “marketing”, “reklama”, “kreativ”, shou dastur, “event”, Trade events, Corporate events, Special events.

Abstract. The research involved organising various show programmes in restaurants and cafés, one of the food service enterprises, determining how to conduct them, and implementing certain types of show programmes.

Keywords: restaurant, café, marketing, advertising, creative, show programme, event, trade events, corporate events, special events.

Kirish. So‘nggi yillarda ovqatlanish korxonalarining turlari yildan-yilga kengayib bormoqda, shu bilan birga maxsus ovqatlanish korxonalari ham tashkil etilmoqda. Bu esa aholi va turistlarning ovqatlanishiga bo‘lgan talabning oshishidir.

Shuningdek, ovqatlanish korxonalaridan biri bo‘lgan restoranlar oziq-ovqat sanoatining ajralmas qismi bo‘lib, mijozlar va turistlarga xizmat ko‘rsatish jarayonida muhim rol o‘ynaydi. Mijozlar so‘rovlarining kengayishi tufayli restoranlar bir qator o‘ziga xos xususiyatlarga ega.

Natijada restoran va kafelarda mijozlarning yaxshi dam olishi va kayfiyatining ko‘tarilishida turli shou dasturlarning tashkil etilishiga ehtiyoj tug‘ilmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi. Ilmiy izlanishni olib borishda ilmiy-tadqiqot yo‘nalishlaridan, kuzatib o‘rganishlar, tahlil qilish va sifat ko‘rsatkichlaridan foydalanilgan holda amalga oshirildi.

Tahlil va natijalar. Avvalo, restoran biznesiga alohida e’tibor qaratish kerak bo‘ladi. Shuboisdan “marketing”, “reklama”, “kreativ” atamalariga katta e’tibor qaratishni talab etadi va bular esa har qanday biznesda, shu jumladan restoranda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Eng so‘nggi biznesni tuzish sxemalari va rejalari uning ko‘lami yoki turiga bog‘liq emas. Restoran biznesida bu tushunchalar ancha vaqtdan beri qo‘llanilib kelinmoqda. Buning sababi shundaki, bugungi kunda mahalliy restoran biznesidagi ko‘plab marketing va reklama texnologiyalari Yevropa modeliga to‘liq moslashtirilmagan. Ushbu texnologiyalardan biri turli shou dasturlarni o‘tkazishdir. *Shou dasturi,* restoran egalari nuqtai nazaridan, reklama texnologiyasi va aqlli marketing rejasi deb qaraladi.

Shou dasturi har qanday bayramning asosiy komponenti bo‘lib, uning go‘zalligi va tantanaliligi hisoblanadi. Ko‘ngilochar dasturni tashkil qilgan kishi o‘zini va boshqalarni ijrochi artistlarning unutilmas tajribasini taqdim etadi.

Shou dasturi rasmiy qismdan iborat bo‘lib, keyinchalik ko‘ngilochar dasturga aylanadi. Turli janrdagi artistlar, musiqachilar, estrada, raqs guruhlari, fokuschilar ishtirok etishi mumkin bo‘lgan shou-dastur ssenariy bo‘yicha olib boriladi.

Har qanday shou dasturining formati har xil va nostandart bo‘lishi mumkin. Hammasi quyidagi omillarga bog‘liq:

1) muassasa maydoni;

2) dasturga ajratilgan mablag‘lar;

3) artistlarning mahorat darajasi;

4) ijodiy jamoaning harakatlarini kuzatadigan va muvofiqlashtiradigan badiiy direktorning tasavvuri va kreativligi.

Shou dasturini tanlashda joyning kattaligi asosiy element hisoblanadi. Bu nafaqat korxonadagi o‘rindiqlar soni, uning maydoni va joylashuvi, balki uning auditoriyasi, ya’ni bar, restoran yoki kafe bo‘ladimi, ushbu korxonalarga tashrif buyuradigan odamlar haqida ham o‘ylashni talab etadi.

Turli korxonalardagi ko‘ngilochar shoular mijozlarni o‘ziga jalb qiladi va shu bilan korxonaning mashhurligi va daromadini oshiradi.

Bugungi kunda ovqatlanish korxonalari ko‘ngilochar dasturlar juda keng tarqalgan, chunki ushbu mahsulotning ko‘plab iste’molchilari mavjud. Agar maqsadli auditoriya haqida gapiradigan bo‘lsak, asosiy massa rivojlanayotgan o‘rta yoshdagi o‘rta sinf va VIP sektor deb ataladi. Media-guruh vakillarini alohida sektorda ajratib ko‘rsatish mumkin, chunki bugungi kunda turli xil taqdimotlar, seminarlar, konferensiyalar o‘tkazish ko‘pincha shou dasturlari bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan ko‘ngilochar joylarda o‘yin formatiga “bog‘langan”.

Shou dasturini yaratishda asosiy o‘rinni marketing ishlari tashkil etadi. Shuning uchun marketing strategiyasi quyidagi asosiy elementlardan iborat:

1) ommaviy axborot vositalarida ommaviy reklama;

2) tadbirlarda ishtirok etish va tashkil etish;

3) homiylik;

4) PR qo‘llab-quvvatlash va hokazolar.

Har kuni raqobatdosh korxonalar mijozlarni jalb qilish uchun yangi, g‘ayrioddiy g‘oyalarni taklif qilishadi va iste’molchilar, o‘z navbatida, ko‘proq va ularning imtiyozlarni ko‘proq qayd qilib bormoqda. Har bir restoran bunday tadbirlarni o‘tkazishda ko‘pchilik mijozlarning e’tiborini jalb qiladigan strategiyani ishlab chiqishi kerak.

Zamonaviy jamiyatni ikkita asosiy pozitsiyada – ommaviy ishlab chiqarish va ommaviy iste’molda ko‘rish mumkin. Mahsulotlar o‘z mijozlarini topishi uchun ishlab chiqaruvchilar ommaviy reklamadan foydalanadilar. Ammo bu turdagi ma’lumotlar keng tarqalishi tufayli iste’molchi tomonidan yomon qabul qilinadi.

Aksariyat muassasalar ommaviy reklamadan foydalanib, o‘z mijozlarini yo‘qotib qo‘yish xavfini tug‘diradi, chunki katta axborot oqimidagi potensial mijoz matbuot, radio va televidenieda eshitiladigan reklama xabarlariga aylanadigan bunday xabarlarni eshitmasligi mumkin.

Reklama xabarlarining axborot oqimining katta hajmiga yetgan yuqori raqobatbardosh iste’molchilar jamiyatida mahsulotni samarali va arzon reklama qilish uchun yangi marketing strategiyasi zarur. Ushbu strategiyada asosiy element mijozlarga yo‘naltirilganlikdir.

Ushbu konsepsiya mijozni cheksiz reklama bilan bezovta qilmaslik, uni sotuvchi uchun foydali bo‘lgan ma’lum bir mahsulot yoki xizmatni iste’mol qilishga majburlashga urinish vazifasiga asoslangan. Mijozga xayoliy erkinlik hissi berilishi kerak.

Reklama va mahsulotni ilgari surishning boshqa usullari bayram-tadbiri – “event marketing” marketingiga aylantiriladi. Ingliz tilida “ event” so‘zi “voqea” degan ma’noni anglatadi. G‘oya iste’molchiga tovarlar va xizmatlarni sovg‘a sifatida ko‘pincha iste’molchining o‘zi ishtirok etadigan yorqin va unutilmas harakatlar shaklida taqdim etishdir.

Demak, ma’lum usullar endi ishlamay qolganda, maqsadli auditoriya bilan ishlashning yangi usulini topish zarur bo‘ladi.

Shuning uchun tadbirlar marketingini amalga oshirish doirasida amalga oshiriladigan barcha tadbirlarni ko‘zlangan maqsadlarga ko‘ra quyidagi turlarni keltirish mumkin:

1. Trade events – hamkorlar, mijozlar, dilerlar va distribyutorlar uchun tadbirlar. Bu zavq va ko‘ngilochar komponentni istisno qilmaydigan biznes tadbirlari. Ushbu guruhga konferensiyalar, taqdimotlar, ziyofatlar, seminarlar, forumlar, kongresslar, sammitlar, PR kompaniyalari, savdo yarmarkalaridagi maxsus tadbirlar va boshqalar kiradi. Bunday tadbirlarni tashkil etishdan maqsad uning afzalliklarini aniq ko‘rsatib, mahsulotni taqdim etishdir. Shuningdek, ushbu toifadagi tadbirlar ko‘pincha yangi xizmatlarni taqdim etish, tajriba almashish, yangi strategik sheriklar topish va hokazolar maqsadida tashkil etiladi.

2. Corporate events (HR tadbirlari) – korporativ tadbirlar (xodimlarning birgalikdagi dam olishlari, kompaniyaning yubileylari, kasb bayramlari).

Korporativ tadbirlar kompaniya g‘oyalarini bevosita xodimlarga yetkazish uchun noyob imkoniyat yaratadi. Ular, shuningdek, samarali tashqi marketing vositasi bo‘lib xizmat qilishi mumkin, chunki siz har doim doimiy mijozlar va sheriklarni korporativ tadbirlarga taklif qilishingiz mumkin. Ushbu taklifnoma bilan siz taklif qilinganlarning sog‘ligini ta’minlashingiz va ularni muhimligini his qilishingiz mumkin.

Korporativ tadbirlar guruhiga kompaniyaning yubileylari, xodimlarning tug‘ilgan kunlari, partiyalar, bayramlar, pikniklar kabi tadbirlar kiradi. Har qanday kompaniyaning puxta o‘ylangan korporativ madaniyati xodimlarning uyushgan jamoaviy bo‘sh vaqtini nazarda tutadi. Voqealar marketingining ushbu sektori ko‘plab kompaniyalar tomonidan qo‘llaniladi, ular uchun o‘z xodimlariga g‘amxo‘rlik qilish tashkilotning obro‘si hisoblanadi.

Professional tarzda o‘tkaziladigan har qanday korporativ tadbir menejment obro‘sini oshirish va korporativ g‘ururni yaratishga qaratililadi. Axir, do‘stona, hamjihat jamoa muvaffaqiyatli biznesning kaliti ekanligi ma’lum.

Shuni esda tutish kerakki, har qanday tadbirni tayyorlashda siz joy tanlash, shou

dasturini tashkil qilish, korporativ uslub, mehmonlarning xohish-istaklari va boshqalar kabi ko‘plab omillarni hisobga olishingiz kerak. Shuningdek, mijozga tadbirning ma’nosi va uni o‘tkazish maqsadini yetkazish muhimdir.

Tadbir haqiqiy voqeaga aylanishi va mehmonlar tomonidan esda qolishi uchun siz ularni har safar g‘ayrioddiy ssenariylarni ixtiro qilib, hayratda qoldirishingiz kerak.

Bu tadbirlar asosan ko‘pchilik bilan tashkil etilishi maqsadga muvofiqdir.

3. Special events – **maxsus tadbirlar.** Ushbu tadbirlar guruhiga barcha turdagi festivallar, konsertlar, shoular, ommaviy tadbirlar (“reklama sayohatlari” yo‘l-shou) kirishi mumkin. Bu kompaniya yoki brend imidjiga foydali ta’sir ko‘rsatadigan voqealar to‘plamidir.

PR-kompaniyalarning professional seriyasidan keyin maqsadli auditoriyaning keng ijobiy munosabati kuzatiladi, bu kompaniyaga sodiqlikning oshishi va potensial mijozlarning qiziqishi ortishi bilan ifodalanadi. Ushbu guruh shuningdek, firmaning maqsad va vazifalariga javob beradigan va kompaniyaning ijtimoiy imidjini targ‘ib qilishni samarali ta’minlaydigan homiylik va xayriya dasturlarini o‘z ichiga oladi.

Ishonch bilan aytish mumkinki, tadbir (yoki sovg‘a) marketingi iste’mol bozorining turli segmentlariga ta’sir o‘tkazish imkonini beruvchi vositadir. Marketingning bu turi katta investitsiyalarni talab qilmaydi. Bundan tashqari, bu qisqa muddatli ta’sir bilan cheklanmaydi va undan qaytish ancha uzoqroq bo‘ladi.

Voqealar marketingining tobora ommalashib borishi tufayli professional tadbir menejerlariga talab juda yuqori. Tadbir menejerlari nafaqat ijodiy va ijodiy shaxslar bo‘lishlari, balki voqealar marketingining barcha jihatlarini yaxshi bilishlari, barcha reklama vositalarining ishchi modellarini, shuningdek psixologiya asoslarini bilishlari kerak.

Afsuski, ushbu sohadagi hozirgi mutaxassislarning aksariyati marketingning asosiy asoslarini bilmaydigan shou-biznesdan keladi. Shuning uchun ko‘p tadbirlar foyda keltirmaydi degan noto‘g‘ri fikrlar paydo bo‘ladi.

Xulosa. Umuman olganda shuni aytish kerakki, umumiy ovqatlanish korxonalarida, jumladan restoran va kafelarda turli shou dasturlarini tashkil etish, bu korxona uchun ham biznesni rivojlantirish, ham daromad, ham mijozlarni ko‘paytirish, ham yangi bredni yaratishga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Z.E.Mamarasulov. Mehmondo‘stlik industriyasi. O‘quv qo‘llanma / Samarqand iqtisodiyot va servis instituti - Samarqand.: “STEP-SEL” MChJ nashriyoti, 2024 y. – 320 bet.

2. T.Xudayshukurov, I.Shukurov, Z.E.Mamarasulov, D.Mirzaaxmadov. Kasbiy

etika va etiket. Darslik. T.: “Iqtisod-moliya”, 2021 y.-224 b.

3. Атикеева С.Н. и др. Основы индустрия гостеприимства: учебное пособие. – Нур-Султан: Университет “Туран-Астана”, 2021. – 149.

4. Корпоративный имидж: технологии формирования для максимального роста бизнеса/ А. В. Ульяновский. – Изд. 2-е дораб.: Эксмо; Москва; 2008.

5. Каримова Ш.М. Организация питания населения и туристов. Учебное пособие – Самарканд.: ООО “СТЕП-СЕЛ”, 2023 г. – 315 стр.

Mamarasulov, Zakirjon Erkinovich –
SamISI, “Servis” kafedrasi dotsenti v.b.

Go’shtga issiqlik ta’sirida ishlov berish jarayoni va uni maqsadli ishlatish sharoiti

Annotasiya: Maqolada mol tanasini pazandalik bo’laklarga bo’lish, ularni maqsadli ishlatishda issiqlik ishlov berishning ta’siri, muskul va biriktiruvchi tolalar oqsillarining issiqlik denaturasiyasi natijasida o’zgarishi ko’rib chiqilgan.

Kalit so’zlar: kollagen, elastin, peremiziy, oqsillar, denaturasiya, dezagregasiya.

Abstract: The article considers the culinary cutting of beef carcasses, their intended use, the effect of heat treatment and denaturation on the change of muscle and joint proteins.

Key words: collagen, elastin, premise, protein denaturation, disaggregation.

Kirish. Odamning sevimli mahsulotlardan biri bu go’sht va go’shtdan tayyorlangan taomlar hisoblanadi. Shuning uchun hozirgi kunda go’shtni iste’mol qilishga bo’lgan talab ortib bormoqda. Statistik ma’lumot keltiradigan bo’lsak, 2025 yilda O’zbekistonga mol, qo’y va tovuq go’shti importi sezilarli ortganini ko’rishimiz mumkin. Bojxona qo’mitasining ma’lumotiga ko’ra, 2025 yil yanvar-dekabr oylarida O’zbekistonga jami qiymati 661,2 million dollarlik 156,9 ming tonnadan ortiq mol go’shti import qilingan, 2024 yildagi mol go’shti importi esa 93,3 ming tonnani tashkil etgan[25]. Bundan ko’rinib turibdiki, yildan-yilga go’shtga bo’lgan talab ko’payib bormoqda.

Ovqatlanish korxonalarida so’yilgan mol tanasini pazandalik bo’laklarga bo’lish qoidalari, uni chakana savdo korxonalarida bo’lishdan tubdan farqlanadi.

Tadqiqot usullari. Tadqiqot ishi kuzatuv, analiz, eksperiment tadiqot, tahliliy usullardan foydalangan holda olib borildi.

Tahlil va natijalar. Hayvonot tanalari go’shtlari ozuqaviy va biologik qiymatlari, shiradorligi va yumshoqligi bo’yicha bir-biridan farq qiladigan pazandalik qismlardan

[25] https://daryo.uz/uz/2026/01/25/ozbekistonga-2025-yilda-mol-va-qoy-goshti-importi-keskin-oshdi/

iborat bo'ladi. Pazandalik qismlar ma'lum bir taomlar va pazandalik mahsulotlarini tayyorlash va issiq ishlov berish uslubi bilan farqlanadi.

Mol tanasi 13 ta pazandalik qismlarga bo'linadi: bo'yin, kurak, to'sh, biqin, qalin taliq qismi, yupqa taliq qismi, pushtimag'iz, peshnob, orqa sonning yuqori qismi, orqa sonning sirtqi qismi, orqa sonning yon qismi, orqa sonning ichki qismi, paychoq.

Mol tanasini pazandalik qismlarga bo'lishdan oldin pushtimag'iz go'shti ajratib olinadi va yarim tana oldingi va keyingi qismlarga, ya'ni chorak tanalarga bo'linadi. Ajratilgan oldingi qismi bo'yin, kurak, to'sh, biqin, qalin taliqdan iborat.

Pazandalik qismlar suyaklardan ajratiladi, paylar, qalin pardalar, socho'sarlar, ortiqcha yog'lardan tozalanadi, bo'lakchalar uchlari va qirralari kesib olinadi.

Tozalangan pazandalik go'sht qismlari tarkibidagi oziqaviy moddalar va birlashtiruvchi to'qimalar miqdoriga qarab taom tayyorlashda turli xil ishlovlar beriladi. Go'shtning qattiqligi, ya'ni birlashtiruvchi to'qimalar miqdori, kollagen va elastin oqsillarining miqdoriga bog'liq bo'ladi. Tirikligida mol tanasining qaysi qismlari ko'p jismoniy ish bajargan bo'lsa, unda shuncha ko'p kollagen oqsili shakllanadi va go'shti qattiq bo'ladi.

Pushtimag'iz, yupqa va qalin taliq, son go'shtining ichki va yuqori qismlarida birlashtiruvchi to'qimalar kam bo'ladi va tezda yumshaydi. Bu qismlardan ishlab chiqarilgan yarim tayyor mahsulotlar issiqlik ta'sirida tez yumshagani uchun qovurish uchun ishlatiladi.

Son go'shtining yon va tashqi qismlari oshpazlar bolg'achasi bilan go'shtdagi birlashtiruvchi to'qimani ezib yumshatib otbivnoy, ya'ni yumshatilgan go'shtli taomlar tayyorlanadi.

Kurak hamda biqinda birlashtiruvchi to'qimalar ko'p bo'lganligi sababli, ular uzoq muddat davomida 100^0Cda qaynatib yoki dimlab pishirishda yumshaydi [4].

Bo'yin, peshnob go'shtlarida birlashtiruvchi to'qimalar ko'p va murakkabligi sababli, ular go'sht qiymalagichdan o'tkaziladi va ma'lum bir shakl berilgandan keyin qiymalangan yarim tayyor mahsulotlarni bug'da, dimlab yoki qovurib pishirishi mumkin.

Hayvonotlar go'shtlari pazandalik qismlarining maqsadli ishlatilishi 1-jadvalda keltirilgan.

Go'shtning yumshoqligiga ta'sir etuvchi omillardan biri, uni issiqlik ta'sirida ishlov berish hisoblanadi.

Oqsillarning issiqlik denaturasiyasi natijasida o'z tuzilishini o'zgartirishi, muskul tolalari orasidagi suvni, unda erigan moddalar bilan birga qisman siqib chiqaradi. Natijada muskul tolalari diametri kichiklashadi va tolalar zichlashadi. Issiqlik muddati

qancha cho’zilsa muskul tolalari shuncha zichlashadi va go’shtning qattiqligi oshadi [1].

Ikkinchi tomondan, biriktiruvchi tolalardagi kollagen o’z tuzilishini o’zgartiradi, ya’ni dezagregasiyaga uchraydi va eruvchan glyutinga aylanadi, peremiziy qatlamlari yumshaydi, muskul tolalari dastalari orasidagi bog’lar bo’shashadi va muskul tolalari orasidagi mexanik bog’liqlik yumshaydi.

1-jadval

Mol pazandalik qismlarining issiqlik ta’sirida ishlov berish usullari

Pazandalik ishlov berish usullari	**Pazandalik bo’laklari,**	**Xom ashyo vazniga nisbatan, %**
I-kategoriya		
Qovurish	Pushtimag’iz, qalin va yupqa taliq qismi, sonning yuqori va ichki qismlari	12,0
Dimlab pishirish va suyuq taomlar	Sonning yon va tashqi qismlari, kurak, to’sh	20,5
Qiymalangan kotlet massasi	Bo’yin, peshnob, go’sht bo’lakchalari	41,5
Bulon	Suyak va paylar	35,5
Jami:		**99,5**
II -kategoriya		
Qovurish	Pushtimag’iz, qalin va yupqa taliq qismi, sonning yuqori va ichki qismlari	9,5
Dimlab pishirish va suyuq taomlar	Sonning yon va tashqi qismlari, kurak, to’sh	16,5
Qiymalangan kotlet massasi	Bo’yin, peshnob, go’sht bo’lakchalari	43,0
Bulon	Suyak va paylar	34,5
Jami:		**99,5**

Go’shtlarga pazandalik ishlov berish, uning tarkibidagi biriktiruvchi tolalar mustahkamligiga bog’liq. Biriktiruvchi tolalar uning tarkibidagi kollagen tufayli murakkab tuzilishga va issiqlikka chidamlilikka ega va peremiziyning murakkablashishi bilan bu chidamlilik kuchaya boshlaydi.

Molning orqa va bel qismi, hamda belning ichki qismi muskullaridan tashqari, qolgan ko’p qismi muskullari mustahkam peremiziyga ega bo’lib, ularni iste’molga tayyor holatgacha yumshatish uchun ularni faqat suyuqlikda, ya’ni qaynatib yoki dimlab pishirish mumkin.

Qovurish muskuldagi peremiziyni kerakli darajada yumshataolmaydi. Chunki, qovurish jarayonida namlik uzoq muddat kollagenga ta’sir qilmaydi.

Mol tanasining bel qismi, orqa qismi va belning ichki qismi denaturasiya natijasida oqsillardan ajralib chiqayotgan suv, kollagenning dezagregasiyaga uchrashi uchun yetarli va natijada go’sht yumshaydi. Shuning uchun mol tanasining bu qismlarini qovurish mumkin.

Go’shtning yumshashiga ta’sir etuvchi muhitlardan yana biri issiqlik ta’sirining davomiyligidir. Uzoq muddat issiqlik ta’sir etilganda kollagen parchalanadi. Mol go’shtidan 80^0C va 125^0C haroratda jarkoye taomi pishirganda, 80^0C da pishirilgan go’sht ko’p miqdorda kollagen gidrolizga uchragani uchun 125^0C da pishirgan go’shtdan yumshoqligi aniqlangan.

Ko’p olimlar qayd etganlaridek, go’shtning yumshashiga go’sht bo’lagining markazidagi keyingi harorat ham ta’sir etadi [2].

Yarim tayyor go’sht mahsulotlarini qovurganda uch xil holatda tayyorlash mumkin: chala pishirilgan (go’sht markazi rangi qonli-qizil), yarim holatda tayyor pishirilgan (go’sht bo’lagi chetlari jigarrang, o’rtasining rangi ochiq gulob rangda) va to’la tayyor pishirilgan (go’sht bo’lagi atrofi va o’rtasi och jigarrang rangda) [3].

Tajribalar asosida aniqlanishicha, markazida 80^0S harorat bo’lgan go’sht bo’lagi, markazida harorat 61^0S bo’lgan go’shtdan qattiqroq. Lekin, markazida 80^0S va 100^0S harorat bo’lgan go’shtlar qattiqligi farqi deyarli bilinmaydi.

Xom va qaynatib pishirganda yumshoq holatda bo’lgan va tarkibida oz miqdorda kollagen tolalari bo’lgan go’sht pishirganda qattiqligi oshadi.

Tarkibida o’rtacha miqdorda kollagen tolalari bo’lgan go’shtni qaynatib pishirganda qattiqligi deyarli o’zgarmaydi.

Issiqlik ta’sirida qaynatib ishlov berilganda tarkibida ko’proq miqdorda kollagen tolalari bo’lgan go’sht ancha yumshaydi.

Lekin, tarkibida ko’p miqdorda biriktiruvchi tolalar oqsillari kollagen va elastin bo’lgan go’shtni qovurib pishirganda bu go’sht yumshamaydi. Chunki, muskul tolalaridan issiqlik ta’sirida ajralib chiqayotgan suvlar kollagenning glyutinga aylanib, yumshashi uchun yetarli emas.

Xulosa. Umuman olganda, yuqorida qayd etilganlarga asosan chakana savdo shaxobchalarida mol go’shtini navlarga ajratmasdan, pazandalik ishlatilishiga qarab bo’laklab sotishni tashkil etish haqida taklif kiritish maqsadga muvofiq bo’ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. N.N.Mo'minov, Z.E.Mamarasulov, J.A.Kaxarov, Z.Sh.Suvonov. Milliy taomlar texnologiyasi: o'quv qo'llanma-Samarqand.:"FAN BULOG'I", 2023.-228 b.

3. Xudayberdiev A.Yu., Ishniyazova Sh.A., Mo‘minov N.N. Go‘sht va go‘sht mahsulotlarini saqlash va uni qayta ishlashda innovatsion texnologiyalar. O‘quv qo‘llanma. “O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati” nashriyoti, 100029. Toshkent 2022 – 160 bet.

3. Николаева Л.И. Основ технологии и организасии производства продуксии общественного питания. Учебное пособие. Екатеринбург. Изд-во УрГЕУ, 2005. – 76 стр.

4. Технология продуксии общественного питания. В 2-х т. 1: Физико-химические просесс, протекающие в пищевх продуктах при их кулинарной обработке. Учебное пособие. М.: Мир, 2007. – 351 стр.

5. https://daryo.uz/uz/2026/01/25/ozbekistonga-2025-yilda-mol-va-qoy-goshti-importi-keskin-oshdi/

Mamarasulov, Zakirjon Erkinovich –
SamISI, “Servis” kafedrasi dotsenti v.b.

Korxonalarda ko‘rsatilayotgan xizmatlarning sifatini yaxshilash orqali mijozlar talabini qondirish yo‘llari

Annotatsiya: Maqolada iste’molchining xizmatlardan qoniqish darajasi xizmat sifatini, uning bajarilishi va natijasiga bog‘liqligi ta’kidlangan. Xizmatlar sifati iste’mol xususiyatlarining normativ texnik hujjatlar talablariga javob berishi darajasi bilan baholanadi. Xizmatlar ko‘rsatish sifatini oshirish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

Kalit so‘zlar: Xizmatlar, xizmatlar sifati, iste’mol xususiyatlari, normativ-texnik hujjatlar.

Abstract: The degree of consumer satisfaction in services depends on the quality of the services provided. The quality of services is assessed by the conformity of their consumer properties with the requirements of normative and technical documents. Improving the quality of services provided is the main task of the present day

Keywords: Services, quality of services, consumer properties of services, normative and technical documents.

Kirish. Xizmatlar iste’molchiga xizmatning bajaruvchisi va iste’molchisi o‘rtasida tuziladigan pudrat shartnomasi (moddiy xizmatlar uchun) va xizmat ko‘rsatish shartnomasi (ijtimoiy va moddiy xizmatlar uchun) asosida taqdim qilinadi. Xizmatlar sifatiga shartnomalarga rioya qilish (bajarilgan ishlar nomenklaturasi, muddatlari, ishlar sifatiga talablar) orqali baho berish mumkin.

Xizmat sifati – bu iste’molchining belgilangan va ko‘zda tutilayotgan ehtiyojlarini qondirilishini ta’minlaydigan jarayon va xizmat ko‘rsatish shartnomalarining tavsiflari yig‘indisidir [1].

Barcha taqdim etilayotgan xizmatlar huquqiy-texnik hujjatlar talablariga mos kelishi lozim. Xizmatlar bajaruvchisi davlat standartlari, texnologik reglamentlar, sanitar, yong‘inga qarshi qoidalar va boshqa normativ hujjatlarda belgilangan xizmatlar sifati ularning insonlar sog‘lig‘i, atrof-muhit va mulkka xatarsizligi bo‘yicha majburiy talablarga rioya qilishi shart.

Tadqiqot usullari. Tadqiqot ishi kuzatuv, analiz, eksperiment tadqiqot, tahliliy usullardan foydalangan holda olib borildi.

Tahlil va natijalar. Xizmatlar sifati ularning iste’mol xususiyatlari orqali aniqlanadi, iste’molchi nafaqat xizmat natijasini ko‘radi, balki qator holatlarda uni ko‘rsatish ishtirokchisi bo‘lib ham hisoblanadi, chunki xizmatlar iste’molchining shaxsiy holatini inobatga olgan holda, yakka tartibda ko‘rsatiladi.

Xizmatlar sifatini qabul qilish, iste’molchilarning psixologik xususiyatlariga bog‘liq bo‘ladi. Iste’molchilarning shunday guruhlari mavjudki, ular zaruriy axborotni qabul qilishga, xizmat ko‘rsatadigan xodimlar yo‘riqnomalariga amal qilishga qodir emaslar. Ular ko‘pchilik holatlarda o‘zlarini agressiv holda tutadilar. Xizmat korxonasi xodimlari xizmat ko‘rsatish jarayonida iste’molchilarning psixologik xususiyatlarini tahlil qilishlari va har bir iste’molchining harakterini inobatga olgan holda xizmat

ko‘rsatishga o‘zgartirishlar kiritishga to‘g‘ri keladi. Xizmat ko‘rsatish xodimlarining o‘zi va harakatlari xizmat ko‘rsatish sifatining elementlari hisoblanadi [2].

Xizmat ko‘rsatish xodimlarining gapi mazmunli, aniq, tushunarli, bilimli bo‘lishi lozim. Servis bo‘yicha mutaxassisning iste’molchi bilan muloqati shoshilmasdan amalga oshirilishi lozim. Iste’molchilarga xizmat ko‘rsatish ish etiketi qoidalariga qattiq rioya qilgan holda amalga oshirilishi lozim.

Xizmat ko‘rsatish xodimlarining muomala uslubi korxonaning xizmat ko‘rsatish turiga mos kelishi lozim. Xizmat ko‘rsatish bo‘yicha mutaxassis yaxshi xotiraga ega bo‘lishi, konkret iste’molchilarga xizmat ko‘rsatish uchun zarur bo‘lgan o‘z vaqtidagi va kerakli ma’lumotni to‘g‘ri yetkaza oladagan bo‘lishi lozim. U o‘z-o‘zini nazorat qila oladigan faoliyat uslublari va natijalarini, ishdagi kamchiliklar va sifatning kamayishi sabablarini operativ ravishda tahlil qila olishi lozim.

Xizmat ko‘rsatish xodimi iste’molchilar bilan muomala jarayonida ularni diqqat bilan eshtishi, assortiment va xizmat xususiyatlari to‘g‘risida ma’lumot taqdim eta bilishi lozim. Ma’lumot har qanday iste’molchi uchun sodda, texnik jumlalar tushunarli bo‘lishi lozim. Ehtiyojni qondirish uchun mutaxassis iste’molchiga ma’qul bo‘ladigan xizmatlarni taqdim etishi va unga mustaqil to‘g‘ri tanlash imkoniyatini beradigan axborotni (sifat, xususiyatlari, baho, xizmatga haq to‘lash shartlari) taqdim etilishi lozim [3].

Xizmat ko‘rsatish korxonasi xizmatni shartnoma shartlariga taaluqli ravishda bajarishi kerak. Xizmatlar sifati meyoriy hujjatlar talablariga mos kelishi zarur. O‘zbekiston Respublikasi qonuni yoki normativ huquqiy hujjatlarida xizmat sifatiga majburiy talablar ko‘zda tutilgan bo‘lsa, unda taqdim qilinayotgan xizmatlar ushbu talablarga mos kelishi lozim [4].

Hozirgi vaqtda xizmatlar sifatini oshirish muhim muammo hisoblanadi. Xizmatlar sifatini oshirishga bir qator omillar ta’sir qiladi: xizmat bilan band bo‘lgan xodim mehnatining sifati; ularning yetarli malaka va ko‘nikmalarga egalig darajasi; xizmat korxonasini joylashgan o‘rni, ularning ish grafigi, zamonaviy texnika va texnologiyalarning mavjudligi, jihozlanganligi va boshqalar.

Xizmat ko‘rsatish korxonalarida mavjud bo‘lgan kamchiliklarni bartaraf qilish, ish sifati va samaradorligini oshrish maqsadida quyidagilarga e’tibor qaratish lozim:

- xizmatlarda tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirish;
- aholi ehtiyojlarini to‘liqroq hisobga olish;
- sohadagi negativ holatlarni (xufiya faoliyatini) oldini olish;
- xizmatni ijtimoiy ahamiyatini oshirish;
- xizmat sohasida tadbirkorlikni rivojlantirish;
- sohada yangi tashkiliy tuzilmalarni shakllanish.

Xizmat sohasida xodimlar faoliyatini tashkiliy jihatdan ta’minlashning mazmunini xizmat ko‘rsatish sifatini oshirish bilan bog‘liq uning tarkibiy elementlari va yo‘nalishlari bilan belgilanadi. Korxona faoliyatini tashkiliy jihatdan ta’minlash ikki yo‘nalishda: mehnatning buyumli elementlarini tashkil etish hamda mehnatning shaxsga oid elementlarini tashkil etish asosida amalga oshiriladi [5].

O‘z navbatida xizmat ko‘rsatish xodimlari faoliyatini tashkiliy jihatdan ta’minlash elementlari quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

- tuzilmaviy bo‘linma doirasida xizmat turlariga qarab mehnatni operatsion va funksional taqsimlash;
- ish joylarini zamonaviy tartibda tashkil etish;
- xizmat ko‘rsatish me’yorlarini ishlab chiqish;
- xizmat ko‘rsatish sharoitlarini yaratish;
- sohaga oid xodimlarni tanlash, tayyorlash va malakasini oshirish;
- mehnatni moddiy rag‘batlantirish;
- ijtimoiy mehnat munosabatlarini tashkil etish va takomillashtirish;
- xizmat ko‘rsatishida yuqori kasbiy ko‘nikma va madaniy saviyani ta’minlash;
- xizmat ko‘rsatishda intizomga qat’iy rioya qilish.

Respublikamizda hozirgi paytda xizmat ko‘rsatish sohasining rivojlanib borishi va buning natijasi ularoq mazkur sohada mehnat taqsimotining chuqurlashib borishi kadrlarning kasbiy tayyorgarligini oshirish, ularni sifat jihatidan takomillashtirishini zarurat etmoqda. Bozor iqtisodiyoti rivojlanishi sharoitida esa malakali ishchi-kadrlar tayyorlash, mehnat salohiyatini, sifat ko‘rsatkichlarini jahon talablariga ko‘tarish tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Chunki, xizmat ko‘rsatish korxonalarida xizmat ko‘rsatish sifatini oshirishining asosiy omili bo‘lib, xodimlarning malaka darajasi va kasbiy mahorati hisoblanadi.

Sifat jihatdan talab, mutaxassislik xodimlar malakasi darajasi bo‘yicha talab quyidagilarga asoslangan holda tahlil qilinadi:

- ish jarayonida xizmat ko‘rsatish texnologik hujjatlarda qayd qilingan ishlarni kasbiy-malakaviy bo‘lishi;
- lavozimlar tarkibi, belgilangan korxona yoki uning bo‘limlari, shtatlar ro‘yxati;
- ijrochilar tarkibining kasb-malaka bo‘yicha talablar ajratib ko‘rsatilgan turli tashkiliy, boshqaruv jarayonlarini aniq belgilaydigan hujjatlarga rioya qilishi.

Xulosa. Умуман олганда, xodimlarning sifat tarkibini tahlil qilish kadrlarga bo‘lgan son va sifat ehtiyojlarini oldindan bilish va mavjud tarkibiy talablarga to‘g‘ri kelishi uchun tadbirlar belgilash (tanlash, ishga qabul qilish, tayyorlash, moslashish, malakasini oshirish, gorizontal va vertikal joylashtirish, ishdan bo‘shatish va hokazo), xodimni o‘qitish va malakasini oshirish dasturini ishlab chiqarish uchun kerak.

Yuqori texnik doiradagi raqobatbardosh xizmat ko‘rsatish uchun xodimlarning malakasi xizmat ko‘rsatish sifatini oshirish talablariga mos kelishi zarur. Xizmat ko‘rsatish standartlariga iste’mol talablari doimo oshib bormoqda va xizmatlarning yuqori sifatiga erishish iqtisodiyotni diversifikatsiyalash jarayonida xizmat ko‘rsatish korxonalarining asosiy vazifasi bo‘lib kelmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. T.Xudayshukurov, I.Shukurov, Z.E.Mamarasulov, D.Mirzaaxmadov. Kasbiy etika va etiket. Darslik. T.: “Iqtisod-moliya”, 2021 y.-224 b.

2. Z.E.Mamarasulov. Mehmondo‘stlik industriyasi. O‘quv qo‘llanma / Samarqand iqtisodiyot va servis instituti - Samarqand.: “STEP-SEL” MChJ nashriyoti, 2024 y. – 320 bet.

3. J.S.Fayziyev, Z.Bazarov. Servis faoliyati. O’quv qo’llanma. Samarqand. 2019. – 340 b.

4. Назаркина В.А., Л.Н.Стребкова. Сервисная деятельность. учеб. пособие . – Новосибирск. Изд-во НГТУ, 2015 г. – 104 с.

5. Ж.А.Романович, С.Л.Калачев. Сервисная деятелност. Учебник. – Москва, 2018 г, - 268 с.

Mamarasulov, Zakirjon Erkinovich –
SamISI, “Servis” kafedrasi dotsenti v.b.

Ovqatlanishda ishlatiladigan jihozlarning ekspluatatsiya qilish talablarini rivojlantirish yo‘llari

Annotatsiya: Makolada xizmat ko‘rsatuvchi ovqatlanish korxonalaridagi ishlatilayotgan texnologik jihozlarni ishlatish qoidalari, ya’ni ekspluatatsiyasiga rioya etilishi va ularga qo‘yiladigan talablarga amal qilishi keltirilgan. Ushbu qoida va talablar jihozlarni ishlatayotgan xodimlarning xavfsizligini ta’minlashga olib keladi.

Kalit so‘zlar: ovqatlanish korxonalari, texnologik jihozlar, ekspluatatsiya, ekspluatatsiya talablari, qoidalar, ekspluatatsiya hujjatlari, ekspluatatsion hujjat, jihozning pasporti, formulyar, jihozning ishlashi vaqti.

Abstract: The article outlines the rules for the use of technological equipment in catering establishments, namely compliance with its operation and adherence to the requirements placed upon it. These rules and requirements ensure the safety of the staff operating the equipment.

Keywords: catering establishments, technological equipment, operation, operational requirements, regulations, operational documentation, operational document, equipment passport, form, equipment operating time.

Kirish. Hozirgi kunda dunyo bo‘yicha turli xildagi xizmat ko‘rsatuvchi ovqatlanish korxonalari mavjud. Shu bilan birga bizning yurtimizda ham umumiy ovqatlanish korxonalari (restoran, kafe, oshxona, choyxona, to‘yxona va h.k.lar) faoliyat ko‘rsatib kelmoqda. Ushbu xizmat ko‘rsatuvchi korxonalarda har xil texnologik jihozlar qo‘llaniladi. Shu sababli ham ushbu texnologik jihozlarni to‘g‘ri ishlatish, ya’ni ekspluatatsiya qilish muhim hisoblanadi. Bundan kelib chiqadiki, bu jihozlar to‘liq ishlatish qoidalari, ya’ni ekspluatatsion talablarga javob berishi lozim.

Ekspluatatsion talablar – jihozlarni ishlatishda, xizmat ko‘rsatishda oddiylik

bajarilishini, kam mehnat sarf etilishi, uning korroziyaga chidamliligini ko‘rib chiqish, tozalash, ta’mirlash qulay bo‘lishi, sababsiz, to‘xtovsiz va shovqinsiz ishlashini ta’minlashni bajaradi.

Tadqiqot usullari. Ishda ovqatlanish korxonalaridagi jihozlarni o‘rganishda kuzatuv, tahlil va taqqoslash usullaridan foydalanildi. Tahlil usuli orqali mavzuga oid ilmiy adabiyotlar o‘rganildi. Shuningdek, olingan ma’lumotlarni umumlashtirish orqali ilmiy xulosalar chiqarildi.

Tahlil va natijalar. Jihozlarning qo‘llanilishidagi ekspluatatsion talablar, texnika xavfsizligi va ishlab chiqarish sanitariyasi talab va qoidalari bilan bevosita bog‘liq ravishda bo‘ladi. Ularga jihozlarning ishlashida havoning tozaligi, yorug‘likning me’yorda bo‘lishi, ionizatsiyadan, qizil va ultrabinafsha nurlardan, elektromagnit nurlanishdan himoyalanganligi; shovqin, titrash, ultratovush, elektr tokini urishidan, elektrostatik zaryadlar paydo bo‘lishidan, yuqori va past haroratdan, mexanik, kimyoviy, biologik omillardan himoyalanishi; jihozlarning o‘ralganligi, elektr himoyalanishi, signalizatsiya va nazorat uskunalarida turli ranglarning qo‘llanilishi ta’minlangan bo‘lishi kerak.

Mijozlarga xizmat ko‘rsatuvchi ovqatlanish korxonalari jihozlarining barchasi ekspluatatsion va ta’mirlash texnikaviy hujjat bilan ta’minlangan bo‘lishi lozim.

Ekspluatatsion hujjat, jihozning ekspluatatsiya qilinishi haqidagi yo‘llanmadan, uni qo‘llash xavfsizlik texnikasi bo‘yicha eslatmadan, pasporti, formulyar va ulardaga ilovadan tarkib topgan.

Jihozlarni ekspluatatsiya qilish haqidagi yo‘llanmada jihozning tuzilishi, chizmalari bilan yozuvi, ekspluatatsiya qilish bo‘yicha yo‘riqnomasi, texnikaviy xizmat ko‘rsatish va boshqa xujjatlar keltirilgan bo‘ladi.

Jihozning pasporti, uni tayyorlagan korxona tomonidan kafolatlangan asosiy parametrlarini, tavsifini, qo‘yilish komplektini, ishlab chiqargan zavod nomerini tasdiqlaydi.

Formulyarda, jihoz haqida umumiy ma’lumotlar birgalikda ekspluatatsiya qilishdan boshlab ishlash resursi, rejali – ogohlantiruvchi ta’mirlash rejasi, ta’mirlash sikli orasi strukturasi bo‘lishi kerak. Chunki, uning yordamida ekspluatatsiya davridagi oylar va yillar bo‘yicha buzilishlari, texnikaviy xizmat ko‘rsatishlar va ta’mirlash hisobi olib boriladi.

Ushbu hujjatlar korxona boshlig‘ining buyrug‘i bilan ekspluatatsiya qilish bo‘yicha javobgar shaxsda saqlanishi kerak.

Yuqorida keltirilgan ekspluatatsion qoidalar asosida biz Samarqand shahridagi mehmonxona va ovqatlanish korxonalarning monitoringini olib borib, quyida

keltirilgan fikrlarni tuzdik.

Jihozlarning umumiy ekspluatatsiya etish qoidalari bo‘yicha, ishlash oldidan albatta jihozlarning sanitariya – texnikaviy holati tekshirildi. Bunda: elektr o‘tkazgichlar va yerga tutashtirilganligining sozligi, barcha harakatlanuvchi qismlar va ishchi organlarning atrofini o‘rab olinganligi, alohida ulash elektr priborlari bo‘lgan: rubilniklar, paketli o‘chirgichlar, magnitli ulovchilar va h.k. holatini; jihozning polga yoki ishchi stolda mahkamlanganligini; yog‘ini, ayrim uzellari va mexanizmlarini, ishchi organlari va o‘rnatilganligini sozligini, sanitariya holatini, bo‘sh holatda ishlashini tekshirish va sozligini ta’minlash kerak.

Texnologik jihozning ishlashi vaqtida qo‘l bilan ortiqcha mahsulotni itarish va to‘g‘rilash qat’iyan man etiladi. Buning uchun maxsus itaruvchi vositalardan foydalanish kerak. Jihozlarning ish vaqtida sozlash, ta’mirlash, olish va turish joylarini tozalash ham, man etiladi. Jihozni ishlatishdan oldin, elektrodvigatel va ishchi organlarning to‘g‘ri tomonga aylanayotganligiga ishonch hosil qilish kerak. Agar tezligini o‘zgartiruvchi variatori bo‘lmasa, uning tezligini o‘zgartirish faqat elektrodvigatelini to‘xtatgandan so‘ng amalga oshiriladi.

Jihozlarning ekspluatatsiyasida xom ashyoni, ularning ishga tushgandan so‘ng ortish va mashinalarga me’yoridan ortiqcha mahsulot yoki yuk ortmaslik kerak. Chunki, bunda mashinalar ishdan chiqishi tezlashadi, harakat manbai bo‘lgan elektrodvigatellar ortiqcha yukda ishlab, qizib ishdan chiqishi va mahsulot sifati pasayadi. Shuningdek, jihozlar me’yoridan kam yuklatilsa unda foydali ish koeffitsienti kamayadi. Jihozning ishlashini diqqat bilan kuzatish va ortiqcha tovush yoki taqillagan ovoz chiqsa darrov to‘xtatish lozim.

Jihozlarni ishlatishdan so‘ng o‘chiriladi, ochilishi kerak bo‘lgan qismlari ochilib tozalanadi, keyin yaxshilab yuviladi. Tashqi yuzasi oldin ho‘l, so‘ng quruq material bilan artiladi. Yuvilgan qismlar esa quritiladi, so‘ng yemiriladigan va korroziya bo‘lishi mumkin bo‘lgan joylariga tuzsiz oziq-ovqat yog‘i surtiladi. Zanglamas metalli va alyumendan qilingan joylar haftada bir marta yaltiragunga qadar flanelli material bilan artiladi. Barcha elektr jihozlar ishlamagan vaqtda elektr tarmog‘idan uzib qo‘yish kerak.

Xulosa. Demak, yuqoridagi qoida va talablarning bajarilishi xizmat ko‘rsatuvchi ovqatlanish korxonalari xodimlarining xavfsiz ish faoliyatini ta’minlaydi va mehnat samaradorligining oshishiga olib keladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Золин В.П. Технологическое оборудование предприятий общественного питания. Учебник для нач. проф. образования. — М.: Академия, 2012. — 320 с.

2. Файзиев Ж.С., Мамарасулов З.Э. Подбор персонала как важнейший принцип социального управления в сервисных предприятиях. “Ижтимоий соҳа инфратузилмасини ривожлантиришнинг муаммолари” мавзусидаги республика илмий-амалий анжумани материаллари. Самарқанд, СамИСИ, 2016 йил 20 май.

3. Кавецкий Г.Д., Филатов О.К., Шленская Т.В. Оборудование предприятий общественного питания. Учебное пособие. — М.: КолосС, 2004. — 304 с.

4. Оборудование предприятий торговли и общественного питания. Полный курс. / Под ред. В.А.Гуляева. – М.: ИНФРА-М. 2002. – 543 с.

Xolmirzayeva Gulrux Akbarovna
SamISI Investitsiya va innovatsiyalar kafedrasi assistenti
gulruxxolmirzayeva@gmail.com
Jumaboyeva Sevinch Xusniddin qizi
SamISI MN-123 guruh talabasi
jumaboyevasevinch62@gmail.com
To’rayeva Shohsanam Hamdam qizi
SamISI MN-123 guruh talabasi
torayevashohsanam899@gmail.com

KORXONADA INNOVATSION JARAYONLARNI BOSHQARISH

Annotatsiya. Bu maqola innovatsion faoliyat tushunchasini chuqur tahlil qiladi. Uning mohiyati, shakllari va zamonaviy iqtisodiyotdagi o'rni atroflicha ko'rib chiqiladi. Muallif innovatsiyalarning jamiyat taraqqiyotidagi hal qiluvchi rolini ta'kidlab, ularni rag'batlantirish mexanizmlarini o'rganadi. Shuningdek, innovatsion faoliyatni rivojlantirishdagi asosiy muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari muhokama qilinadi. Tadqiqot natijalari innovatsion siyosatni shakllantirish uchun nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: innovatsiya, innovatsion faoliyat, tushuncha, iqtisodiyot, taraqqiyot, texnologiya, rivojlanish, samaradorlik

Abstract. This article provides an in-depth analysis of the concept of innovation activity. It thoroughly examines its essence, forms, and role in the modern economy. The author emphasizes the crucial role of innovations in societal development and explores mechanisms for their stimulation. Furthermore, key challenges in developing innovation activity and ways to overcome them are discussed. The findings of this research serve as a theoretical basis for shaping innovation policy.

Keywords: Innovation, Innovation Activity, Concept, Economy, Development, Technology, Progress, Efficiency

Kirish. Zamonaviy global iqtisodiyotda innovatsion faoliyat mamlakatlarning raqobatbardoshligini oshirish va barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashning asosiy harakatlantiruvchi kuchi hisoblanadi. Yangi g'oyalarni yaratish va ularni tijoratlashtirish har qanday davlatning taraqqiyot strategiyasining markazida turadi. Innovatsiyalar ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish va samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi. Shu sababli, innovatsion faoliyat tushunchasini chuqur anglash muhim.

Innovatsion faoliyat ilmiy, texnologik, tashkiliy, moliyaviy va tijorat sa'y-harakatlarning keng qamrovli majmuasi bo'lib, uning asosiy maqsadi to'plangan bilim, texnologiya va uskunalarni tijoratlashtirishdir [1]. Bu yangi yoki takomillashtirilgan tovar va xizmatlarni yaratish, mahsulot turlarini kengaytirish, sifatni oshirish hamda ishlab chiqarish texnologiyalarini takomillashtirish orqali ularni bozorda samarali amalga oshirishga qaratilgan. U innovatsiyalarni yaratish, o'zlashtirish, tarqatish va ulardan foydalanishni o'z ichiga oladi. Innovatsion faoliyatning turlari ilmiy-tadqiqot, tajriba-konstruktorlik, texnologik, jarayon, tashkiliy va marketing innovatsiyalarini qamrab oladi [1].

O'zbekistonda innovatsion faoliyatni rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib, bu borada keng qamrovli huquqiy va me'yoriy baza yaratilgan. Prezident farmonlari va Vazirlar Mahkamasi qarorlari bilan ilmiy va innovatsion faoliyatni davlat tomonidan boshqarishni takomillashtirish, Innovatsion rivojlanish vazirligini tashkil etish kabi muhim tashabbuslar amalga oshirilgan [2]. 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Innovatsion rivojlanish strategiyasi (PF-165, 2022) doirasida yosh olimlarni qo'llab-quvvatlash, Yoshlar texnoparklari va "UzVC" Milliy venchur fondini ishga tushirish kabi aniq chora-tadbirlar ko'zda tutilgan [2]. Bu sa'y-harakatlar mamlakatda innovatsion ekotizimni mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Ushbu maqolada innovatsion faoliyat tushunchasining nazariy asoslari, uning asosiy xususiyatlari va turlari tahlil qilinadi. Shuningdek, innovatsion jarayon bosqichlari, uni boshqarish mexanizmlari, rag'batlantiruvchi omillar va uning iqtisodiy ahamiyati o'rganiladi. Maqola innovatsion faoliyatning zamonaviy iqtisodiyotdagi o'rni va ahamiyatini keng qamrovli tushunishga hissa qo'shishni maqsad qilgan.

